

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH TA‘LIM VA JISMONIY  
MADANIYAT FAKULTETI**

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA IJTIMOIIY-GUMANITAR  
FANLARNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**“BOLALAR KITOBXONLIGI”  
FANIDAN**

**5111700 – Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi, 4-kurs talabalari uchun  
(7-semestrlar, kunduzgi)**

**O‘QUV – USLUBIY  
MAJMUUA**



<b>Bilim sohasi:</b>	<b>100000 – Gumanitar</b>
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	<b>110000 – Pedagogika</b>
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	<b>5111700 – Boshlang‘ich ta‘lim</b>

**Namangan-2023**

## MUNDARIJA:

<b>O'quv materiallar.....</b>	
<b>Ma`ruza mashg'ulotlari.....</b>	
<b>Amaliy mashg'ulotlar.....</b>	
<b>Mustaqil mashg'ulotlari.....</b>	<b>ta'lim</b>
<b>Glossariy.....</b>	
<b>Ilovalar.....</b>	
<b>Ishchi fan dasturi.....</b>	
<b>Testlar.....</b>	
<b>Baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatma.....</b>	
<b>Adabiyotlar.....</b>	

## 5-SEMESTR:

### MA'RUZA MASHG'ULOTLARI:

#### 1-MA'RUZA: "Bolalar kitobxonligi" fanining maqsad va vazifalari

##### Reja:

1. Ma'naviyatimizning shakllanishida kitobning o'rni.
2. "Bolalar kitobxonligi" fanining shakllanishi.
3. "Bolalar kitobxonligi" fanining o'ziga xos xususiyatlari

*Tayanch so'z va iboralar: Kitob, kitobxon, mutolaa, noshirlik, maktabgacha ta'lim, kichik yoshdagi kitobxon, maktab yoshdagi kitobxon, o'rta yosh kitobxon, Bolalar kitobxonligi.*

Ma'naviyatining shakllanishida kitobning o'rni beqiyos. Kitob yosh avlodga chinakam aqliy, axloqiy, estetik tarbiya berish vositasidir, kitob ularni erkin fikrlashga, dunyoqarashining kengayishiga, go'zal nutq sohibi bo'lishga o'rgatadi. Kitob insonga sodiq do'st, uning ichida barcha ilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Haqiqatdan ham, kitob barchamizni ezgulikka undaydigan, oldimizda turgan barcha muammolarni hal etishga yordam beradigan kuchdir. 2016-yildan buyon matbuot, noshirlik va axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo'lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilingan. 1 677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin kutubxonalar tomonidan aholiga, bolalarga axborot-kutubxona xizmatlari hamda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitob savdo ta'minoti" majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Yozuvchilar uyushmasi huzurida tashkil etilgan "Ijod" jamoat fondi tomonidan yozuvchi va shoirlar, ayniqsa, yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari ko'p ming nusxada nashr etish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, ushbu muhim soha rivoji bilan bog'liq aholi, xususan, Yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishda bir qator muammolar mavjudligini aniqlandi.

Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining etuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagan. Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga etkazish tizimi sust rivojlangan, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2017 yil 12 yanvardagi - "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi hamda 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks choratadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori yurtimizda kitob, kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini oshirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Yurtimizning barcha sohalarida, ta'limning barcha bo'g'inlarida badiiy adabiyotga, kitob o'qishga bo'lgan munosabatlarni yuksaltirdi. Ushbu Qarorning ijrosi sifatida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimi takomillashtirilib, bolalar kitobxonligi juda mas'uliyat bilan e'tibor berilib, yozuvchilarning - bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiyommabop va publitsistik asarlari, Jahon xalqlari adabiyoti, shu jumladan o'zbek xalqi Bolalar kitobxonligi tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, matal, masal va doston singari bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijodi namunalari lotin alifbosida qaytadan nashr etildi, bundan tashqari o'zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalari internet tarmog'iga joylashtirish va ularni targ'ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlari samarali tashkil etilindi. Bugungi kunda respublikamizning barcha axborot-kutubxona markazlari hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan kutubxonalar fondlari lotin alifbosiga asoslangan o'quv-uslubiy, adabiy-badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop va ensiklopedik kitoblar bilan boyitildi va bu ishlar davom etmoqda.

Bunday e'tiborli va hayrli harakatlarning barchasi barkamol avlodning kitobxonli madaniyatini shakllantirishga qaratilgandir. Bolalar kitobxonligining shakllanishida oilaning, maktabgacha ta'lim maskani hamda maktab kutubxonasining, boshqacha qilib aytganda ota-onalar, tarbiyachilar, murabbiylar hamda kutubxona xodimlarining ahamiyati kattadir. Kitobxonlikni shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rgazmalilikka asoslangan bo'lsa, bolalar va o'smirlar uchun adabiyotlarni tavsiya etish asosida amalga oshiriladi. Bunday jarayonida kitobxon bilan suhbatlashib, uning qiziqishlarini, psixologiyasini o'rganish juda muhimdir. Bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha);
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha);

3. O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).<sup>1</sup>

Maktabgacha ta'lim yoshdagi kitobxonlarga asosan ota-onalar, buvi-bobolar, tarbiyachilarning ta'siri katta bo'ladi, chunki hali o'qish va yozishni bilmagan bolaning kitobxonlik madaniyati do'stlik, halollik, botirlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, mehr-muhabbat g'oyalari asoslangan ertaklar tinglash orqali shakillanadi. Ertaklar xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang barang janrlardan biri. Bundan tashqari topishmoq orqali bolaning tafakkuri rivojlanadi, topishmoqlar xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusumlari o'rgatadi hamda bolalarni o'ylashga, topqirlikka o'rgatadi. Bundan tashqari bolalar «Kim?», «Nima?» so'roqlariga javob topishga o'rganadilar. Tez aytishlar ham bola nutqining rivojlanishida samaralidir. Tez aytishlar bolaning og'zaki nutq mashqi bo'lib, kichik yoshdagi bolalar ma'lum tovushlarni to'g'ri va ohangdor talaffuz qilish ko'nikmalarini orttiradi. Tez aytishlar bolalarni biyron so'zlashga o'rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatini o'stiradi hamda xotirasini mustahkamlaydi. Maktab yoshidagi kichik kitobxon bolalarga tabiat, vatan, vatanparvarlik, botirlik, mehnatsevarlik, odob-axloq, ota-onaga, ustozlarga, o'qishga mehr-muhabbat g'oyalari singdirilgan kitoblarni o'qish tavsiya etiladi. Ular ko'proq sehrli-fantastik ertaklar, sarguzasht hikoya va qissalar, dostonlarni sevib o'qiydilar. Bunday yoshdagi bolalarga juda katta hajimdagi asarlardan ko'ra, ko'proq qisqaroq hikoya va qissalarni tavsiya etish muhimdir, chunki ba'zi bolalar katta hajimdagi asarlarni o'qishdan zerikib qolishi mumkin.

Maktabgacha ta'limdan boshlab kitobga mehr qo'ygan kichik kitobxon bolalar o'zi mustaqil kitob tanlashni biladilar. Kuzatuvlarga asoslanadigan bo'lsak, ular ko'proq bolalar yozuvchilari Anvar Obidjonning "G'alati maktublar", "Dahshatli meshpolvon", Tursunboy Adashboyevning "Osmon qaydan boshlanar", Po'lat Mo'minning "Bolajon, bolajonim", Safar Barnoyevning "Tinchlikni ulug'laymiz", Quddus Muhammadiyning "Erkinjon oyga chiqibdi", Yusuf Shodmonning "Oydan kelgan bolalar" va shu kabi bolalar shoir va yozuvchilarining asarlari ko'proq o'qiydilar. Ayniqsa ular o'zbek bolalar adabiyotidagi Hamid Olimjonning "Oygu'l va Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiylasi", Sulton Jo'raning "Zangor gilam" va "Qaldirg'och" singari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan adabiy ertakni sevib o'qiydilar.

13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha bo'lgan kitobxon bolalar ko'proq o'zlari mustaqil ravishda kitob tanlaydilar. Bu toifadagi kitobxonlarga yosh jihatdan to'g'ri kitob tanlash juda katta ahamiyatga egadir. Ularga odob-axloq masalalari

---

<sup>1</sup> Mamasoli jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. 2006-y, 3-bet.

ilgari surilgan adabiyotlarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolaning o'smirlik chog'idan to'g'ri tarbiya olishi ham yoshlikdan o'qib o'rgangan kitoblari asosida bo'ladi. Bu borada ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr oqibat kabi g'oyalarni ilgari suruvchi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga olib boruvchi bilim"), Ahmad Yugnakiyning "Habbat ul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Ahmad Yassaviyning hikmatli kitoblari va shu kabi boshqa adabiyotlar. O'rta va katta yoshdagi kitobxon bolalar ko'proq, o'zbek adiblari G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Nazir Safarovning "Ko'rgan kechirganlarim", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehri qalpoqcha", "Sariqdevni minib", "Sariqdevning o'limi", O'rkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi", Said Ahmadning "Ufq", Tohir Malikning "Alvido bolalik", Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" kabi asarlarini sevib o'qiydilar.

"Bolalar kitobxonligi"ning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, undagi asarlar bolalarni olg'a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevishga yordam beradi. Chunki bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shuning uchun bolalar o'zi yoshiga mos bo'lgan kitoblarini o'z dunyoqarashlari asosida tanlab o'qiydilar. Xulosa qilib aytganda, bolalar kitobxonligida bolalar adabiyoti bolalarni ma'rifatga yetaklaydi. Chunki barcha davrlar bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Shuning uchun bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yurtboshimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e'tibori tufayli barcha ta'lim maskanlaridagi o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon", "Kitobxonlar bayrami", turli ko'rik- tanlovlari, dam olish maskanlarida ochilayotgan zamonaviy kitob do'konlari va faoliyat ko'rsatayotgan kutubxonalar yosh avlodni ma'naviy va intellektual ehtiyojini qondirishda, kitobga oshno bo'lishda muhim o'rin tutmoqda. Kitobning mohiyati mangudir... Bu mohiyat - tafakkurni abadiylashtiradi. Bu borada mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha axborotkutubxona markazlarida bolalar kitobxonligining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yosh kitobxonlarga tavsiya qilgan kitoblar orqali kitobxonlar mutolaa uchun zarur adabiyotni tanlashni bilib oladilar, shu bilan birgalikda, ular kitob o'qish orqali mulohazali, bilimli bo'lib, Yuksak tafakkuri bilan boshqalardan o'zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bo'lgan bola yaxshi inson bo'lib ulg'ayadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. "Bolalar kitobxonligi" fanining maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.

2. Bolarning yuksak ma'naviyatli barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlarida kitobning ahamiyati qay darajada? Shu haqida esse yozing.
3. "Bolalar kitobxonligi" fanining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.
4. Qanday adabiyot namunalarini bolalarimiz uchun tavsiya qilasiz va nima uchun? Shu haqida taqdimot tayyorlang.
5. Bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida qanday ishlarni amalga oshirish lozim deb o'ylaysiz? Fikrlaringizni guruhdoshlaringiz bilan o'rtoqlashib, bahs-munozaraga tayyorlaning.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammadaliyeva Nasiba. "Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda axborot-kutubxona markazlarining o'rni"/Umumta'li fanlar metodikasi.-2021 y, 8-son.
2. I.J.Yuldashev, O'.Nosirov. Kutubxona-axborot xizmati: nazariya va amaliyoti-o'quv qo'llanma. T.-2020y, 397 bet.
3. Erkin vohidov.Orzuli dunyo: She'rlar,-T.: "Sharq",2010.- 208 b.
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" , 2008.
5. Bekmatova Dinara."Yoshlar tarbiyasi-kun tartibidagi masala"//Boshlang'ich ta'lim.-2021-y, 9-son. 6. Y. Isayev. Abu Ali Ibn Sino,ilmiy-ommabop risolasi, T.:2010-y. "Tafakkur"- 95 bet.
7. "Buyuk yurt allomalari" risolasi,T.: "O'zbekiston".-2016 y.425 bet.
8. Mamasoli jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. T.: 2006-y, 216 bet.
9. S.Yuldosheva.O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHILIK SOHASINING RIVOJI "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021.
10. Yuldasheva, S. (2021). The Emergence of Libraries as a Hotbed of Spirituality and Enlightenment. International Journal of Culture and Modernity, 10, 43-51.
11. Асқарова, М. (2021). Адабий жараённинг зукко тадқиқотчиси. Oriental Art and Culture, (7), 209-216.

#### **2-MA'RUZA: "O'zbek bolalar kitobxonligi" tarixi**

##### **Reja:**

1. **Bolalar kitobxonligi tarixi. O'zbek bolalar kitobxonligining dastlabki ko'rinishlari.**
2. **."Avesto", "Haftiyak", "Chor kitob", "Qobusnoma", hadislar va pandnomalarda bolalar ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlar.**

**Tayanch soʻz va iboralar:** *milliy uygʻonish, jadid, maʼrifatparvarlik, mohiyat, islohot, pedagog, risola, mundarija, shoir, maʼrifatparvar, milliy ashula, yengil adabiyot, zullisonayn.*

Milliy uygʻonish, millatning oʻzligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qiladi. Millatning oʻzligini anglash asos qilib olingan bu uygʻonish davri bolalar adabiyoti va matbuoti uchun ham poydevor boʻldi.

Oʻzbek bolalar kitobxonligi tarixi haqida fikr yuritilar ekan, uning ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va oʻqish kitoblaridan boshlanganini alohida qayd etish lozim. Bolalar adabiyoti tom maʼnoda maʼrifatparvarlikning farzandidir. Chunki jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi boʻlgan. “Jadidchilik”ning asosida “jadid” soʻzi yotadi. “Jadid”ning maʼnosi “yangi”-“yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng maʼnolarni oʻzida mujassam etgan. Istilohning kirib kelishi Ismoilbek Gasprali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bogʻliq. U 1884 yilda Boqchasaroyda bir maktab ochib, “usuli jadid” nomi bilan ataydi. Istilohning mazmuni maktab doirasida qolmagan, albatta. Aslida jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etib, Uygʻonish mafkurasi boʻlib xizmat qilgan; milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan; maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiysiyosiy maqsadlarga moslab chiqdi. Ismoilbekning Turkistonga kelib, Toshkent, Samarqand, Buxoroda boʻlishi uning tashabbusi bilan bu shaharlarda, soʻngroq Fargʻona vodiysida “usuli jadid” maktablari tashkil topishi butun Turkistonda jadidchilik harakati ommaviylashuviga turtki boʻldi. Tezkorlik bilan uning uchun darsliklar tuzila boshlaydi. Ushbu maktablar uchun yozilgan ilk darsliklar esa oʻz navbatida, bolalar adabiyotiga yoʻl ochdi. Jumladan, 1907-17yillarda Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklari, Abdulla Avloniyning “Adabiyot, yoxud milliy sheʼrlar” majmuasi, “Birinch muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud, axloq” Ayniyning “Tahzib us-sibyon”, Fitratning “Oʻqu”, Sh.Rahimiyning “Sovgʻa”, “Kattalarga oʻqish”, Hamzaning “Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi” kabilar chop etilib, maktablarda oʻqitilgan. Bu kitoblar, xususan, alifbodan soʻng oʻqitiladigan majmualar

“Bolalarning tabiatlariga milliy hasrat va nadomatlardan ibrat oʻlan nasihatlarini oʻrnashdurmak orzusinda” (Avloniy) yaratilgan edi. Demak, aytish mumkinki, ana shu darsliklar birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichkintoylar tasavvuriga yaqin boʻlgan. Jadid adiblari va muallimlari taʼsirida ochilgan yangi usuldagi maktablar bolalarni shunchaki xat tanishga oʻrgatishga emas, ijtimoiy-siyosiy savodini chiqarishda ham muhim rol oʻynagan. 1917 yil fevral voqealari arafasida Turkistonda 92 ta usuli jadid maktabi



borligi qayd etilgan. Binobarin, XX asr boshlarida “usuli savtiya” maktablari paydo bo`lishi bilan bu maktablar o`quvchilariga mo`ljallangan ko`plab alifbo va o`qish kitoblari (majmualar) ham maydonga kelib, ularga tom ma`nodagi o`zbek bolalar adabiyotining tug`ilishi deb qarash (R.Barakayev) to`g`ri e`tirofdir. Chindan-da, maktab adabiyot darsliklari bolalar uchun yaratilgan ilk maxsus kitoblar sanaladi. Uning sahifalarida badiiy adabiyot namunalari darj etilishi bu fikrni asoslay oladi.

Jahon xalqlari bolalar adabiyotlari, jumladan rus va qardosh xalqlar bolalar adabiyotlarining ilg`or tajribalarini o`rganish va ijodiy o`zlashtirish ham o`zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirish va rivojlantirishda samarali omil bo`ldi. Bu jarayon XIX asrning so`nggi choragida maktab-maorifsohasida sodirbo`la boshlagan siyosiy-ijtimoiyva ma`naviy-madaniy o`zgarishlar ta`sirida namoyon bo`la bordi, XX asr boshlarida esa hayotiy mazmun kasb etdi. Bunda milliy uyg`onish davrining ilg`or ziyolilari Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Saidrasul Aziziy (1866-1936) Abdulla Avloniy, ayniqsa, salmoqli natijalarga erishdilar. M. Behbudiyning «Risolai asbobi savod»(1914), «Risolai jo`g`rofiyai umroniy» (1905), Risolai jo`g`rofiyai Rusiy» (1905), Kitobat-ul atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909), Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi soniy», «Tavji-al qur`on», «Yer yuzi» singari alifbo xrestomatiya va o`quv qo`llanmalari dunyoga keldi. Ayniqsa, S.M.Graminiskiyning (1859-1919) qo`llab-quvatlashi va uning tomonidan tuzilgan «Birinchi o`qish kitobi», «Ikkinchi o`qish kitobi»(1898), «Uchinchi o`qish kitobi»(1898) darsliklari ta`sirida bitilgan Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval» (1902) otlig` birinchi o`zbek alifbosi, Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» (1908) va «Ikkinchi muallim» (1912), shuningdek, to`rt juzdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she`rlar» singari darslik va qo`llanmalari katta e`tibor qozondilar, ularda keltirilgan she`r va nasriy lavhalar bolalarbopligi bilan ajralib turishidan tashqari, aksariyati I.A. Krilov, A.S.Pushkin, L.N. Tolstoy va K.D. Ushinskiylarning bolalarga atalgan masallari, she`riy ertaklari va hikoyalari tarjimasidan iborat edi. Zotan, XX asr boshlaridagi o`zbek ma`rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandasi, Toshkentdagi yangi usul – “usuli savtiya” maktablarining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy o`zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham samarali hissa qo`shgan shoirdir.

XX asr faqat o'zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg'ov-dalg'ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo'ldi. Bu asrga kelib, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiy hodisalarning almashinish surati aqlga sig'mas darajada tezlashdi. Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hayoti shu asr boshida ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot

almashishning tezlashgani turkistonliklarning hayot tarzlarini o'zgartirib yubordi. Shu vaqtga qadar milliy adabiyotimiz milliy hayotimiz bilan yelkama-yelka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hayotdan tamomila ajralib qolmagan bo'lsada, ijtimoiy turmushning muammolari imi to'la chulg'ab olmasdi. XX asrga kelib, adabiyot hayotga yaqinlashdi, Bu bilan kifoyalanib qolmay, hayotni o'zgartirishga urina boshladi. Rossiya bosqini, Uning zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqlarining usiz ham og'ir bo'lgan hayotini yanada qiyinlashtirdi. Ijtimoiy adolatsizlik, huquqiy tengsizlik tufayli kechayu-kunduz tinim bilmay ishlagan yurt egalari tobora qashshoqlashib, ularni talash va aldash bilan shug'ullangan bosqinchilar boyib bormoqda edi. Qashshoqlik tufayli esa turkistonliklarda g'urursizlik, johillik, tobelik, loqaydlik singari illatlar shakllanmoqda ediki, bu hol o'z millatining o'tmishidan xabardor va kelajagidan umidi bor ijodkor ziyolilarni bezovta qilmasligi mumkin emasdi. XIX asrning adog'i XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyodagi juda ko'p mustamlakalarda milliy uyg'onish harakati boshlangan edi. Ijtimoiy adolatsizlikni yo'qotmoqchi, nohaq tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'lgan fikr kishilari millatning nochor holati va og'ir turmush tarzini o'zgartirish uchun dastlab xalqqa bilim berish kerak, deb hisobladilar. Millatni g'aflatdan uyg'otmay, xalqning ruhida taraqqiyotga mayl paydo qilmay turib, hech narsaga erishib bo'lmasligi tushunib yetildi. Millatga ma'rifat berish sifat jihatidan ham, sur'at jihatidan ham tamomila boshqacha tashkil etilishi lozimligi ayon bo'ldi.

Faqat ruhga ta'sir etadigan, axloqni takomillashtiradigan bilimlar bilan kifoyalanib bo'lmasligi, fan-texnika asoslarini puxta o'rganish zarurligi anglab yetildi. Buning uchun yangi o'qitish usullari joriy etilishi kerak edi. Shu tariqa, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran shakllana boshlagan ma'rifatchilikqarashlari XX asr boshlariga kelib jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. *Jadid*» so'zi arabcha *,yangi*» ma'nosini berib, taraqqiyotga intilgan kishini anglatadi. Ma'rifatchilar adabiyotni jaholatga qarshi kurash vositasiga aylantirganlaridek, jadidlar ham badiiy adabiyotni xalqni g'aflat va mustamlaka zulmidan qutqarish quroliga aylantirdilar. Shuni aytish kerakki, ma'rifatchilik bilan jadidchilik faqat yuzaga kelgan vaqt nuqtayi nazaridangina emas, balki o'z oldiga qo'ygan maqsadlari jihatidan ham turli hodisalar edi. Chunonchi, ma'rifatchilar mavjud holatni o'zgartirishni emas, balki uni isloh qilishni, xalqning ma'rifiy saviyasini ko'tarishni maqsad qilgan edilar. Jadidlar uchun ommani ma'rifatli qilish bosh maqsad yo'lidagi bir bosqich edi, xolos. Maqsad esa vatanni obod, millatni ozod qilish va Turkistonning avvalgi shuhratini tiklashdan iborat edi. Ishni XIX asrning 90- yillarida yangi usul maktablari tashkil qilishdan boshlagan jadidlar ko'p o'tmay, Turkistonda hur, demokratik mustaqil davlat tuzishni rejalashtirdilar. 1917- yilda Turkiston muxtoriyatining bunyod

etilishi shu rejaning amalga oshirilishi yo'lidagi jiddiy urinish edi. XX asr boshiga kelib, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi, xalqaro aloqalarning takomillashuvi millatning ma'rifatli vakillariga o'z xalqi hayotini dunyodagi mutaraqiy xalqlar turmushi bilan solishtirish imkonini berdi. Rossiyada 1905- yil oktabrdagi so'z va matbuot erkinligi haqidagi Manifestning qabul etilishi natijasida o'zbek matbuotining rivojlanishiga ham bir qadar imkon yaratildi. Agar o'zbek tilidagi birinchi va yolg'iz gazeta 1870- yildan chop etilayotgan «Turkiston viloyatining gazetisi» bo'lsa, 1905-yildan so'ng vaqtli matbuot soni ancha ko'paydi. 1905-1917- yillar orasida o'lkada 22 gazeta, 8 jurnal o'zbek tilida chiqarilgan. Bu hol millat ahlining tafakkur tarziga jiddiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Kundalik matbuot o'zbek adabiyotidagi yangilanishlar ko'lamining kengayishiga sabab bo'ldi. Kitobning sanoat yo'li bilan chop etilishi ham millat ijtimoiy-estetik tafakkuri rivojlanishining kuchli omili bo'ldi. Jadid adabiyoti to'lig'icha miliatni uyg'otishga qaratilgan edi. Bu adabiyotning qahramoni avvalgi davrdagiday yuqori tabaqa vakillari yoki ilohiy qudrat bilan nurlantirilgan siymolar emas, balki ommaning ichidan chiqqan, unga qaytib boradigan va shu bois xalqqa ta'sir ko'rsatish imkoniyati kattaroq bo'lgan oddiy kishilar edi. Jadid adiblari yangi mavzularni yangi janrlarda va yangi obrazlar orqali ifodalashga urindilar. Yana bir muhim jihat shundaki, jadid yozuvchilari shunchaki ijodkor emas, balki jamoatchi ham edilar. Ular faqat qalami bilan emas, balki ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy amali bilan ham miliatni uyg'otishga jahd qilgandilar. Agar ma'rifatchilar ko'p asrlik milliy adabiyotga yangi mavzular olib kirgan bo'lsa, jadidlar o'zbek adabiyotiga drama, roman, hikoya singari yangi janrlarni kiritdilar. M. Behbudiyning «Padarkush»<sup>1</sup> A. Avloniyning «Advokatlik osonmi», «Pinak», «Bizvasiz», «Ikkisevgi», «Fitratning», «Munozara», «Hind sayyohi», «Oila», Yurt qayg'usi», «Abulfayzxon», «Shaytonning tangriga isyoni», «Qiyomat», Hamzaning «Uyon, Vatan!», «Yig'la, Turkiston», «Dardiga darmon istamas», «Turkiston», «Shundoq qolurmu», «Yangi saodat», «Zaharli hayot», «Boy ila xizmatchi», «Maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha», «Istibdod qurbonlari», «Loshmon fojiasi», «Farg'ona fojiasi», Qodiriyning «Uloqda», «Tinchish», «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi», «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho'lponning «Buzilgan o'lkaga», «Xalq», «Ko'ngil», «Binafsha», «Go'zal Farg'ona», «Go'zal», «Vahm», «Istash», «Galdir», «Bahorni sog'indim», «Sirlardan», «Yorqinoy», «Kecha va kunduz» singari va boshqa yuzlab asarlar jadid adabiyotining yetuk namunalari hisoblanadi. Jadid adiblarining asarlarida insoniy taqdir, qismat fojialari millat ozodligi, inson erki, Vatan buyukligi muammolari fonida aks ettirildi. Jadid adabiyotida tarixiy adolat, siyosiy tenglik, shaxs va millat erki, xalqni g'aflatdan uyg'otish singari o'tkir ijtimoiy muammolar juda ko'p tasvirlandi. Jadidlarning vatan, millat, ozodlik

yo'lida jon fido etishga chorlab bitilgan olovli asarlari samimiy, ammo yuksak darajada ijtimoiylashgan shaxslarning nidolari edi. Bunday asarlarda millatning ulkan dardi ma'rifatli insonning shaxsiy fojiasi bilan birgalikda ifoda etilardi. Tuyg'ular samimiyati, iztirob ko'lamining kengligi ruhiy dardlar teranligini oshirib, umumning dardi alohida shaxsningg'ami, iztirobi darajasiga ko'tarilardi. Odatda, ko'pchilikning iztiroblari alohida shaxslarning dardlaridan baland turadi deb hisoblaniladi. Holbuki, dard xususiylashsagina umuminsoniy miqyos kasb etadi. Jadid adabiyoti faqat mavzu jihatidan emas, balki ifodasiga ko'ra ham ommaga yaqinlashtirildi. Badiiy asarlarda tasvir injaligi, ifodaning yangiligidan ko'ra, zalvorli va keskin fikr aytishga e'tibor kuchaydi. She'riyat aruzga xos ohangdorlikdan chekinib, barmoqqa xos ochiqlikka erishdi. Kuylanishdan da'vatga aylandi. Aytish kerakki, sho'rolardavrida o'zbek adabiyotining mohiyati tubdan o'zgardi. Lekin bu birdaniga sodir bo'lmadi. 1917-yilgi oktabr to'ntarishidan keying! dastlabki davrlarda ham so'z va ijod erkinligi bir qadar saqlandi. Sho'rolar yetarlicha siyosiy va tashkiliy kiichga ega bo'lmagani, uning g'oyalarini kuylaydigan adiblar qatori hali shakllanmagani uchun badiiy adabiyotda nisbatan erkinlik bor edi. Eng iste'dodli ijodkorlar, tabiiy ravishda, millat va vatan ozodligi uchun kurashayotgan jadid yozuvchilari safida ei. Shuning uchun ham Fitratning

«Abulfayzxon» dramasi, «Shaytonning tangriga isyoni», «Qiyomat» hikoyalari, Hamzaning

«Boy ila xizmatchi», «Maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha» dramalari, Qodiriyning «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi», «O'tkan kunlar»,

«Mehrobdan chayon», Cho'lponning «Buzilgan o'lkaga», «Xalq», «Ko'ngil», «Binafsha», «Go'zal», «Qalandar ishqi», «Galdir», «Sirlardan» she'rlari, «Yorqinoy» dramasi, «Kecha va knnduz» romani singari asarlar sho'rolar davrida yaratilgan bo'lsada, mohiyatan jadid adabiyoti namunalari. Chunki ular e'tiqodi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra jadid bo'lgan, hayotni jadidchasiga badiiy idrok etadigan odamlar tomonidan yaratilgan edi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. "O'zbek bolalar kitobxonligi tarixi" haqida taqdimot tayyorlang.
2. O'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham samarali hissa qo'shgan mutafakkirlar haqida esse namunasini tayyorlang.
3. Bolalar uchun bag'ishlab yozilgan qanday sara asar namunalari bilasiz?

### **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar:**

1. Safo Matjon. "Kitob o'qishni bilasizmi?". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1993. 31-bet.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O'qituvchi 2011. 69-bet.

3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdona,2019.- 64bet.

#### **Elektron ta'lim resurslari:**

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz  
www. edu. Uz

### **3-MA'RUZA: BOLALAR KITOBXONLIGI VA UNING KO'RINISHLARI**

#### **Reja:**

1. O'zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni.
2. Kitobxonlik madaniyati tushunchasi.
3. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga oid kitoblarning xususiyatlari.
4. Kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan asarlarga oid xususiyatlar.
5. O'smirlarga oid badiiy asarlarga qo'yilgan talablar.

*Tayanch so'z va iboralar:* Kitob, kitobxon, mutolaa, noshirlik, maktabgacha ta'lim, kichik yoshdagi kitobxon, maktab yoshdagi kitobxon, o'rta yosh kitobxon, bolalar adabiyoti.

O'zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni XX asrning 20-30 yillarida, ayniqsa, jiddiy tus oldi, tezlashdi va keng qamrov kasb eta bordi. Asosan, she'riyat va hali hikoyachilik doirasida qolib kelayotgan bolalar adabiyoti bu davrga kelib, xalq ijodiyotiga keng va chuqur murojaat qilishga kirishib, o'z janriy imkoniyatlarini adabiy ertakning she'riy ertak, nasriy ertak, ertak qissa, dramatik ertak singari xilma-xil oraliq shakllari bilan boyitish va to'ldirishga muvaffaq bo'la boshladi. Aslida XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning 10yillarida fors-tojik shoiri Ubayd Zokoniyning "Mushuk ila sichqon" qissasi(Xislat tarjimasi), rus adabiyoti namoyondalari I.A.Krillov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy masallari, ertaklari va hikoyalarining o'zbek tiliga o'girila boshlanganligi, shuningdek, Said Rasul Aziziy va Abdulla Avloniylarning voqeaband she'rlari, masallari hamda Hamzaning xalq rivoyati asosida yozilgan "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" she'riy ertagi, qolaversa, Abdulla Qodiriyning 20-yillarda xalq ertagi ruhida yozilgan "Jinlar bazmi" va Abdurauf Fitratning "Qiyomat" nasriy adabiy ertaklaridan o'z sarchashmasini olgan folklor syujetlari negizida bolalarbop asarlar yozish va shu asosda realistik o'zbek bolalar adabiyotini shakllantirish va rivojlantirish harakati 30-yillar arafasi va davomida chinakkam yangi bosqichga ko'tarildi. Buning bir qancha sabablari va omillari bor

edi. Birinchidan, xuddi shu yillarda o`zbek folklorshunosligi ancha jonlangan edi, xalq qo`shiqlari va dostonlari qatorida ertaklarni yozib olish va nashr etishda samarali natijalarga erishila boshlandi. Bu ishda Elbek, G`ulom Zafariy va Shukur Sa`dulla singari bolalar adiblari ancha faollik ko`rsatdilar. Ayniqsa, Elbek bolalar folklorini to`plash yo`lida qizg`in izlandi, 1937 yilda o`zi to`plagan asarlar asosida tartib bergan "Bolalar qo`shig`i" to`plamini nashr ettirdi.

Ikkinchidan, 30-yillarning boshlarida "Bolalarga ertak kerakmi? Sehrli-fantastik ertaklar ular tarbiyasiga zararli emasmi?",- degan mavzularda boshlangan qizg`in bahs xalq ertaklariga munosabatni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Natijada, xalq ertaklari syujetlarini turli shakllarda ijodiy interpretatsiya qilish va shu asosda bolalarni xalq fantaziyasi olamiga olib kirish bir muncha jonlandi. Bu hol bolalar epik poeziyasining yuksalishi va dramaturgiyasining oyoqqa turishiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Sirasini aytganda, bolalarga atalgan badiiy adabiyot yaratish an`anasinng dastlab, adabiy ertak shaklida Daniel Defo, Jonatan Svift, Jan de Lafonten, Sharl Perro, Erix Rapse, aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar, Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Karlo Kollodi, V.Jukovskiy, P.Yershov va boshqalar ijodiyotida keng miqyosda namoyon bo`lganligi va o`zbek bolalar adabiyoti vakillarining ular tajribalarini ijodiy o`zlashtira boshlashlari jarayon qiyofasini belgilay berdi. Natijada, folklor va yozma bolalar adabiyoti munosabatlari ikki tomonlama chuqurlashishga kirishdi:

Bolalar uchun ijod etish an`anasi hali yozuv bo`lmagan qadimgi zamonlardayoq onalar allalari, erkalamalari, ovutmachoqlari, shuningdek, xalq ertaklari, topishmoqlari, taqvim va maishiy qo`shiqlari, butun bir tizim tarzida namoyon bo`luvchi o`yinlari shakllarida folklor bag`rida yuzaga kelgan edi. Binobarin, bolalar uchun ijod etish xalq pedagogikasi va etnografiyasi aqidalariga to`yintirilgan qadimiy an`ana bo`lib, uning ijodiy andazasi bolalarga mo`ljallangan ixtisoslashgan badiiy yozma adabiyotning vujudga kelishini ta`minlagan omil bo`ldi. Bu folklor va yozma adabiyot orasidagi genetik (bevosita) aloqa natijasi edi.

Folklor va yozma adabiyot orasidagi bilvosita aloqa esa bolalar adabiyotida folklorizmlarning xilma-xil ko`rinishlarini yuzaga keltirdi va bolalar adabiyotining xalqchillashuvini, g`oyaviybadiiy barkamollashuvini, qiziqarliligi va tabiiy soddaligini ta`minladi. Shu tariqa, o`zbek bolalar adabiyoti ham folklorga tayangan holda shakllana va rivojlana bordi.

Shuni ta`kidlash joizki, o`zbek bolalar adiblari xalq ijodiyoti namunalarini to`plash, nashr etish va bolalarga moslashtirish, folklordagi janriy rang-baranglik va ifodaviy vositalardan ijodiy foydalanishda, asosan, tubandagi ikki yo`nalishda amal qildilar:

Birinchi yo`nalish-folklor namunalari (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolarni) bolalar yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib qayta ishlash yoki tabdil (interpretatsiya) qilish. Bu ijodiy jarayonning bosh sharti-asarning xalqchil ruhiga putur yetkazmagan holda g`oyaviy-badiiy barkamolligini ta`minlash va shu asosda axloqiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi. Jumladan, xalq ertaklarini bolalarga moslashtirib qayta aytish an`anasi jahon xalqlari, xususan, rus bolalar adabiyotida anchagina tajribaga ega. Shukur Sa`dulla ana shu ilg`or tajribani o`rganish asosida nafaqat o`zbek, balki, boshqa xalqlar ertaklarini ham bolalarga moslashtirib tabdil qilishda ma`lum natijalarga erishdi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning 30-50-yillardagi izlanishlari samarali bo`ldi. Bu davrda u ellikdan ortiq xalq ertagini bolalarga moslashtirib, qayta ishladi va kichkintoylarga tortiq etdi. Bular "Ikki sandiq" (1945,1948), "Yoriltosh", "Uch tulki" (1947), "Qarg`aboy" (1948), "Tulki bilan turna" (1951),

"Maqtanchoq quyon" (1953), "Ayyor tulki" (1955), "Ohanrabo" (1959) singari rasmiy kitobchalar tarzida nashrdan chiqdi.

Shukur Sa`dulla xalq ertaklarini kompozitsion soddaligiga, xalqchilligiga, g`oyaviy yo`nalishiga putur yetkazmay, zamon talablari doirasida axloqiy-tarbiyaviy qimmatga molik bo`lishiga diqqat qildi. Natijada ertaklar turli yoshdagi kichkintoylar uchun "hayot darsligi" vazifasini o`tay boshladi. Bu jihatdan adibning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun hayvonlar haqidagi ertaklarni qayta ishlashdagi xizmatlari e`tiborga arzigulikdir. Zero, u bu yoshdagi bolalarning diqqati beqarorroq bo`lishi, uzoq muddat davomida tinglash ularni tez charchatishini hisobga olib, hajmi katta ertaklarning ba`zilarini birmuncha qisqartirdi, ba`zilarini esa bir necha mustaqil ertakchalarga bo`lgan holda kichkintoylarga taqdim etdi.

"Bo`ri bilan tulki" ertagi, jumladan, xarakterlidir. Xalqimizda mashhur bu qadimiy ertak hajm jihatidan anchagina katta. Unda bo`rining yovuzligi va go`lligi, tulkining ayyorligi va olg`irligi zamirida o`tmishda zo`ravonlarning zolimligi fosh qilinsa, qo`zichoq, xo`roz, ot va qo`shchi chol obrazlari misolida mehnatkash xalqning ma`naviy go`zalligi va pokligi, aqlliligi va tadbirkorligi, samimiyligi va qasoskorligi realistik tarzda ifodalanadi. Ertak xotimasida Bo`rining o`lishi - zolimlik dunyosining chirishi, qulashiga timsol bo`lib, xalq optimizmining hayotbaxsh qudratini yorqin ko`rsatadi.

Sh.Sa`dulla bog`cha yoshidagi bolalarning katta hajmli bunday ertaklarni idrok qila olmasliklarni payqab, uning negizida bir-biridan mustaqil bo`lgan ikkita ertak yaratadi.

Ertakchalarning birinchisi " Och bo`ri" deb nomlangan.

U bo`rining qo`zichoq, cho`pon va qirchang`i bilan munosabatlari epizodlarini o`z ichiga oladi. Ertak go`lligi tufayli otdan qattiq tepki yegan bo`rining o`limi bilan xotimalanadi. Bunday yakun ertakning kompozitsion

yaxlitligini ta`minlagan. Qizig`i shundaki, Sh. Sa`dulla keyinchalik xuddi shu ertak asosida, aynan shu epizodlarni o`z ichiga olgan "Och bo`ri, sho`x qo`zi va qirchang`i" she`riy ertagini ham yaratdi.

"Chol bilan bo`ri" - ertaklarning ikkinchisidir. Bu asarga endi soddadillikda xalq ertagidagi qo`shchidan qolishmaydigan qop ko`targan chol va bo`ri munosabatlari epizodi asos qilib olingan. Chol o`z rahmdilligi va soddaligi tufayli bo`rining "qopqoniga" tushadi. Ertakni tinglayotgan kichkintoy cholga achinadi, unga rahmi keladi. Bu esa unda insonga muhabbat tuyg`usini tarbiyalaydi. Ammo ayyor tulkinining tadbirkorligi bilan bo`ri tajovuzidan qutulgan cholni ko`rib - quvonadi kichkintoy. Bu ertak ham bo`rining o`limi bilan tugallanib, xalq optimizmining barhayot qudratini kichkintoylar qalbiga ko`chiruvchi, kompozitsiyasiga ko`ra mustaqil asardir. Adib xuddi shu ertak asosida keyinchalik kichkintoylar uchun "Chol bilan bo`ri" nomli kichik she`riy pesa ham yozgan.

"Sholg`om", "Bo`g`irsoq", "Bo`ri va echki bolalari" kabi qaytariqlar negizida qurilgan "Qarg`a va qo`zi" ertagi ham Sh. Sa`dulla qalami ostida uch marta sayqal topdi.

Ikkinchi yo`nalish-folklor syujetlari asosida she`riy, nasriy va dramatik asarlar ijod etish yoki stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. Bu yo`nalish barcha xalqlar bolalar adabiyotlari ravnaqida yetakchi omillardan hisoblanadi.

Folklor janrlarining kompozitsion qulayliklari -ommaviyligi bolalarga atab yoziladigan asarlar uchun g`oyat muvofiqdir. Bolalar adiblari bu haqiqatni chuqurroq anglay borganlari sari ko`proq ijodiy kamolotga erishayotirlar. Ular xalq syujetlariga monand syujetlar o`ylab topa boshladilar. Bunday to`qima adabiy syujetlar ko`pincha hayot voqeligini doim kuzatish va undan oziqlanishning, shuningdek, biror maqol va matalning mazmunini voqeaband tafsilot vositasida kichkintoylarga yetkazish niyatining natijasi bo`lib tug`iladi. Bu esa ularning xalq syujetlari negizida yozilgan asarlardan farq qiluvchi xoslik belgisi sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni janr e`tiborlariga ko`ra adabiy ertaklar, doston-ertaklar, adabiy masallar, adabiy latifalar deb atash to`g`riroqdir. Bu jihatdan, ayniqsa, adabiy ertaklarning bolalar poeziyasini taraqqiy ettirishdagi roli katta bo`ldi. Kichkintoylarni voqeligimiz ruhiga olib kirishda, ularga hayotdan saboq olishni va odam tanishni o`rgatishda S.Jo`raning- "Qaldirg`och", Z.Diyorning "Yuksak tog`, keng o`tloq va mard o`rtoq haqida qissa", Q.Muhammadiyning "Qo`ng`izoy va sichqonboy", "Sandal va pechka", "Chivin urishqoq va shamol polvon haqida", "Dono bobo va uning 101 nevara-chevaralari", Sh. Sa`dullaning "Bir tuxum tarixi", "Bir yallachi va bir o`yinchi", "Yalqov ayiq", "Revoch haqida ballada", "Qurumsoq", Po`lat Mo`minning "Kecha, bugun va erta haqida ertak", "Tish cho`tki, paroshok va atirsovun ertagi", "Gaz polvon ertagi", "Cho`lning cho`lga xati", Safar Barnoevning "Oltin shahar haqida afsona", "Vijdon", "Qo`g`irchoqlar



podshosi", Tunsunboy Adashboevning "Nur daryo", "Uch bo`taloq va sirli qovoq", Miraziz A`zamning "Chumoliy bilan arioyning sayohati", "Erk qushi", Anvar Obidjonning "Odil Burgutshoh" va "Zamburug` laqabli josus haqida ertak", Tohir Qahorning "Ko`zga ko`rinmas maxluq", Hamza Imomberdievning "Ajdaho komida", Muhammadjon Rahmonning "Momoqaymoq", Nurali Qobulning "Odam, oyqortog` va daydi shamol haqida ertak" kabi ko`pgina adabiy she`riy ertaklarning axloqiy-estetik qimmatini kattadir. Bu asarlar o`zbek bolalar epik poeziyasining xalqchil zamonaviy namunalarini hisoblanadi.

Shuni ta`kidlash joizki, XX asrning 60-80-yillarida bolalar adabiyoti vakillarining folkloriga ijodiy munosabati yanada chuqurlasha bordi. Bu davrda ular folklorning qator janrlariga xos shakl va ifoda usullarini ijodiy o`zlashtirishga alohida rag`bat ko`rsata boshladilar, natijada, bolalar epik poeziyasida she`riy adabiy ertakning qator ichki ko`rinishlari bilan birga adabiy topishmoq, adabiy tez aytish, adabiy latifa, prozada esa adabiy nasriy ertak, ertak-qissa singari oraliq shakllar yuzaga keldi. Nasriy adabiy ertak janrida T.G`oyibov, P.Muhammadyorova, A.Abdurazzoq, M.Murodov, A.Irisov, Y.Shukurov, Y.Sa`dullaeva, S.G`afurov, R.Farhodiy va R.Tolibovlar izlangan bo`lsalar, A.Obidjon "Dahshatli Meshpolvon" (1989) ertak-qissasini yaratib, janrning yangi voqelik asosidagi jilosini ta`minladi. Bugina emas, u "Pahlavonning o`g`irlanishi", "Qo`ng`iroqli aldoqchi", "Qorinbotir" singari ertak-pesalari bilan folklor syujetlari tipidagi zamonaviy bolalar dramaturgiyasini boyitishga hissa qo`shdi. Bu jihatdan u Po`lat Mo`minning "Qovoqvoy bilan Chanoqboy", "So`qatoy va Konfetboy", "Ona bolam deydi, bola onam deydi", G`ani Jahongirovning "Ajoyib urug`", O.Tolibov va I.Ahmedovlarning "G`ayrat va g`aflat", Ergash Raimovning "Qorboboning yangi yil sarguzashtlari" va Rahim Farhodiyning "O`tkir shoxli buqacha" singari ertak-pessalarida ko`ringan salbiy xarakterdagi stilizatsiyalash usulini yanada chuqurlashtirdi va bu an`ananing hayotiyiligini ta`minladi. Bu ertak-pesalarda nafaqat syujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar yetakchi taomilga aylangan. O`zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni XX asrning 20-30 yillarida, ayniqsa, jiddiy tus oldi, tezlashdi va keng qamrov kasb eta bordi. Asosan, she`riyat va hali hikoyachilik doirasida qolib kelayotgan bolalar adabiyoti bu davrga kelib, xalq ijodiyotiga keng va chuqur murojaat qilishga kirishib, o`z janriy imkoniyatlarini adabiy ertakning she`riy ertak, nasriy ertak, ertak qissa, dramatik ertak singari xilma-xil oraliq shakllari bilan boyitish va to`ldirishga muvaffaq bo`la boshladi. Aslida XIX asrning so`nggi choragi va XX asrning 10-yillarida fors-tojik shoiri Ubayd Zokoniyning "Mushuk ila sichqon" qissasi(Xislat tarjimasini), rus adabiyoti namoyondalari I.A.Krillov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy masallari, ertaklari va hikoyalarining o`zbek tiliga

o`girila boshlanganligi, shuningdek, Said Rasul Aziziy va Abdulla Avloniylarning voqeaband she`rlari, masallari hamda Hamzaning xalq rivoyati asosida yozilgan "Bolaning yomon bo`lmog`iga sabab bo`lgan onaning jazosi" she`riy ertagi, qolaversa, Abdulla Qodiriyning 20-yillarda xalq ertagi ruhida yozilgan "Jinlar bazmi" va Abdurauf Fitratning "Qiyomat" nasriy adabiy ertaklaridan o`z sarchashmasini olgan folklor syujetlari negizida bolalarbop asarlar yozish va shu asosda realistlik o`zbek bolalar adabiyotini shakllantirish va rivojlantirish harakati 30-yillar arafasi va davomida chinakkam yangi bosqichga ko`tarildi. Buning bir qancha sabablari va omillari bor edi. Birinchidan, xuddi shu yillarda o`zbek folklorshunosligi ancha jonlangan edi, xalq qo`shiqlari va dostonlari qatorida ertaklarni yozib olish va nashr etishda samarali natijalarga erishila boshlandi. Bu ishda Elbek, G`ulom Zafariy va Shukur Sa`dulla singari bolalar adiblari ancha faollik ko`rsatdilar. Ayniqsa, Elbek bolalar folklorini to`plash yo`lida qizg`in izlandi, 1937 yilda o`zi to`plagan asarlar asosida tartib bergan "Bolalar qo`shig`i" to`plamini nashr ettirdi.

Ikkinchidan, 30-yillarning boshlarida "Bolalarga ertak kerakmi? Sehrli-fantastik ertaklar ular tarbiyasiga zararli emasmi?",- degan mavzularda boshlangan qizg`in bahs xalq ertaklariga munosabatni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Natijada, xalq ertaklari syujetlarini turli shakllarda ijodiy interpretatsiya qilish va shu asosda bolalarni xalq fantaziyasi olamiga olib kirish bir muncha jonlandi. Bu hol bolalar epik poeziyasining yuksalishi va dramaturgiyasining oyoqqa turishiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Sirasini aytganda, bolalarga atalgan badiiy adabiyot yaratish an`anasining dastlab, adabiy ertak shaklida Daniel Defo, Jonatan Svift, Jan de Lafonten, Sharl Perro, Erix Rapse, aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar, Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Karlo Kollodi, V.Jukovskiy, P.Yershov va boshqalar ijodiyotida keng miqyosda namoyon bo`lganligi va o`zbek bolalar adabiyoti vakillarining ular tajribalarini ijodiy o`zlashtira boshlashlari jarayon qiyofasini belgilay berdi. Natijada, folklor va yozma bolalar adabiyoti munosabatlari ikki tomonlama chuqurlashtirishga kirishdi:

Bolalar uchun ijod etish an`anasi hali yozuv bo`lmagan qadimgi zamonlardayoq onalar allalari, erkalamalari, ovutmacholari, shuningdek, xalq ertaklari, topishmoqlari, taqvim va maishiy qo`shiqlari, butun bir tizim tarzida namoyon bo`luvchi o`yinlari shakllarida folklor bag`rida yuzaga kelgan edi. Binobarin, bolalar uchun ijod etish xalq pedagogikasi va etnografiyasi aqidalariga to`yintirilgan qadimiy an`ana bo`lib, uning ijodiy andazasi bolalarga mo`ljallangan ixtisoslashgan badiiy yozma adabiyotning vujudga kelishini ta`minlagan omil bo`ldi. Bu folklor va yozma adabiyot orasidagi genetik (bevosita) aloqa natijasi edi.

Folklor va yozma adabiyot orasidagi bilvosita aloqa esa bolalar adabiyotida folklorizmlarning xilma-xil ko`rinishlarini yuzaga keltirdi va bolalar adabiyotining xalqchillashuvini, g`oyaviybadiiy barkamollashuvini, qiziqarliligi va tabiiy soddaligini ta`minladi. Shu tariqa, o`zbek bolalar adabiyoti ham folklorga tayangan holda shakllana va rivojlana bordi.

Shuni ta`kidlash joizki, o`zbek bolalar adiblari xalq ijodiyoti namunalarini to`plash, nashr etish va bolalarga moslashtirish, folklordagi janriy rang-baranglik va ifodaviy vositalardan ijodiy foydalanishda, asosan, tubandagi ikki yo`nalishda amal qildilar:

Birinchi yo`nalish-folklor namunalari (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolarni) bolalar yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib qayta ishlash yoki tabdil (interpretatsiya) qilish. Bu ijodiy jarayonning bosh sharti-asarning xalqchil ruhiga putur yetkazmagan holda g`oyaviy-badiiy barkamolligini ta`minlash va shu asosda axloqiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi. Jumladan, xalq ertaklarini bolalarga moslashtirib qayta aytish an`anasi jahon xalqlari, xususan, rus bolalar adabiyotida anchagina tajribaga ega. Shukur Sa`dulla ana shu ilg`or tajribani o`rganish asosida nafaqat o`zbek, balki, boshqa xalqlar ertaklarini ham bolalarga moslashtirib tabdil qilishda ma`lum natijalarga erishdi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning 30-50-yillardagi izlanishlari samarali bo`ldi. Bu davrda u ellikdan ortiq xalq ertagini bolalarga moslashtirib, qayta ishladi va kichkintoylarga tortiq etdi. Bular "Ikki sandiq" (1945,1948), "Yoriltosh", "Uch tulki" (1947), "Qarg`aboy" (1948), "Tulki bilan turna" (1951), "Maqtanchoq quyon" (1953), "Ayyor tulki" (1955), "Ohanrabo" (1959) singari rasmiy kitobchalar tarzida nashrdan chiqdi.

H.Olimjon umr bo`yi xalq ertaklarini tinglashdan tolmadi. Bu haqdagi iqrorlarini "Ona" she`rida "Faqat sevadi-yu ertak aytadi" deya ifodalasa, "O`zbekiston" shehrida "Ertaklarsa quloq tutardim" tarzida e`tirof etgan, nihoyat "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni debochasida tinglagan ertaklari va ulardan olgan taassurotlarini yaxlitroq umumlashtiradi: "Uyqusiz tunlarim"da "ko`p ertak eshitgandim" deya "o`sha damlar"ning sururini qayta tuyadi. Eshitganlari esa "O`zi uchar gilamlar, "Tohir-Zuhra", "Yoriltosh", Oyni uyaltirgan qosh, O`t bog`lagan qanotlar, Beqanot uchgan otlar, Baxtiyor bilan Oygul, Suylaguvchi devorlar, Bola bo`p qolgan chollar". "Ana shu ertaklar uning fikrini tortgan", "Havasini ortirgan", pirovardoqibatda, uning san`atkor bo`lib shakllanishida ta`sir ko`rsatgan va nihoyat uning o`zida ham "To tonggacha so`ylasam ertak" ("Savol") degan ijodiy niyatni uyg`otgan edi. Bu niyat 30yillarning ikkinchi yarmiga kelib shoirga tinchlik bermay qo`ydi, natijada uning o`zbek bolalar dostonchiligi taraqqiyotiga jiddiy ta`sir ko`rsatgan va o`zbek bolalar epik poeziyasida yangi bosqichni boshlab bergan "Oygul bilan Baxtiyor" (1937) hamda "Simurg` yoki Parizod va Bunyod"

(1939) ertak-dostonlari birin-ketin dunyoga keldi. Bu asarlar o`zbek bolalar epik poeziyasida yangi oraliq janr—ertak-doston shaklining qaror topishidan tashqari, folklordan ijodiy o`rganish va o`zlashtirishning ham yorqin namunalari bo`ldi. Natijada, o`zbek bolalar epik poeziyasida shakliy izlanishlar tobora chuqurlasha bordi va bolalar dostonchiligi bag`rida maqolertak, masal-ertak, naql-ertak, ertak-doston, rivoyat-ertak va she`riy latifa singari xilma-xil oraliq janrlarda asarlar yaratish an`anaviy tus ola bordi.

Aslini olganda, Hamid Olimjon bu ertak-dostonlarini bolalarni ko`zlab yozmagandi. A.S.Pushkin ham o`z ertaklarini yozganida shunday yo`l tutgani ma`lum. H.Olimjon Pushkinning ertaklari ustidagi ijodiy izlanishlariga xos tajribalariga suyanib, adabiyotning mehnat ahli turmushiga kengroq va chuqurroq singishini, butun ommaning kitobxon bo`lishini nazarda tutib shu ommabop janrga qo`l urgan edi. Binobarin, ertak-dostonlar yozilgan tarixiy sharoitga nazar solinsa, shoir izlanishlarining ijtimoiy-estetik mohiyati yanada ravshanlashadi. Holbuki, 30yillarda ijtimoiy-madaniy hayotda savodsizlikni tugatish, barchani yoppasiga savodxon qilish harakati qizigan bo`lib, ertak-dostonlar endigina savod chiqarayotganlar o`qishiga qulay edi. H.Olimjon ertak-dostonlari zimmasiga davr yuklagan ana shu tarixiy-estetik vazifani bajarish bilan birga keng kitobxonlar ommasiga davr ruhini ilg`ash va anglashga ham ko`maklashardi. Shunga qaramay, bu asarlar davrlar o`tishi, ijtimoiy-estetik tafakkurning o`sishi tufayli ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bolalar va o`smirlarga mo`ljallangan dostonchilikning sara namunalari aylanib qoldi va yosh avlodda ijtimoiy-estetik dunyoqarashni tarbiyalashda hamon xizmat qilib kelayotir.

Shoir bolaligida tinglagan ertaklar silsilasida "Oygul bilan Baxtiyor"ning bo`lganligini o`zi birda "Baxtiyor bilan Oygul, qiz bo`lib ochilgan gul" tarzida, ikkinchi bor esa: "Ammo OygulBaxtiyor ertagini u takror qilar edi har kechin" deya qayta-qayta ta`kidlaydi. Shoir esa shu birgina ertak syujeti doirasida qolib ketmadi, ko`pgina tadqiqotchilar to`g`ri va asosli ta`kidlaganlaridek, o`z asari syujeti ustida ishlashda "Malikai Husnobod", "Susambil" ertaklari syujetlari, shuningdek, "Erni-er qiladigan xotin", "Qahramon", "Yaltillama sopol tovoq" ertaklari motivlari, hatto "Chambil qamali" va "Jizzax qo`zg`oloni" (Fozil Yo`ldosh o`g`li asari) kabi xalq dostonlaridan ham ijodiy ta`sirlandi. Qolaversa, u bunda "Bashar qo`shig`i"da ifodalangan "qora tunda tug`ilib, shu on bo`g`ilgani", o`sha qora tundagi "buzg`un va benavo dunyo"da unga "qondosh va jondosh el"ning "qashshoq va gado"likdan iborat mashaqqatli hayotidan norozi bo`lib 1916-yilda Jizzaxda ko`targan isyoni taassurotlarini ham tagma`no vazifasida istifoda etdi. Tabiiyki, bu asarning ijtimoiy-estetik ruhini kuchaytirdi. Rost, bu, o`z navbatida, asar yaratilgan davr voqeligini, tasdiqlashga qay darajadadir mos ham kelardi, biroq undagi voqelik har qalay "yo`qsillarning 1917-yilgi inqilobining

majoziy-ertaknamo tasviri" (N.Karimov) ham emasdi. Bunday qarash asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini cheklashdan tashqari, hamon sevilib o`qilayotganiga ham shubha uyg`otadi. Ehtimol kimdir H.Olimjon o`z qahramolarini oddiy mehnat vakillaridan tanlaganini vaj qilib, shoirni zamonasozlik qilganligini asoslashga urinar. Aslida esa, tarixning bunyodkori omma ekanligi va shu haqiqatni badiiy adabiyotda ulug` rus shoiri N.Nekrasov qator asarlarida ifoda etgani inobatga olinsa, H.Olimjon ana shu ijodiy an`anani o`zlashtirib, o`z ertak-dostonlarida muvaffaqiyat bilan davom ettirganligi ayonlashadi. Zero, xalq ertaklarida erk va adolat uchun kurash hamma zamonlarda yetakchi motiv bo`lib keldi.

Chindan ham ertak-dostonda muhabbat va baxt tarixi emas, balki unga erishish uchun kurash tarixi ertaknamo yo`sinda ifodalangan. Bu kurashga jamiyatda xotin-qizlar mavqeini tiklash motivi ham hamohang. Shu sababli asar voqealari markazida Oygul obrazi turadi, u voqealarni harakatlantiruvchi kuchni boshqaradi. Bu g`oya-ertak-doston asosi bo`lgan "Malikai Husnobod" ertagining bosh g`oyasi. Ko`rinadiki, xalqning o`zida bu g`oya feodal munosabatlar jarayonida qadimdan yuzaga kelgan. Ijtimoiy tengsizlik hamma zamonlarda ayollarni o`z huquqlarini tanishga undagan va bu xalq ijodida xilma-xil janrlardagi asarlarda, jumladan, "Malikai Husnobod" ertagida ham aksini topgan. H.Olimjon ertak-dostonni yozgan 30-yillar arafasida boshlangan xotin-qizlar ozodligi va teng huquqliligi uchun kurashdan iborat sho`ro kompaniyabozligi yangi bosqichga kirgan edi. Oygulning Malikai Husnobodga nisbatan ijtimoiy faol timsolga aylanganligida bu holat ta`sirini inkor etib bo`lmaydi. Shunga qaramay, u xalq ertaklarida hamma zamonlarda o`z erki, o`z huquqi, o`z muhabbati uchun kurashib kelgan ayollarning umumlashma mujassamasi darajasiga ko`tarilgan. U podsholar taklifini rad etar ekan, shunchaki o`z ijtimoiy mavqeidangina kelib chiqmaydi, balki podsholarning zolimligi, xalqni istibdodga giriftor etganligi, ma`naviy subutsizligini ko`zga tutib, shunday yo`lni tanlaydi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. O`zbek bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni haqida ma'lumot bering.
2. Kitobxonlik madaniyati tushunchasi haqida ma'lumot bering.
3. Bolalar uchun bag`ishlab yozilgan adabiyot namunalari bo'yicha jadval tuzing. Qanday adabiyotlarni bolalarga o`qitishni tavsiya qilasiz?

#### **Asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar:**

1. Safo Matjon. "Kitob o`qishni bilasizmi?". Toshkent: O`qituvchi nashriyoti, 1993. 31-bet.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O`qituvchi 2011.69-bet.

3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdon,2019.- 64bet.

**Elektron ta'lim resurslari:**

4. www. tdpu. uz
5. www. pedagog. uz
6. www. Ziyonet. Uz
7. www. edu. Uz

**4-MA'RUZA: BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA  
KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI  
VA USULLARI**

**Reja:**

- 1. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish.**
- 2. Kitobxonlikni targ'ib qilish va uni yoshlarga yetkazishdagi muammolar.**
- 3. Yurtimizda kitobxonlikni keng targib qilish, yoshlar o'rtasida kitob mutoalasiga qiziqtirish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar.**

*Tayanch so'z va iboralar: kitob, kitobxonlik, ilm,ustoz, kitobxonlik madaniyati, xazina.*

Kitob - umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob - beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishda ahamiyati juda katta. "Kitobsiz aql - qanotsiz qush", "Bilim - aql chirog'i". Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda kitob o'qish ko'nikmasi shakllansa, kamoloti yo'lida qolgan barcha amallarni kitobning o'zi o'rgatadi. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oilaviy tarbiyaning orni beqiyos. Har bir farzand shaxs sifatida shakllanar ekan, dastlabki tarbiyani oiladan oladi. Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oila bola uchun eng

muhim tarbiyaviy muhit boʻlib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, tasavvur va eng asosiysi dunyoqarash shakllanadi. Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishi oila tarbiyasi asosida paydo bo'ladi.

Farzand barcha axloqiy xislatlarni dastlab oiladan oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak kitobxonlik madaniyati ham bolaning o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi hamda shakllanadi. Kitobxonlik madaniyatining qay darajada rivojlanishi oila a'zolarning kitobga, kitob mutoalasiga bo'lgan munosabatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona farzandlariga bu borada o'rnak bo'lishi lozim. Bugungi kunda oilada kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishni to'g'ri yo'lga qo'yishda birmuncha kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, ota-onalarning kun bo'yi ish bilan band bo'lishi, yosh ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarni yetishmasligi, farzandlarining internet tarmoqlaridan foydalanishlarini nazorat qilmaslik va shunga o'xshash bir qancha salbiy holatlar uchramoqda. Bunday salbiy holatlarning oldini olish uchun ota-ona oilada bir qancha vazifalarni bajarishi lozim. Jumladan, oilada buyuk ajdodlarimizning kitob va kitobxonlik madaniyati haqidagi fikrlaridan foydalanib, ularga amal qilgan holda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish lozim. Masalan, axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiy kitob haqida shunday deydi: "Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdur. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar etadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar etadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham "kitob aql qal'asidir".

Farzandlarimizni bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili - bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir.

Ushbu maqolada kitobxonlikni keng targ'ib qilish va rivojlanishidagi muammolarga yechim topish haqida munozara bo'lib o'tadi. ASOSIY QISM: "Kitob" tushunchasini tahlil qilish ancha oldin boshlanganiga qaramay, haligacha yagona umumlashtiruvchi va umumiy qabul qilingan ta'rif mavjud emas. Tadqiqotchilar, qoida tariqasida, doimiy ravishda o'sib borayotgan ta'riflarni to'playdi va tahlil qiladi, o'zlarining yakuniy ta'riflarini chiqaradilar. Bibliolog E.L.Nemirovskiy kitob ta'rifining uchta asosiy yondashuvini ko'rsatdi: tavsifiy - ular kitobga hamma uchun tanish bo'lgan mavzu sifatida yondashadi va uni sof

tashqi ko'rishda tasvirlaydi; informatsion - kitob mazmunini aks ettirishga urinish; birlashgan - ikkala yondashuvni birlashtirishga urinishlar. Har bir yondashuvning ta'riflarini ko'rib chiqsak, biz aniq aytishimiz mumkinki, kitobning barcha moddiy va mazmunli xususiyatlarini sanab o'tish deyarli yakuniy bo'lmaydi. Kitob insonni ezgulikka undaydi. Yaxshi-yomonni ajratishga ko'maklashadi. Eng muhimi, ishonchli sirdosh bo'ladi. Shu o'rinda istiqloq arafasida ayrim yurtdoshlarimizda kitobga, kitobxonlikka qiziqish bir qadar susaygan vaqtlar bo'lganini eslaylik. Hozirgi paytda yurtimizda kitobxonlik, kitobsevarlik fazilati yana yuksalib bormoqda. "Kitob javoni - haqiqiy ziyolining eng ardoqli davlati", degan an'ana qaytadan urf bo'lmoqda. Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir". Shu ma'noda, shaklidan qat'iy nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao. Kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy-ma'rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabal Rudiylar kitob haqida shunday deydi: "Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdur, kitob aql qal'asidir". XULOSA: Bugungi kunda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida quyidagi muammolar mavjud: Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimi mavjud emas; badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagan.

Chop etiladigan kitoblarni nashriyotlardan hududlarga arzon narxlarda yetkazish, onlayn buyurtma berish va manzilga yetkazish tizimi ancha jonlanganiga qaramay aholini ushbu xizmatlardan foydalanish malakasi sust shakllangan (aksari aholi bunday xizmatlar borligidan xabari ham yo'q), shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatishda elektron kitob shakllaridan keng foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Ta'lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lgan manbalar hisobidan jalb etilmayapti, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlar yetarli emas. Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan



yuksak, intellektual saviyani o'zgarishga xizmat qiladigan kitoblarga bo'lgan talab chuqur tahlillar asosida o'rganilmagan. Kitoblarni chop etish hamda aholiga yetkazib berishni o'z ichiga olgan boshqaruv tizimining, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiyot jihatdan qaraydigan bo'lsak, kitob nashri uchun QQS qo'llanilishi ham kitob narxlarini oshishiga olib kelgan. Badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, yoshlarda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirish bugungi kundagi muhim ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Kitobxonlik madaniyatiga qo'yilgan talablar, sizningcha, nimalardan iborat bo'lishi lozim?
2. Bugungi kunda kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida qanday muammolar mavjud? Ularni sanab bering.
3. Kitobxonlikni yurtimizda keng targ'ib qilish hamda kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrda "2020 - 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi 781-sonli Qarori.
2. Munavvarov. A. Pedagogika - Pedagogika Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 1996-2008.
3. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Yoshlar va kitobxonlik: an'anaviy va zamonaviy usullar.
5. <https://uzedu.uz/uploads/2019/07/press-reliz-uzbek.doc>.
6. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9477-mutolaamadaniyati-va-intellektual-saloiyat>.
7. M.Inomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999 y.
8. Xasanboyev, X.Toraqulov, I.Alqarov, N.Usmanov. "Pedagogika". "Fan va texnologiya".2010 y.
9. R.Mavlonova, O.To'rayeva., K.Xoliqberdiyev.Pedagogika.O'qituvchi. 2008y.

## **5-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR**

## **Reja:**

- 1. Xorijiy tajribalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni**
- 2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari va muhim omillari**

*Tayanch so'z va iboralar: kitob, kitobxonlik, jamiyat va shaxs kitobxonligi, V.G.Belinskiy.*

Har bir jamiyatning istiqboli bugun kamol topayotgan bolalar, yoshlar tomonidan bunyod etiladi. Shu sababli yosh avlod tarbiyasini tashkil etish eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sanaladi. U qanday zamon, qaysi makon bo'Mishidan qat'iy nazar hamisha ushbu vazifaning ijobiy hal qilinishi jamiyatning e'tibor markazida bo'lgan.

Mavjud sharoitda O'zbekistonda yosh avlodga ta'lim berish, ulami umuminsoniy qadriyatlar, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivoji bilan bog'liq ma'naviy-axloqiy talablar, ijtimoiy ehtiyojlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. Zero, yosh avlodning kamoloti, u bilan uzviy bog'liq holda jamiyatning ravnaqi ularning ijtimoiy-hayotiy maqsadlari, ustuvor qadriyatlari, oliy darajadagi intilishlari hamda keng dunyoqarash asosida ta'minlanadi. Bunga erishishda bolalar va yoshlarning kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

Asriy yondashuvlarga tayangan holda aytish mumkinki, kitoblar yoshlar shaxsini shakllantiradi, ularning keng dunyoqarash, boy intellektual salohiyat va tafakkurga ega bo'lishlari uchun asosiy poydevomi yaratadi. Bu o'rinda: "...Bugungi bolalar ertangi kunda xalqqa aylanadi. Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborotkommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'Mishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim"<sup>2</sup> 5, - deya alohida ta'kidlab o'tadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Jamiyat va shaxs kitobxonligi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari ham kitob o'qish katta yoshdagi kishilarning intellektual, psixologik va fiziologik rivojlanishi uchun yanada ijobiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. AdMe.ru saytida e'lon qilingan ma'lumotlar ushbu fikrning haqqoniyligini tasdiqlaydi. Keltirilgan ma'lumotlar sirasida kitob o'qishning bolalar va o'smirlarning umumiy psixologik, intellektual, hattoki, fiziologik rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalari ham mavjud. Chunonchi, kitob o'qish: asabni tinchlantiradi (Sasseks universiteti (AQSh) olimlarining yondashuvlariga ko'ra, kitob o'qitish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan; buning uchun kuniga

---

<sup>2</sup> 5 Санйнд С. Кйргоост лелажак иук //http://uz.uz/02/s0ciely/kit0bsiz-kcla2hak-y-16-01-2017

bor-yo‘g‘i 6 daqiqa vaqt sarflash talab etiladi); hissiyotlarni (xuddi duo yoki she‘r o‘qish kabi) tarbiyalaydi (badiiy asar o‘qigan odam hayotda ham boshqalaming histuyg‘ularini yaxshi tushunadi); miya faoliyatining faolligini oshiradi, miyadagi asab tolalarining sonini ko‘paytiradi (Emori universiteti (AQSh)ning tadqiqotchilariga ko‘ra, kitob o‘qish natijasida insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo‘ladi); kommunikativlik, tinglash, yozish hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi (Obafemi Avolau universiteti (AQSh) pedagoglari bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishini aniqlashgan, darhaqiqat, ko‘p kitob o‘qigan shaxslaming aksariyati she‘r, hikoya, esse yoki ilmiy maqolalarni yuqori saviyada yoza oladi; badiiy asarlami, ayniqsa, she‘rlami ifodali o‘qish, sahna asarlarini yuksak mahorat bilan ijro etish qobiliyatiga ega); ijtimoiy faollikni oshiradi; badiiy didni o‘stiradi; xorijiy tillami o‘rganishni osonlashtiradi (boshqa tillami o‘rganishda yangi so‘zlarni oson tushunishga va yodda saqlab qolishga yordam beradi); ko‘p kitob o‘qiydigan bolalar darslami yaxshi o‘zlashtirishadi; yaxshi hikoyanavisga aylantiradi (qancha ko‘p kitob o‘qilsa, shaxsning hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi), ota-onalar va farzandlaming o‘zaro munosabatlari yaxshilanadi<sup>3</sup>.

Ma‘lumki, bolalarning kitoblarga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda ular uchun mo‘ljallangan adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Bu esa ko‘plab tadqiqotchilarni bolalar adabiyotlari va ulaming yaratish tarixini yaratishga undagan. Ana shunday tadqiqotlardan bin rossiyalik pedagog F.I.Setina tomonidan olib borilgan. Tadqiqotchining bildirishicha, Rossiyada bolalar uchun birinchi badiiy asar XV asming ikkinchi yarmida vujudga kelgan<sup>69</sup>. Davlatchilik tarixini o‘rganish ham Rossiyada XV asming oxiri XVI asming boshlarida ishlab chiqarish manufakturadan texnika zimmasiga o‘tkazila boshlagan. Bu esa tabiiy ravishda zavod va fabrikalarga ishga qabul qilinayotganlaming savodli bo‘lishini taqozo etardi. Natijada aholining mehnatga yaroqli qatlamiga tezkor tarzda ta‘lim berish yo‘l va usularini izlab topishni taqozo qilardi. Asosiy ish kuchini tashkil etuvchilar orasida bolalaming ham borligi ularda savodxonlik ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishga nisbatan zaruriyatni yuzaga keltirdi. Bu zaruriyatni qondirishning samarali yo‘l lari dan biri - bolalar uchun mo‘ljallangan adabiyotlami yaratish orqali ulaming savodini chiqarish, dunyoqarashini kengaytirish, degan xulosaga kelindi.

V.G.Belinskiy bolalarning ma‘naviy, madaniy, badiiy-estetik sifatlari, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ulami vatanparvar, insonparvar qilib tarbiyalash, mehnat, hayotga tayyorlashda kitob va kitobxonlikning ahamiyati kattaligini alohida ta‘kidlab o‘tgan. “Bolalar kitoblari haqida” maqolasida muallif: “Tarbiya – buyuk ish, u orqali inson taqdiri hal qilinadi... Aynan bolalar uchun

---

<sup>3</sup> Кктоб укганинг21 ^НиаасН//httpsV/zamin.uz/1ife-style/141%-kitob-oqishning-21-foydasi.html

yoziadigan kitoblar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim”, – deb yozadi. Bolalar tomonidan kitoblarning tushungan holda, izchil o‘qilishi uchun ular uchun mo‘ljallangan kitoblar muayyan talablar asosida yaratilishi zarur. V.G.Belinskiy bolalar kitoblarining mazmuniga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqib, bu turdagi kitoblarda bolalarning hissiyoti va tasavurlarini rivojlantirishga qaratilgan matn, ertak va hikoyalarning o‘rin olishi lozimligini ta’kidlab o‘tgan. “Bolalar uchun yozilgan kitoblar ularga quvonch, hayrat, qiziqish, his-hayajon bag‘ishlashi, qiziquvchanlik xislatlarini uyg‘otishi lozim.

S.A.Denisovning tadqiqoti<sup>75</sup> da bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy muhit sifatida oila va unda tashkil etilayotgan tarbiya masalalari o‘rganiladi. Muallifning e’tirof etishicha, qachonki oilaning katta yoshli a’zolari kitobxon bo‘lsa, oilada kitobga nisbatan kattalarning ijobiy munosabati aks etsa, oila davrasida kitoblar va ularda bayon etilgan voqeliklar, qahramonlarning xatti-harakatlari muhokama qilinsa, ularga nisbatan munosabat bildirilsa, oila a’zolari tomonidan yangi chop etilgan asarlar haqidagi ma’lumotlar o‘zaro o‘rtoqlashilsa, uning juda ham qiziqarli ekanligi e’tirof etilsa, bolalarda ham kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish hamda ehtiyoj yuzaga keladi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida xorijiy davlatlarda yoshlar, xususan, bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish yo‘lida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ilg‘or an’analar o‘rganildi. O‘rganish natijalarining ko‘rsatishicha, Rossiya FRda ana shu maqsadda bir qator ta’lim dasturlari ishlab chiqilganligiga guvoh bo‘lindi.

#### **Bolalar kitobxonligini rivojlantirishga doir xorijiy ta’lim dasturlari (Rossiya FR)**

<b>№</b>	<b>Dasturlarning nomi</b>	<b>Dasturlarning mualliflari</b>
<b>1</b>	<b>“Радуга” (“Kamalak”)</b>	T.N.Doronova, V.V.Gerbova, T.I.Grizik, Ye.V.Solovyeva, Ye.V.Solosheva, S.G.Yakobson
<b>2</b>	<b>“Развитие” (“Rivojlanish”)</b>	E.V.Andreeva, V.I.Bardina va b.; A.I.Bulichevaning tahriri ostida
<b>3</b>	<b>“Истоки” (“Sarchashma”)</b>	T.I.Alieva, T.V.Antonova, L.A.Paramonova, Ye.P.Amavtov va b. M.N.Lazutovning tahriri ostida
<b>4</b>	<b>“Детство” (“Bolalik”)</b>	T.I.Babayeva, V.I.Loginova, A.G.Gogoberidze, 3.A.Mixaylova, O.V.Solntseva va b.
<b>5</b>	<b>“Из детства - в отрочество”</b>	T.N.Doronova, L.G.Golubeva, T.I.Grizik va b.
<b>6</b>	<b>(“Bolalikdan o‘smirlikka”)</b>	T.N.Doronova muharrirligi ostida

Amerikalik tadqiqotchi Moyer E.Djessikaning “Bugun o‘smirlar kitob o‘qimay qo‘yishdi”. Kitob o‘qishga munosabat negizida turli qiziqish va tushunchalami tadqiq qilish: asoslash va metodologiya” (“Teens Today Don’t Read Books Anymore”: A Study of Differences in Interest and Comprehension Based on Reading Modalities: Introduction and Methodology” nomli ishida esa AQShning San’at milliy jamg‘armasi (National Endowment for the Arts - NEA) tomonidan 2004 yilda olib borilgan tadqiqotda yoshlarning “badiiy asarlarni o‘qish” darajasi keskin pasayishi sabablari o‘rganilar ekan, 18-24 yosh toifasidagi shaxslarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi<sup>91</sup> xavfli tus olayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

San’at milliy jam g‘armasi (National Endowment for the Arts - NEA)ning 2007-yilda olib borilgan tadqiqotida esa yoshlarning tobora kitob o‘qishdan “uzoqlashib borayotganligi”ga urg‘u berilgan. Unda qayd etilishicha, “ 13 yoshli o‘smirlarning har uchtasidan bir nafari har kuni kitob o‘qiydi. Bu esa 20 yil avvalgi holatdan 14 % past ko‘rsatkichdir. 17 yoshlilar o‘rtasida kitob o‘qiydiganlarning soni esa so‘nggi 20 yilda ikki baravarga ortgan, ya‘ni 1984-yildan 2004-yilga qadar ushbu yosh toifasidagilarning kitob o‘qishga bo‘lgan munosabatlari salbiy jihatdan 19 %ga ko‘tarilgan. Agar o‘rta yoshli amerikaliklar kuniga televizor tomosha qilishga o‘rtacha ikki soatdan vaqt sarflayotgan bo‘lsalar, kitob o‘qishga sarflanayotgan vaqt hajmi 7 daqiqani tashkil etadi.

Xorij tajribalari shaxsda kitob o‘qish, kitobxonlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, jamiyat a‘zolarining bosma, elektron va audio kitoblarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini tahliliy o‘rganish muammosi yetakchi davlatlar amaliyotida muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatdi. Nazariy tahlil natijasida soha bo‘yicha yetakchi xorijiy davlatlar amaliyotida quyidagi jihatlar ustuvor ekanligiga ishonch hosil qilindi: 1. AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Finlandiya, Norvegiya, Yaponiya, Rossiya FR va boshqalarda maktabgacha ta‘lim muassasalari hamda boshlang‘ich maktablardan boshlab bolalar, o‘smirlarda badiiy kitob o‘qish, kitobxonlik ko‘nikma, malaka hamda madaniyatini shakllantirish (rivojlantirish) davlat siyosati darajasida hal etiladigan, shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etuvchi masala sanaladi. 2. Nomlari qayd etilgan davlatlarda bolalar va o‘smirlarning kitob o‘qishga, badiiy adabiyotga, kitobxonlikka bo‘lgan munosabatlari mazmunan, shuningdek, dinamik ko‘rsatkichlariga muvofiq tahliliy o‘rganish monitoringi yoMga qo‘yilgan.

3 Bolalar va o‘smirlarda kitob o‘qish, kitobxonlik ko‘nikmalaka va madaniyatining rivojlanishi nafaqat tadqiqotchilar - Kristin M.Merga, AXenxart, Ye.Jessika Moyer, A.Perrin, D.Fallouzlar tomonidan avtonom, shu bilan birga ixtisoslashgan (kitoblarni yaratuvchi, chop etuvchi va tarqatuvchi) yirik (masalan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Osiyo axborot-tahlil jam g‘armasi,

Allensbach Institute, Publishing Technology, The Pew Internet i American Life Project, AQShning San'at milliy jam g'armasi (National Endowment for the Arts - NEA), G'arbiy Avstraliyada o'smirlaming kitob o'qish holatini o'rganish (West Australian Study in Adolescent Book Reading - WASABR), Kayzer oilasi jam g'armasi (The Kaiser Family Foundation), P'yu tadqiqotlar markazi (Pew Research Center) kabi o'nlab) markaz, kompaniyalar tomonidan milliy-ijtimoiy jihatdan izchil o'rganish orqali tashxislanadi.

4. Jamiyatda kechayotgan o'zgarishlarga bog'liq ravishda bolalar, o'smirlaming kitobxonlik ko'nikma, malaka, madaniyatiga egaliklari masalasi nomlari ko'rsatilgan markaz hamda kompaniyalar tomonidan kovariatsiyali (covariance analysis; o'zaro bog'liq qiymatlar va miqdor hamda sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqani belgilovchi modelni aniqlash), korrelyatsiyali (correlation analysis; bir nechta tasodifiy qiymatlar o'rtasidagi bog'liqlik!ami topish), dispersiyali (og'ishli) tahlil (variance analysis; tajriba ma'lumotlari bo'yicha o'rtacha qiymat farqlarining ahamiyatini tadqiq qilish), regressiya (regression analysis; o'zaro bog'liq o'zgarishlarda bitta yoki bir nechta mustaqil o'zgarishlaming aks etishini tadqiq qilish) tahlillari asosida o'rganilgan.

5. O'rganishlar natijasi bolalar va yoshlar o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-qadriyatli yondashuvlaming qaror topishi bilan bog'liq holda bosma, elektron hamda audio kitoblami o'qish an'analari shakllanganligini ko'rsatadi.

6. Global axborotlashuv sharoitida garchi kitob o'qishning innovatsion shakllari paydo bo'lganligiga qaramay, yildan yilga bolalar va o'smirlar o'rtasida kitob o'qishga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqish, ehtiyoj, shuningdek, unga ajratiladigan vaqt hajmi kamayib bormoqda.

7. Sohada yuzaga kelgan muammoning asosiy sabablari ma'naviyaxloqiy qadriyatlarning o'zgarishi, shaxs moddiy ehtiyojlari hududining kengayishi, uni qondirish uchun vaqt byudjeti asosiy qismining sarflanishi, bo'sh vaqt ulushining tobora qisqarib borayotganligi, bolalar va yoshlarga mazmunan sayoz, yengil, hazil-mutoyibaga asoslangan badiiy adabiyotlarning taqdim etilayotganligi kabilardan iborat.

Har qanday faoliyat, jarayon va tizimning g'oyasi, amaliy qiymati uning qanday tamoyillarga tayanganligiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli faoliyatni tashkil etishni rejalashtirish, jarayonning kechishini ta'minlash va tizimni shakllantirishda uning mohiyatida yetakchi o'rin tutuvchi ustuvor tamoyillar belgilab olinadi. Zero, tamoyillar ularning tadrijiy yo'nalishini belgilab beradi, shuningdek, tartib, qoida tusini oladi. Shu bois tadqiqotni olib borish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda ustuvor bo'lgan tamoyillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot muammosiga oid ilmiy ishlarni nazariy tahlil

qilish, pedagogik amaliyotni kuzatish, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondent-o'quvchilar, metodist o'qituvchilarning jarayonga bo'lgan munosabatlarini tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi tamoyillar ustuvor ahamiyatga egaligiga ishonch hosil qilindi.



#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot / Mas'ul muhar. M.Bekmurodov. – T.: Fan, 2004. – 192 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. N - Tartibli / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 416-b.
3. Qayumxo'jaeva Yo. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. - T.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2007. - 12-48-b.
4. G'anieva B. Bolalar o'qish madaniyatini tarbiyalashning muammolari // Betger o'qishlari-2004: Kutubxona resurslaridan faol va ijodiy foydalanish muammolari / Davra suhbatlari mat. - T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004. - 135-137-b.

#### **6-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI**

##### Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish.
2. Kitob mutolaa qilish odobi.
3. Kitobdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

#### **4. Kitobxonlik madaniyatiga erishish omillari.**

*Tayanich soʻz va iboralar: mutolaa, kitobxonlik, taʼlim-tarbiya, mustaqil oʻqish, sinfdan tashqari oʻqish.*

Bolalarga yoshlikdan oʻzbek xalq ertaklaridan soʻzlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondoʻstlik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumi kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bolgan fikrlar esa bola tarbiyasida asosiy manba boʻlib xizmat qiladi Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod taʼlim-tarbiyasida kitobning oʻrni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida taʼkidlab, “Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni oʻzlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob oʻqishga boʻlgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan doʻst boʻlishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida eʼtibor qaratish lozim boʻladi”, aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir. Yuqoridagi bayon etilgan fikrlarga tayangan holda quyidagilarni ota-onalarga tavsiya etishimiz mumkin: – Bolani kitobga qiziqtirish uchun ozingiz namuna boling; – Oqigan kitobingizdan namunalar oqib bering yoki hikoya qilib bering; – Sozlab berish uchun bolani yoshiga mos fikrlarni tanlab oling; – Oilaviy kutubxonani shakllantiring, bunda bola uchun alohida bolim tashkil eting; – Bolani yosh xususiyatlariga mos kitoblar tanlang va sotib oling; – Farzandingizga tovush chiqarib, sanoq sherlarni, tez-tez takrorlanuvchi satrlardan iborat bolalar sherlarini, rasmi kitobchalarni, turli hikoya va ertaklarni muntazam oqib bering; – Kichkintoylar uchun moljallangan kutubxona va kitob dokoniga vaqti-vaqti bilan olib boring; – Talagan kitoblaringiz pedagogik-psixologik talablarga javob bersin. Xulosa qilib aytganda, barcha ezgu ishlarning, bunyodkor gʻoyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sohadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bolgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga alo nur boʻladi. Bizga ilm nurlarini sohadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bolgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga alo nur boladi. Bolada oqish malakalarni shakllantirish negizida ogzaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yoʻllarida hamroh va maslahatgoʻy, bir umrlik sodiq doʻst – kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda oʻz hissamizni qoʻshgan bolardik. XXI asr fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsion



vositalar xizmatidan foydalanish sur'ati keskin ortayotgan, fuqarolarning talab, ehtiyoj va maqsadlarini qondiruvchi moddiy manbalar yetarlicha ishlab chiqarilayotgan davr -innovatsion texnologiyalar asri bo'lib tarixga kirmoqda. Insoniyatning farovon, to'kin-sochin hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik jihozlar kundan kunga, yildan yilga takomillashib, sayqallanib, qulayliklari ortib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi, "insonlarning millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotidan rozi bo'lib yashashi" yurt kelajagi kafolatlanganiga ishonch hosil qilishi Davlatimizda olib borilayotgan oqilona va odilona siyosatning bosh maqsadidir. Zero, O'zbekiston, yurtboshimiz e'tirof etganidek, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari jadal harakat qilmoqda. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan oliy maqsad -mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksak bosqichga ko'tarish yo'lida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan yosh avlodning, o'quvchi va talabalarning g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan mukammal tarbiyalanishi ayni maqsadga muvofiq hodisa sifatida jamiyat a'zolarining diqqat markazida turuvchi dolzarb masaladir. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishda, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilanyashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan omillar bir qancha bo'lib, shulardan eng muhimi -bu kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasi yaratilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi vazifalarning asosiy qismi o'qish darsida amalga oshiriladi. Bolalar o'qish darslarida to'g'ri, tez, ongli o'qishga o'rgatiladi. Endi, badiiy asar o'qitish bosqichlariga to'xtalib o'taylik.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga mos keladigan ibratli hikoya yoki ertak tanlab olinadi. O'quvchilar bilan birgalikda badiiy asar to'g'ri, tez va ongli o'qib chiqiladi.

2. Asarning g'oyaviy asosi, mazmuni o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

3. Badiiy asar o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi.

4. Sinfda o'qish o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi. Bolalar bu kabi jarayonda o'qish bilan birgalikda kitobdan to'g'ri foydalanish

kerakligini ham o'rganib boradilar. O'qituvchi bolalarga kitobni toza, ozoda tutish kerakligini, kitobni o'tirgan holatda yorug' xonalarda o'qish kerakligini ham tushuntirib boriladi. Bundan tashqari bolalarda kitobxonlikni tarkib toptirish uchun bolalarda mustaqil kitob mutolaa qilish ko'nikmasini shakllantirish kerak. Sinfda o'qituvchi birorta badiiy kitobni belgilangan muddat ichida o'quvchilar o'qishi lozimligini aytib o'tadi. Kitobni o'qib tugatgan o'quvchini rag'batlantirishi aytib o'tiladi. Bunda bola kitobni uyda o'zi mustaqil ravishda o'qiydi, fikrlash doirasi kengayib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil uyda o'qishlari uchun kitob tanlayotganda, albatta, bolaning yoshini va qiziqishlarini hisobga olgan holda kitob tanlash lozim. Bola o'ziga yoqqan asarni butun vujudi biulan o'qiydi, nafaqat o'qiydi, balki o'qigan badiiy asari haqida mustaqil fikr ham yurita boshlaydi.

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo'lgan. Har bir davrning o'z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda "Mutolaa madaniyati", "Kitobxonlik madaniyati", "O'qish madaniyati" kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

"Mutolaa" so'zi arabcha "o'qish" degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: "Mutolaa" madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir<sup>1</sup>. Ayni chog'da mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar - kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televideniya, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari,...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi»<sup>4</sup>. Professor E.I.Yo'ldoshev «O'qish madaniyati» tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «O'qish madaniyati - juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi».

---

<sup>4</sup> Nishonov S. « Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2010 y.1-son, 12,16-b.

Ta'lim o'qitish, o'qish, rivojlanish mujassam amalga oshiriladigan jarayondir. Axborot olish madaniyatini tarbiyalash ta'lim jarayonida amalga oshadi. Egallagan bilimlar o'quvchilarni izchil shakllantirib borishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonining mazmunini tashkil qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar faqatgina sinfda o'qitiladigan darslarda shakllanib kolmasdan, balki sinfdan tashkari, aniqrogi axborot-kutubxon muassasalarida mustaqil tarzda shugullanish orqali egallanadi. Axborot-kutubxonachilik ishidagi mavjud tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot olish madaniyatini tarbiyalashning eng samarali vositasi - axborot- kutubxonachilik bilimlarining o'quvchilar orasida targ'ib qilishdir. Buning eng samarali yo'llaridan biri bo'lib axborot-kutubxonachilik darslarini tashkil etish hisoblanadi.

Axborot olish, u bilan ishlashning asosiy usullari haqida ma'lumot berish axborotkutubxonachilik darslarining negizini tashkil etadi. Ushbu darslarda axborot bilan ishlash, kitob bilan tanishish, kitobni bevosita o'qish, eng muhimi, uni uqish, o'rganish malakalari singdirib borilishi kerak. Shuningdek, elektron kutubxonadan foydalanish, elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalari haqida axborotga ega bo'lish, ulardan foydalanishni o'rganish kabilar kiradi. Bu esa o'z-o'zidan amalga oshadigan, jo'n narsa emas, albatta<sup>5</sup>.

O'zbek oilasi bugun eski totalitar jamiyat mafkurasi singdirilgan kitoblardan voz kechmoqda. Yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan kitoblar tanlanmoqda. Bu jarayonda kitobxonlik pasayganday ko'rinsa ham, aslida u sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyati rivojlanib boruvchi faol jarayon. Shu sababli ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e'tibor berishlari lozim:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qish ishtiyoqini shakllantirish nihoyatda murakkab jarayondir. Bu masala ularlarning kitobxonlikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. Tan olish kerak, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bugungi kitobxonlik darajasi qoniqarli emas. Bu ijtimoiy muammodan chiqib ketishning yagona yo'li ota-onaning yordamga kelishidir. Maktabda o'qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya'ni murakkabligi jihatidan normal, bolaning kamolot darajasiga mos bo'lgan kitoblar tanlash qo'l keladi.

2. Kitob tanlashda bolaning ma'naviy darajasini hisobga olish lozim. Ota-onaning bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishdagi ilk vazifasi kitob tanlashda yordam berishdir. Ularning saviyasiga mos bo'lgan adabiyotlarni keng targ'ib qilish bolalarni jamiyatning munosib fuqarosi, mustaqil davlatimizning yetuk, barkamol insonlari bo'lib etishishi uchun va ma'naviyatining yuksakligi

---

<sup>5</sup> Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi» 2000 y. №3.

bilan oilasiga va jamiyatga foyda keltirishga olib keladi. Buning uchun oilada kitobxonlik ruhi bo'lishi kerak.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. O'qituvchi, ota-ona o'smirni kitobxonga aylantirib borishida uni ixtisoslashtirib borish yo'lini tutishi kerak. Bu borada eski texnologiya - bola yuqori sinfga o'tganda ixtisoslashtirish kerak, degan fikrdan voz kechish lozim.

Kitobxon – o'quvchi oilada o'rgangan hayotni kitobdagi hayotiy voqealar bilan boyitib, hayot haqidagi tushunchalari, insoniy fazilatlar, yaxshilik, qadriyatlarni, avlodlari hayoti bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik fazilatlarini yuksalib boradi. Bu borada eng katta yordamchi badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotda har qanday voqea-hodisa badiiy obrazlardan, ta'sirchan shaklda ifodalandiki, unda yosh kitobxon ko'p fazilatlarni o'rganish, ma'nan boy shaxs bo'lib shakllanishi mumkin.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka qanday o'rgatish mumkin?
2. “Kitobxonlik madaniyatini men qanday tushunaman?” mavzusida esse yozing.
3. Ko'plab kitoblarni o'qishga qiziqtirish qanday ishlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaysiz?
4. Bolajonlarga kitoblarni tanlash didini shakllantirish qay darajada muhim ahamiyatga egaligi bo'yicha fikrlaringizni daftaringizga yozing.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimova K, Matjonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh „Ona tili o'qitish metodikasi”-T. Noshir.2009.
2. Ernazarov G'. „Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi”- Toshkent: „Ilm ziyo”-2013.
3. “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAkatLAR STRATEGIYASI” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
4. Masharipova U. “Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash”. // Boshlang'ich ta'lim,2010, №4.
5. Nishonov S. « Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2010 y.1-son, 12,16-b.
6. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi» 2000 y. №3.
7. Гулбоев А.Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов//Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).

## **7-MAVZU: MUMTOZ BOLALAR KITOBXONLIGI VA UNING KO'RINISHLARI**

## **Reja:**

- 1. Mumtoz bolalar kitobxonligi haqida ma'lumot. Eski maktablarda o'qish va o'qitish usullari.**
- 2. Didaktik adabiyot va pandnomalar – bolalar kitobxonligida.**
- 3. "Guliston" va "Bo'ston" – dunyoviy pandnoma xarakterdagi asar.**
- 4. Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan talimtarbiyaga oid g'oyalar.**
- 5. Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-talimiy qarashlar.**

*Tayanch so'z va iboralar: Harakat, uzv, matn, dialog, monolog, guldur-gup, chandish, arsenal, alliteratsiya, ritm, tovush, tabu, maqol, masal, mashoyix, oqin, hukm, paremik, paremiografiya, paremiologiya, sintaktik, saj, fetishestik, gallyutsinatsiya, inonch, deklamatsion.*

Bolalar kitobxonligi ifodasi o'z ma'nosida umuman kitob o'qish hodisasini anglatadi, keng ma'noda necha ming yilliklar davomida aslida kattalar didi, hayotiy tajribasi, dunyoqarashiga mos holda yaratilib kelgan bo'lib, bolalarning ham o'qishi doirasida amal qilgan va yaxlit tizim tarzidagi ma'naviy-axloqiy hodisa darajasiga ko'tarilgan hammabop diniy, diniy-axloqiy, diniy-tarixiy, didaktik, badiiy, ilmiy, shuningdek, XX asr boshlaridan esa, professionallik kasb eta boshlagan o'zbek bolalar adabiyotiga doir asarlar silsilasini o'qish va o'qitishni anglatadi. mohiyatga ega. Maktab darsliklari, o'quv-didaktik xarakterdagi asarlar va bolalar adabiyoti namunalari bundan istisno bo'lib, ularda bolalar yosh xususiyatlari va saviyasining inobatga olinishi qat'iidir. Qolaversa, bolalar adabiyotida obrazli badiiy tafakkur amal qilsa, bolalar kitobxonligida mantiqiy tafakkur ustivorligi sezilarlidir. Zero, bolalar adabiyoti adabiy-estetik hodisa bo'lsa, kitobxonlik, jumladan, bolalar kitobxonligi undan farqli o'laroq ijtimoiy-estetik hodisa sanaladi. Bolalar kitobxonligi jamiyatning o'z bolalari haquqlarini anglashi va ularni o'ziga voris sifatida tushuna borishi negizida yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat uning vositasida yosh avlodni o'z hayotiy tajribalaridan chiqargan ijtimoiysiyosiy, ma'naviy-estetik va axloqiy saboqlari asosida tarbiyalashni ko'zlaydi. Yozma adabiyot paydo bo'lguniga qadar bu xalq didaktikasi– etnopedagogika shaklida harakatda bo'lgan.

Pandnomaxonlik nisbatan demokratik yo'nalishda namoyon bo'ldi- ham bolalar o'qib o'rganadigan hikmat kitobi, ham kattalar o'qiydigan saboq tarzida silsilaviylik kasb eta bordi, lekin qissaxonlik, asosan, kattalar davrasidagina amaliyotga aylandi. Ta'kidlash zarurki, Qur'oni karim oyatlari va hadislar mazmunini axloqiy va tasavvufiy asosda chaqish va sharhlash, kengroq yo'sinda tabdil qilish va mohiyatini teranroq ifodalash asosida shakllangan pandnomachilik islomiy tafakkur ta'siridagi adabiyotlarda chuqurroq ildiz ota boshladi.

Buyuk qomusiy mutafakkir **Abu Ali ibn Sino** (980-1037)ning arab tilida yozilgan "Solomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon"("Uyg`oq o`g`li Tirik", hijriy 414-milodiy 1023) qissalari va "Risalat at-tayr" ("Tayr risolasi") kabi falsafiy-didaktik asari ham mohiyatan betakror o`gitnomalar edi.

"Solomon va Ibsol" mavzuida Abu Ali ibn Sinogacha Hunayn ibn Ishaq (809-873) va ibn A`robiylar ham asar yozishgan bo`lsa, undan keyin esa, ibn Tufayl (vafoti 1186) va Abdurahmon Jomiy (1414-1492) singari ijodkorlar asar yaratgani ma`lum. Binobarin, "Solomon va Ibsol" syujeti ham sayyor xarakterga ega bo`lib, Sharq xalqlari adabiyotlarida bir muncha ishlangan. Abu Ali ibn Sino bu mavzuga Aql va Kuchning mohiyati, o`zaro munosabatini akaning uka va aksincha, ukaning aka oldidagi burch va mas`uliyati fonida axloqiy-falsafiy yo`nalishda tahlil qiladi. "Sen agar irfon ahlidan bo`lsang, Salomon sening o`zing uchun to`qilgan masal, Ibsol ma`rifatdagi darajang uchun to`qilgan masal". Chindan ham bu masal mohiyatini tug`ishgan aka-ukalar Salomon va Ibsol hamda Salomonning xotini o`rtasidagi munosabat tashkil etadi.

Abu Ali ibn Sino boshqa qissalarida ham o`z zamonasining dolzarb ijtimoiy-axloqiy muammolarini ko`tarib, ulardan didaktik saboqlar chiqara oldi. Shu sababli bu asarlar asrlar osha avlodlarni ezgulik ruhida tarbiyalashda xizmat qilib kelayotir. Biroq eski maktablarda ham, ibtidoiy madrasalarda ham fors-tojik tilida bitilgan Kaykovusning "Qobusnoma" va Sa`diy sheroziyning "Guliston" kabi pandnomalaridan keng foydalanilgan, shunisi e`tiborliki, keyingisi xalq orasida an`anaga aylangan sa`diyxonlik asosini tashkil etgan.

**"QOBUSNOMA"**. Bu asar "Mav`izatnoma" va "Nasihatnoma" nomlari bilan ham mashhur bo`lib, hijriy 475-milodiy 1082-1083 -yillarda Unsurulmaoliy Kaykovus tomonidan o`g`li Gilonshohga bag`ishlanib yozilgan. Asarning yozilishi sababi izohida ikki nuqta e`tiborni tortadi. Birinchisi, u o`g`li Gilonshohga murojaat qilib "shu pandnomalarni qabul qilishi"ni so`raydi. Shu pandlarida "otalik vazifasi" namoyon bo`lganini, bu xalq rasmi ekanligini ta`kidlarkan, o`z hayotiy tajribalari xalq axloqiy qarashlariga omuxtaligini uqtiradi: "Bilgilki, jahon xalqining rasmi shuldirki, takupo`y va justujo`y qilib dunyoda biror narsa hosil etarlar va uni o`zlarining yaxshi ko`rgan kishisiga qo`yib ketarlar. Men dunyoda ushbu so`zlarni hosil qilmishman va mening yaxshi ko`rg`on kishim sendursen. Menga rixlat vaqti yovuq etdi, dunyodan har nimaiki hosil qildim, sening oldingga qo`ydim, tokim xudkom bo`lmag`aysan va berohlik yo`liga qadam qo`ymag`aysan". Kaykovus o`g`lining shu pandlarga qat`iy amal qilishini istaydi. Biroq bu masalada ko`nglini ayrim andishalar bezovta qilayotganini ham eslatadi. Bunda otalar hayot tajribasi bilan bolalar hayot tajribasida yuz berishi muqarrar nomutanosibliklar ko`zda tutiladi. Bu ikkinchi nuqta bo`lib, Kaykovus o`z zamonasidayoq jamiyatda har bir avlodning ajdodlari tajribasidan nimanidir qabul

qilishi, nimanidir inkor etishi asosida yuz beradigan otalar va bolalar muammosini sergaklik bilan fahmlaydi: "Mening so`zimni (pandimni-O.S.) eshitmoqdin ibo qilmag`il. Agar mening so`zimni qabul qilib, undan bahra olsang, o`zgalar dog`im (yanada) qabul qilurlar va unga yarasha ish qilmoqni g`animat bilurlar. Chunki zamona taqozosi shundoqdurki, hech farzand otasining pandin qabul etmag`usidir, nedinkim yigitlar g`aflat yuzidin o`z botinida o`zlarini birdan-bir donish fahm qilurlar va o`z donishlarini qarilarning donishlaridan afzal bilurlar. Garchi bu so`z menga ma`lumdur, lekin otalik mehri meni xomush bo`lurga qo`ymadi" "Otalik mehri" "o`zi yaratgan" pandlarni qirq to`rt bobda ifodalashga undadi.

Garchi pandnoma farzandga mo`ljallangan esa-da, unda katta hayotiy tajribaga ega inson qarashlari o`z didi, saviyasi, e`tiqodi va ijtimoiy mavqei nuqtai nazaridan ifodalanganligi sezilib turadi. Shu sababli uning bayon uslubi va tilida ham kattalar nutqiga xos unsurlar ustivordir, biroq bu o`git- nasihatlarni ayrim rivoyat va hikoyatlar asosida ishonchli, ta`sirchan va tabiiy soddalik zamirida bayon etilganiga mone`lik qilolmaydi. Xuddi shu xususiyatiga ko`ra o`tmishda uzoq muddat davomida undan eski maktab va ibtidoiy madrasalarda o`qish kitobi sifatida foydalanib kelindi.

"Qobusnoma" XI asr sharq pedagogik tafakkurini yorqin aks ettirgan o`qish kitobi vazifasini sharaf bilan ado etib kelayotir. Shu bilan birga u sharq xalqlari pedagogikasi tarixini o`rganishda eng qimmatli manbalardan biri bo`lib qolayotir.

"**Guliston**" sa`diyxonlik asosini tashkil etgan asar sifatida nafaqat fors-tojik adabiyotida, balki butun Sharq adabiyotida pandnomachilik taraqqiyotiga kuchli ta`sir ko`rsatdi. Bu ta`sir hayotbaxsh an`naviylikka aylanib, sakkiz asrcha muddat badalida davom etib kelayotir.

Sa`diy insonning shakllanishida tarbiya muhimligini diqqat markazida tutadi. Tarbiya esa ilm va kasb -hunar o`rganish shaklida inson fazlu kamolini belgilaydi.

Zero: Kinga yoshligidan berilmas odob, Ulg`aygach bo`ladi baxtsiz,  
dili g`ash. Ho`l novda egilar qay xilda egsang,  
Quruqni to`g`rilar faqat o`t-otash (145-6.).

Shu an`ana zamirida Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" ("Ko`ngillarning sevishgani"), Husayn voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoki axloq", Abdurauf Fitratning "Oila" singari adabiy-ijtimoiy va falsafiy-didaktik xarakterdagi o`lmas asarlari yuzaga keldi va barchasi birgalikda asrlar davomida ajdodlarni e`tiqodi mustahkam, diyonatli va komil inson ruhida tarbiyalashda xizmat kilib kelmoqda.

Bunda, ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlari ayricha rol o`ynay boshladi, XV asrning so`nggi choragi va asosan, XVI asrdan boshlab ulug`

Navoiy asarlarini o`qish o`ziga xos an`anaga aylana bordi. Tojik -fors tilida "shohnoma"xonlik, sa`diyxonlik, hofizxonlik, rumiyxonlik, jomiyxonlik davom etgani holda bu safda eski o`zbek (turkiy) tilidagi qissaxonlik va yassaviyxonlik yonida navoiyxonlik an`anasi ham qaror topdi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Mumtoz bolalar kitobxonligi haqida ma'lumot bering.
2. Eski maktablarda o`qish va o`qitish usullari haqida fikrlashing.
3. Hozirgi o`qitish tizimida kitobxonlikning o`rni qay darajada deb o`ylaysiz?
4. Didaktik adabiyot va pandnomalarning bolalar kitobxonligida tutgan o`rni bo`yicha sinf muhokamasini o`tkazing va ushbu mavzu bo`yicha referat tayyorlang.
5. "Guliston" va "Bo`ston" –dunyoviy pandnoma xarakterdagi asar ekanligiga dalil keltiring.

#### **Asosiy darslik va o`quv qo`llanmalar**

1. Safo Matjon. "Kitob o`qishni bilasizmi?". Toshkent: O`qituvchi nashriyoti, 1993. 72-bet.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O`qituvchi 2011.99-bet.
3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdon,2019. – 93bet.

#### **Elektron ta`lim resurslari:**

1. www. tdp. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz
4. www. edu. Uz

### **8-MAVZU: DIDAKTIK ADABIYOT VA PANDNOMALAR – BOLALAR KITOBXONLIGIDA. "GULISTON" VA "BO`STON" - DUNYOVIY PANDNOMA XARAKTERDAGI ASAR**

#### **Reja:**

1. Muslihiddin Sa`diy Sheroziyning Guliston asari va uning o`zbekcha tarjimasi borasida fikr-mulohazalar.
2. Sa`diy Sheroziyning asarlarida o`ziga xoslik va asl mazmuniga oid bazi masalalar.

#### **Tayanch so`z va iboralar: Sa'diy Sheroziy, Guliston, Boston.**

Markaziy Osiyodagi xayrli o`zgarishlar, jumladan, o`zbek va tojik xalqlarini bir-biriga bog`lab turgan azaliy do`stlik rishtalarining jadallik bilan tiklanib



borayotgani ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy, jumladan, adabiy hamkorlikni kengaytirishga yangi imkoniyatlar yaratayotir. Bu borada Prezidentimiz tomonidan barchamizga saboq bo'lishga arzirli yangi-yangi tashabbuslar ko'rsatilmoqda. Jumladan, 2018 yil 9-10 mart kunlari davlatimiz rahbarining qardosh Tojikistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi chog'ida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi mustahkam do'stlikning ramziy ifodasi sifatida ikki buyuk adibning birbiri haqidagi qimmatli fikrlarini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek, tojik va rus tillaridagi "Jomiy va Navoiy" kitobining qo'shni mamlakat rahbari Imomali Rahmonga taqdim etilgani ham o'zbekistonlik, ham tojikistonlik tadqiqotchilar uchun ibrat bo'ldi<sup>6</sup>.

Umumbashariy sivilizatsiya zarvaraqlaridan o'rin olgan, ulkan adabiy meros qoldirgan allomalar fors-tojik adabiyotida ko'plab topiladi. Forstojik adabiyoti umuminsoniy qimmatga molik madaniy-ma'naviy xazinaga benazir hissa qo'shgan Sa'diy Sheroziy jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirgan shunday buyuk mutafakkirlardandir.

Umumbashariy sivilizatsiyaga qo'shgan benazir hissasining e'tirofi sifatida 21 aprel YUNESKO tomonidan "Buyuk fors shoiri va gumanisti Shayx Sa'diy Sheroziyni xotirlash kuni" deb e'lon qilingani bejiz emas. Zero, adib ijodini boshidan oxirigacha bir shodaga aylantirgan mavzu – inson, uning quvonchu tashvishlari, baxtu saodatiyu dardu alamlari, kamolotiyu tubanligi sabablari bo'lib, ularning barchasi, so'zsiz, tunganmas va doimo barhayot mavzulardir.

Shoirning bizga malum va mashhur asarlaridan biri bu Guliston va Bo'stondir. Ushbu ikki asarning o'zbekcha tarjimai XX asrning 70- yillarida ilk bor nashr etilgan bo'lib, bugun ularni topishda nafaqat oddiy o'quvchi, balki mutaxassislar ham katta qiyinchilik sezayotgandi.

Sa'diy Sheroziy ijodining mahsuli dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingani uning ahamiyati nechog'li yuqoriligidan dalolat beradi. Mutafakkir asarlari tarjimai haqida so'z ketganda, Shoislom Shomuhamedovning Sa'diyga xos betakror ruhiyatni saqlab qolgan, ya'ni barchaga ma'lum haqiqatni shoir forschada bayon etganidek yuksak nazokat va fusunkor shaklda o'zbek tilida ifodalay olganini alohida ta'kidlash joiz<sup>7</sup>.

Darhaqiqat, Sh.Shomuhamedov o'zbek ilm-fani va adabiyotida chuqur iz qoldirgan serqirra mutafakkirlardan edi. Ushbu fikrning isboti sifatida Shoislom Shomuhamedov qalami ostidan chiqqan ilmiy tadqiqotlar, tarjima va badiiy asarlarning jami adadi olti yuzdan ortiqligi hamda forschadan qilingan tarjimalar nashrining umumiy soni bir milliondan oshganini eslatish mumkin. Bu borada gap

---

<sup>6</sup> Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O'zbekiston, 1971. - 310 b.

<sup>7</sup> K. B. Murotmusaev, M.Z. Dzhelyalov, M.J. Boltaeva. Psychological Aspects Of Human Health And The Power Of Love. The American Journal of Applied sciences. February 25, 2021 p 73-77.

ketganda, shubhasiz, Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari tarjimasini alohida ta'kidlash joiz.

"Guliston" didaktik asarlarga qayta-qayta murojaat qilish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Biroq, ushbu ikki asarning o'zbekcha tarjimasini XX asrning 70-yillarida ilk bor nashr etilib, bugun ularni topish amrimahol bo'lib qolgani ham sir emas. Hatto mazkur nodir asarlarning o'zbekcha tarjimasini topishda nafaqat oddiy o'quvchi, balki mutaxassislar ham katta qiyinchilik sezmoqda.

Endi bu muammolarga hojat qolmadi. Gap shundaki, Sa'diy Sheroziy ijodining gultojlaridan sanalmish "Guliston" asarining o'zbekcha tarjimasini hamda "Sa'diy fenomeni" kitobi Moskvada nashr etildi. "Guliston" she'rlarni forschadan G'afur G'ulom bilan Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilov tarjima qilgan. Sheroziy she'riyatidan – "Bo'ston"ni forsiydan Xalqaro Firdavsiy mukofotining laureati Shoislom Shomuhamedov o'zbek tiliga o'g'irgan. Ushbu xayrli ishni Alisher Shomuhamedov, Zohidullo Munavvarov hamda Sardor Mirzajonov amalga oshirdilar.

Ushbu nodir asarlar o'zbekcha tarjimasining yangi nashrlari kitob javoningizdagi sara asarlar qatoridan o'rin olishiga shubha yo'q.

Fors tojik adabiyotida Sa'diyning maqomi juda yuksak. Xususan, boy hayotiy tajriba asosida yaratgan «Bo'ston» (1257) va «Guliston» (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi.

«Guliston» asari sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob — podshohlar siyrati zikrida:

ikkinchi bob — darveshlar axloqi zikrida;

uchinchi bob — qanoat fazilati zikrida;

to'rtinchi bob sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob — ishq va yoshlik zikrida;

oltinchi bob – qarilik va zaiflik zikrida;

yettinchi bob – tarbiyat ta'siri zikrida; sakkizinchi bob – suhbat odobi zikrida<sup>8</sup>.

Sa'diyni g'azal janrining kashshofi va ustodi sifatida ham ulug'lashadi, chunki ungacha forsiy shariyatning yetakchi janrlari qasida, doston, masnaviy, qit'a va ruboiy edi. Rudakiy, Sanoiy, Xoqoniy, Jamodiddin va Kamoliddin Isfahoniylar ko'plab g'azallar yozgan bo'lsalar-da, ular qasida va qit'a xarakteriga ega bo'lib, o'zaro mustaqil alohida baytlardan g'azal yaratish an'anasini Sa'diy boshlab berdi. U g'azalchilikdagi o'zigacha olib borilgan izlanish va tajribalarni rivojlantirib, g'azalni takomilga yetkazdi, keyin Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Xoju Kirmoniy kabi zabardast shoirlar uni yanada taraqqiy ettirib, Hofiz

---

<sup>8</sup> Hayitmetova A. "Bo'ston" va o'zbek adabiyoti // Shayx Sa'diy va o'zbek adabiyoti. – Tehron-Toshkent, 2004. 42-b.

Sheroziyga yetkazdilar, Hofiz esa uni yuksak cho‘qqiga olib chiqdi. Sa‘diy g‘azallari 4 devondan iborat bo‘lib, ular «Tayyibot» («Latif g‘azallar»). «Badoe’» («Yangi g‘azallar»), «Xavotim» («Xotima g‘azallar») va «G‘azaliyoti qadim» («Eski g‘azallar»)dan iborat.

«Guliston»ga ergashib ko‘plab asarlar yozilgan, lekin ulardan faqat 3 tasi: Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston»i, Majiddin Xofiyping «Xoriston»i, Habib Qooniyning «Parishon»i shuhrat qozongan.

«Guliston» XVII asrning birinchi yarmidayoq Yevropa tillariga tarjima qilinib, tarqala boshlagan. U ilk bor frantsuz diplomati Andre Ris tomonidan frantsuz tiliga o‘girilib, 1634 yili Parijda nashr etilgan. Bu tarjima juda erkin bajarilgan va mukammal bo‘lmasa-da, ko‘pchilikning e‘tiborini tortadi. 1635 yili asar frantsuzchadan nemis tiliga tarjima qilingan. Shundan keyin boshqa g‘arb tillari, shuningdek, rus tiliga ham o‘girilgan. Rus tilida «Guliston» (1957. 1959) va «Bo‘ston» (1963) asarlarining mukammal tarjimalari bosilib chiqqan.

«Sa‘diy yolg‘iz Eron emas, balki Osiyoning, Afriqoning hamma yerida hurmatli bir faylasufdir. Uning tarzi bayonining tarovatini va ifodasining qimmatini Ovrupo ilmu adab ahli ham ko‘pdan beri tan olganlar», — deb yozadi mashhur major olimi Xerman Vamberi. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri I. V. Hyote Sa‘diyning «juda mahsuldor va fayzli», «hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir» deb hisoblagan.

Mashhur frantsuz faylasufi va adibi Volter «Guliston»dan xabardor bo‘lgan va ba‘zi she‘rlarida undan foydalangan. Taniqli frantsuz masalchisi Lafonten ham «Guliston»dagi hikoyat va naqlardan o‘z masallarida istifoda etgan. Ulug‘ rus shoiri A. S. Pushkin: «Sa‘diy va Hofiz asarlarining pinhoni asroriga yetguncha she‘rlarimda quvonchbaxsh jihatlar va hayotdo‘stlik kam uchrardi», — degan edi.

Sa‘diy asarlari qadimdan o‘zbek xalqi orasida ham mashhur. «Bo‘ston» va «Guliston» asarlari madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o‘qitilib kelgan. Mumtoz shoirlarimiz bu ulug‘ so‘z sanatkoridan o‘rganganlar, ta’sirlanganlar. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Xojaning «Gulzor», Abdulla Avloniyning «Turkiy «Guliston» yoxud axloq» asarlari bevosita Sa‘diy «Guliston»i ta’sirida yaratilgan. «Devoni Foni»da Sa‘diy g‘azaliga 22 ga tatabbu’, uning tavrda 4 ta g‘azal mavjud.

Bu asarni birinchi marta 1390—1391 yillarda XIV asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi «Guliston bitturkiy» nomi bilan Misrda tarjima qilgan<sup>9</sup>.

XIX asrda «Guliston» Xiva xoni Muhammad Rahimxon II — Feruz topshirig‘i bilan zabardast shoir va mohir mugarjim Muhammadrizo Ogahiy

---

<sup>9</sup> Bunyod Nasirov. “Catering In Uzbekistan From The History Of The System”. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. February 26, 2021 | Pages: 11-15.

tomonidan ikkinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. «Guliston»ning uchinchi tarjimasi toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li qalamiga mansub bo‘lib, u «Shavqi Guliston» deb atalgan. «Murodxo‘ja madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so‘z va iboratlarini sharhlagan va forsiy originalini ham qo‘shib, «G‘ulomiya» matbaasida nashr ettiradi» (1909).

1968 yili «Guliston»ning to‘rtinchi tarjimasi bosilib chiqdi. Asardagi she‘rlarni G‘afur G‘ulom va Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilovlar o‘zbekchalashtirishgan.

Bir so‘z bilan aytganda Sa‘diyning Guliston asari o‘zining nozik badiiy vazni va mazmuniy qiymati bilan alohida vaznga egadir. Uni o‘rganish va tahlil qilish borasidagi urinishlar borasida yuqorida fikr yuritib o‘tdik. Shu narsa ayonki, asarning tarjima ishlari muvaffaqiyatli amalga oshgan bo‘lib asl mohiyat va talqin borasida anchagina badiiy va ilmiy yutuqlarga erishilgan. Albatta asarni tushunish uchun fors va arab tillaridan ham boxabar bo‘lish talab qilinadi. Chunki arab tili tasiri va leksik zaxirasi ushbu asarning yaratilishida muhim rol o‘ynagan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Sa‘diy Sheroziyning hikmatlari haqida ma‘lumot bering.
2. Sheroziyning “Guliston” hamda “Bo‘ston” asarlari haqida taqdimot tayyorlang.
3. She‘roziyning asarlari haqida taqdimot tayyorlang.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xayrullayev M.M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: O‘zbekiston, 1971. - 310 b.
2. K. B. Murotmusaev, M.Z. Dzhelyalov, M.J. Boltaeva. Psychological Aspects Of Human Health And The Power Of Love. The American Journal of Applied sciences. February 25, 2021 p 73-77.
3. Hayitmetova A. “Bo‘ston” va o‘zbek adabiyoti // Shayx Sa‘diy va o‘zbek adabiyoti. – Tehron-Toshkent, 2004. 42-b.
4. Bunyod Nasirov. “Catering In Uzbekistan From The History Of The System”. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. February 26, 2021 | Pages: 11-15.
5. Shayx Sa‘diy Sheroziy. Guliston. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 1993. – 247 b.

### **9-MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR**

#### **Reja:**

1. Sinfдан tashqari o‘qish darslarini olib borishda o‘qituvchi va o‘quvchining vazifalari.

2. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish darslarini bog'liqligi.
3. Bolalar yozuvchilari bilan tanishtirish ular bilan uchrashuvlar o'tkazish. O'tilgan asarlarni sahnalashtirish.
4. Xulosa.

***Tayanich so'z va iboralar:*** mutolaa, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, kitob, kitobxonlik, mustaqil o'qish, sinfdan tashqari o'qish.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi-kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir.

Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi:

1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinfdan tashqari o'qish va qiroatxonlik saboqlari 1-sinfda haftada 1 marta saboq o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatlari, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. Ona – Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi.

3-va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlangan, ularning ma'naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishni, nutqni o'stirish, adabiy – estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bolalar kitobxonligi avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, ertaliklari, orzu istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega.

Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari barcha orzu istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodda o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni o'qishga tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi. O'quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlarim bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desagina o'z xalqini munosib farzandi bo'la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir. “Uch og'ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Egri va to'g'ri” kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi kerakligini, bironing boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar.

“Ur to'qmoq” ertagining bola xarakterining shakllanishida alohida o'rni bor: ertak yaxshiga-yaxshi, yomonga yomon bo'lish kerak degan muhim qoidani o'rtaga tashlaydi. Haqiqatan ham xalqning “Qayna xumcha”, “Ochil dasturxon”larini zo'ravonlik bilan tortib oladigan shaxslarga nisbatan “Ur to'qmoq”larni ishlatish zarurligini uqtiradi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'ituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir nechta kitob bilan tanishsalar, so'ngrabolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o'qishga o'tadilar. Bunda asosan o'qituvchi o'quvchilarni maktab kutubxonasiga, 3-4 sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boradi. Shuningdek bolalar gazeta va jurnallari ham o'quvchilarga ertak, hikoyalar o'qishga yordam beradi.

Sinfdan tashqari o'qish, o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usuli. Demak maktab kutubxonasi, bolalar gazeta va jurnallari bilan hamkorlik qilishdir.

Sinfda va sinfdan tashqari o'qish boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha predmet dasturlarining bolimlari bilan bevosita bog'liq. O'z navbatida grammatika va to'g'ri yozuv, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, musiqani o'rganishda olingan bilim va hosil qilingan ko'nikmalar o'qish darslaridan o'qish darslarida foydalaniladi. O'qish darslarida o'tilgan mavzular asosida badiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o'quvchini ijod qilishga undaydi.

Har bir sinfda sinfdan tashqari o'qilgan barcha asrlar o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama yo'naltiradi, ya'ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar ifodali, obrazli, shuningdek qahramonlar harakatini to'g'ri bajarishlari, o'qishlari o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borishi lozim. Q.Muhammadiy, P.Mo'min, Z.Diyor, A.Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishi shart. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va ahloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok

etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardan oq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi albatta xalq og'zaki ijodini yaqindan o'qishi lozim. Ertaklar- yaxshilikka yetaklar deganlariday o'quvchi ettaklar bilan tanishar ekan mard, jasur vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan, topog'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi.

Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizni bilgan holda aqlan yetuk, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash biz murabbiylar, ustozlar zimmasidadir. Shunday ekan mashaqqatli ammo sharaflil kasbimizni sidqidildan bajarishda izlanuvchan ijodkor bo'lishimiz zarurdir. Chunki yurtboshimiz aytganlaridek "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart".

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Sinf dan tashqari o'qish darslarini olib borishda o'qituvchi va o'quvchining vazifalari nimalardan iborat ekanligini sanab bering.
2. Sinf da va sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish bo'yicha fikrlaringizni daftaringizga qoralang.
3. Sinf dan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasini olib borish bolalar kitobxonligi darajasini qay darajada oshirishga xizmat qiladi?

### **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar:**

4. Safo Matjon. "Kitob o'qishni bilasizmi?". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1993. 31-bet.
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O'qituvchi 2011.69-bet.
6. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdon,2019.- 64bet.

### **Elektron ta'lim resurslari:**

8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
9. [www.pedagog.Uz](http://www.pedagog.Uz)
10. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
11. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)

## **10-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOB O'QISHGA QIZIQTIRISH YO'LLARI**

### **Reja:**

1. Bolalarni kitobxonlikka qiziqtirish usullari.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirishda xalq og'zaki ijodi namunalari dan foydalanish.



3. “Bolalar kitobxonligi”ning bolalar tarbiyasida tutgan o‘rni.

**Tayanich so‘z va iboralar:** *Kitobxonlik, xalq og‘zaki ijodi, ta’lim-tarbiya, kitob, yosh avlod, ona, ustoz.*

Xalqimizda “Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqshdir”- degan maqol, azal-azaldan mavjud. Shuning uchun, o‘zbek xalqida bolalarning ta’lim-tarbiyasiga katta ahamiyat berishadi. Hattoki, tadqiqotchilarning izlanishlariga ko‘ra, homilador ayol 9 oy mobaynida o‘zida qanday psixo-fiziologik holatlarni o‘tkazsa, uning vujudidagi farzandiga uning har bir holati kuchli ta’sir ko‘rsatar ekan. O‘quvchi- yoshlarga ta’lim-tarbiya berish har doim eng dolzarb masala sanalib kellgan. Jamiyating taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovatiga, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bolaga yoshligidan uning kelajak hayoti uchun foydali

bo‘lgan xalq og‘zaki namunalaridan misollar keltirish, unga turli odob-axloqqa doir hikoya, ertaklar, rivoyatlar aytib o‘tish bolaning kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini

orttirishga anchagina samara beradi.

Bolalarni kitobxonlikka qiziqtirishda onalar muhim o‘rin egallaydi. Bolaning qo‘liga kitob bergan paytda, uni o‘qishga undayotganda, onaning o‘zi ijtimoiy tarmoqlarda kun bo‘yi o‘tirsas, internet sahifalarida behuda vaqtini sarflasa, uning farzandining kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishi qarama-qarshi tomonga boradi. Bola uchun eng yaxshi namuna uning onasi hisoblanadi. Agarda ona farzandiga kitob bersa hamda uni birgalikda mutolaa qilsa, bolada ham kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishi ortadi, ham ona-bola munosabatlari mustahkamlanadi. Bolaning kitobga bo‘lgan qiziqishi kundan kunga ortib boradi. Agarda, bola onasi bilan mutolaa qilgan kitobini sinfdosh-do‘stlari bilan birga o‘qishni boshlasa, buning foydasi yanada kuchliroq bo‘ladi. Ammo kitobxonlikni musobaqa metodi orqali olib borsa, o‘quvchilarda qiziqish anchagina ortadi. Negaki bolalar bellashishni, musobaqalashishni, rag‘batlantirilishni juda yoqtirishadi.

Bolalar oddiy oppoq paxtaga o‘xshaydi. Ushbu paxtani qay shaklda kiritish, qay rangda olib borish uning ustozlariga ko‘pgina hollarda bog‘liq. Ularning yoshligidan murg‘ak qalbiga kitobga bo‘lgan mehrini uyg‘otsak, ular butun umr kitobga tayanib yashashadi.

Yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o‘ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o‘z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Insoniyat boshidan kechirgan turli jamiyatlarda mafkura, g‘oya, siyosiy va ijtimoiy qonun-qoidalar bir-biridan farq qilgan.

Ta'lim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Shu asnoda xilma-xil ta'lim-tarbiya tizimlari tarkib topgan. Yangicha qarashlar, ta'minotlar, nazariya va amaliy tajriba namunalari paydo bo'lgan. Hali insoniyat yozish-o'qishni bilmagan paytlarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish haqidagi qarashlar xalq og'zaki ijodi namunalari aks etgan. Uzoq davrlar tajribada sinalib, sayqallanib borgan. Kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish darajasiga etgan. Yozish-o'qish paydo bo'lgandan keyin ham xalq og'zaki ijodi o'z mavqeini yo'qotmagan, aksincha, yozma adabiyotlar mazmuniga singgan holda ta'sirchanligi yanada ortib borgan.

Boshlang'ich ta'lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko'lamini kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. O'quvchining bilim saviyasi va darajasiga mos holda aqlining o'sib borishini ta'minlaydigan, kundalik turmush amaliyotida foydalanadigan, hayotda sodir bo'lgan voqea va hodisalarning mohiyatini anglatuvchi materiallar o'tiladi. Buning uchun har bir fanning mazmuniga kirgan mavzular mutaxassis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga qaratilganlarini fanda xalq pedagogikasi deb yuritiladi.

Xalq dostonlari, maqollar, matallar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar, afsona va rivoyatlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantiradi, oliyjanob insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi. Bola ular orqali o'z xalqining o'timishini, mehnat faoliyatini, orzu-havas va intilishlarini bilib oladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, ongli va faol o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida tajribada sinalgan, hayotda takror-takror qo'llangan, shubhasiz yaxshi natijalar bergan tushunchalarni aks ettiradi. Bu tushunchalar xalq aql-zakovati va ijodiy mulohazalari bilan sayqallangan, yuksak badiiy qiymat kasb etadigan darajaga yetkaziladi.

Bola kamolotining turli davrlariga mos keladigan, ta'limning har bir bosqichida o'rganilishi mumkin bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri tanlash, xilma-xil metod va usullardan, vosita va shakllardan foydalangan holda

o'rgatish o'qitishning samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy tarbiya berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, ta'lim va tarbiyaning mazmuniga o'zgartirishlar kiritilayotgan sharoitda bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda hech narsani e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bola tarbiyasida "kichik", "arzimas", "mayda-chuyda", degan narsalar bo'lmasligi kerak. Negaki ana shunday arzimas narsalardan keyinchalik "ulkan" muammolar kelib chiqishini doim esda saqlash zarur. Maktabdan tashqarida, bola televizor va kompyuterdan charchaganida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanilsa ham aqliy, ham axloqiy, ham sihat-salomatlik uchun ulkan hissa qo'shish mumkin ekanligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, bola tarbiyasida ota-ona va boshlang'ich sinf o'qituvchining birgalikda hamfikir bo'lib ishlashi, kelajak avlodning yuqori darajada bilim, ta'lim-tarbiya olishishiga katta hissa qo'shadi.

Shuning uchun, o'sib kelayotgan kelajak avlodning hayotini barbod qilmasdan, ya'ni bolam jim o'tirsa bo'lgani deb, kun bo'yi qo'lga uyali aloqa vositalarini berib, unga mehirsizlik, e'tiborsizlik qilmasdan, ularga mehr ulashishimiz, bolalar qo'lga va diliga kitob berish, ularni o'tmish tarixi bilan tanishtirish, xalq og'zaki namunalari haqida ma'lumot berib, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini orttirish uchun qattiq hamda birgalikda bel bog'lash kerak.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. "Yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqshdir" mavzusi ustida bahs olib boring.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini yana qanday usullar bilan oshirish mumkin?
3. "Bolalar kitobxonligi"ning bolalar tarbiyasida tutgan o'rni nimalardan iborat bo'lishi mumkin deb hisoblaysiz?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mansurovich, PHYSICAL EDUCATION LESSONS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 2(4), 107-1111.
2. Рустамов, Ш. Ш. (2022). Психологические особенности изучения математической компетентности Education, 3(4), 1746-1752.
3. Safo Matjon. "Kitob o'qishni bilasizmi?". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1993. 31-bet.
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O'qituvchi 2011.69-bet.
5. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdon,2019.- 64bet.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR.

### 1-MAVZU:“BOLALAR KITOBXONLIGI” FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

#### Reja:

1.Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi faniga kirish.

2.Kitobxonlik tushunchasi haqida ma’lumot.

3.Kitobxonlik madaniyati. Bolalar kitobxonligining o‘ziga xos xususiyatlari.

*Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad: “Bolalar kitobxonligi” fanining maqsad va vazifalarini talabalarga tanishtirishdan iborat.*

Bolalar adabiyotining ana shu xususiyati yozuvchi oldiga o‘z o‘quvchisining yosh xususiyatlarini, ruhiyatini, saviyasini va qiziqishlarini nazarda tutgan holda ijod etish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Bu esa, o‘z navbatida, balalarga atab yoziladigan asarlarning qaysi yoshdagi bolaga mo‘ljallanganligini – adresliligini aniq belgilab olishni taqozo etadi. Yozuvchi o‘z asarini kimga qaratib yozayotganini oldindan bilishi kerak,-deb yozgan edi M.Gorkiy,shunday qilinmagan taqdirda uning kitobi o‘quvchisiz qoladi. Bolalar yozuvchilari o‘quvchilarning yoshiga katta e‘tibor berishlari lozim. Agarda shunday qilinmaganda, u kitob «adressiz» bo‘lib, kattalarga ham, bolalarga ham keraksiz bo‘lib qoladi.» Bu talabni bajarishda pedagogika va ruhshunoslik fanlari bolalar yozuvchilari uchun jiddiy dastur bo‘la oladi, chunki bu fanlar bolalar va ularning ruhiy olami, tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Shu mantiqqa muvofiq bolalarni yosh xususiyatlariga ko‘ra uch guruhga bo‘lish an’anaga aylanganki, bu ularga mo‘ljallab badiiy asarlar yozishda ham rost keladi:


Guruhni ikkiga ajratib, har bir guruh nomlanadi.Va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

<b>1-topshiriq:</b> Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mavzusi bo‘yicha taqdimot tayyorlang.
---

<b>2-topshiriq:</b> Kitobxonlik musobaqasini tashkil qilish.
--

**3-topshiriq:** Kitobxonlik musobaqasini tashkil qilish.

**4-topshiriq:** quyida “T-jadval” grafik organayzeri berilgan bo‘lib, ushbu jadvalning birinchi ustuniga bolalar kitobxonligining muammolari hamda ikkinchi ustunga esa bolalar kitobxonligining vazifalari yozishingiz lozim bo‘ladi.



**5-topshiriq:** Quyida chizmada ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini daftaringziga yozing.



## 2-MAVZU: BOLALAR KITOBXONLIGI TARIXI

**Reja:**

1. Savollarga javob berish orqali mavzuni tushunib olish.
2. Mavzu bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarib borish.

*Quyidagi savollarga javob bering.*

### SAVOLLAR:

1. Navoiy ulkan madaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san‘at va adabiyotning ahamiyatini qanday targ‘ib qilgan hamda uqtirgan?
2. Shoir qaysi ijobiy obrazlarida bolaning voyaga yetishida tarbiyaning alohida kuch-qudratga ega ekanligini uqtirgan? Fikringizni izohlang.

3. Gulxaniy yashagan muhit qanday edi? Javobingizni izohlang.
4. Gulxaniy faoliyatidagi eng muhim fazilat haqidagi fikringiz qanday?
5. «Zarbulmasal»da boyqushning makoni qanday tasvirlangan?
6. Gulxaniy mazkur asarni nima uchun yozdi deb o\_ylaysiz? Fikringizni izohlang.
7. Navoiy davridagi muammolarini tahlil qiling.

Ushbu suratda tasvirlangan adiblar haqida ma'ruza matni yoki taqdimot tayyorlang. Ushbu insonlarning bolalar kitobxonligiga qanday xizmat qilganligini asarlari orqali izohlashga harakat qiling.



### 3-MAVZU: XALQ OG‘ZAKI IJODI VA BOLALAR KITOBXONLIGI

#### Reja:

1. Xalq og‘zaki ijodi eng rivojlangan janrlaridan biri.
2. Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar.
3. Bolalar kitobxonligi.

Quyidagi test savollariga javoblarni belgilang.

1. O`zbek bolalar kitobxonligining fan sifatida takomillashuvi va unga doir darsliklarning chop qilinishi to`g`ri qayd etilgan javobni aniqlang? a) XX

asrning o`rtalari, 1953, 1967,1973, 1976,1978, 1981,1989;

b) XX asr boshlari.1905,1910,1937,1953,1981,1989;

d) XIX asr oxiri.1889,1898,1900,1913,1917.

e) to`g`ri javob yo`q.

2.O`zbek bolalar adabiyotining paydo bo`lish omillari qaysi javobdabosqichma-bosqich to`g`ri ifodalangan?

a) folklor, jahon adabiyoti, rus adabiyoti, mumtoz adabiyot,jadid adabiyoti,mustaqillik davri adabiyoti;

b) ijtimoiy voqelik, xalq og`zaki badiiy ijodi, o`zbekmumtoz adabiyoti, yangi realistik o`zbek adabiyoti, jahon varus xalqlari bolalar adabiyotini o`rganish va o`zlashtirish, ilk maktab darsliklari;

d) yozma yodgorliklar, xalq og`zaki ijodi, sho`ro davri mafkurasi, mustaqillik davri adabiyoti; e) barcha javoblar to`g`ri.

**3. Bolalar kitobxonligi haqidagi tushuncha qaysi javobda batafsilroq qaydetilgan?**

a) umuman, kitob o`qish hodisasi, kattalar didi, hayotiy tajribasi dunyoqarashiga mos holda yaratilib, bolalarning ham o`qish doirasida amal qilgan hammmabop badiiy - ilmiy hamda professional bolalar adabiyoti;

b) bolalarning o`zlari tomonidan ijod etilgan adabiyot namunalari;

d) kattalar uchunгина adabiyot namunalari;

e) faqat bolalarga ixtisoslashgan, ulargagina mo`ljallangan adabiyot namunalari.

**4. Bolalar kitobxonligi va adabiyot orasidagi tafovut qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

a) bolalar kitobxonligi og`zaki, adabiyoti esa yozma shaklda bo`lishi;

b) bolalar kitobxonligi kattalarga, adabiyoti bolalargagina mo`ljallanganligi;

d) bolalar kitobxonligida didaktikaning ustivorligi, adabiyotida esa uning ko`zga tashlanmasligi;

e) bolalar kitobxonligi ijtimoiy-estetik hodisa sanalib unda mantiqiy tafakkurning ustivorligi, bolalar adabiyotida esa obrazli badiiy tafakkur amal qilib, adabiy-estetik hodisa hisoblanishi.

**4. Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi yagona vosita qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?** a) yozuv; b) so`z; d) til; e) tovushlar.

**5. Bolalar adabiyoti fanining obyektini qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

a) bolalar uchun yozilgan yuksak badiiy ijod namunalari va

adiblar ijodi; b) maktab darsliklari;

d) bolalar matbuoti;

e) kichikintoylar psixologiyasi.

**7. "Bolalar folklori bu-.." Qaysi javobdagi mulohaza o`rinli?**

a) kattalarning bolalar uchun ijod etgan og`zaki adabiyotlari;

b) kichikintoylar olami bilan kattalar dunyosining o`zaro uyg`unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o`yinlar, qo`shiqlar, musiqiy poetik janrlar tizimidan iborat xalq og`zaki ijodining tarmog`i. d) bolalarning o`zlari tomonidagina ijro etiladigan turli qo`shiqlar;

e) mavsumiy-marosim qo`shiqlari.

**8. O`zbek bolalar folklorini to`plash, tartib berish qachon va kim tomonidanamalga oshirilgan hamda u qanday nomlanadi?**

- a) 1965-yil, Sh.Sa`dulla, “Yoriltosh”;
- b) 1937-yil, Elbek, “Bolalar qo`shig`i”;
- d) 1984-yil, O.Safarov, “Boychechak”;
- e) 1975-yil, G`.Jahongirov, “O`zbek bolalar folklori”.

**9. “Alla” istilohining lug`aviy ma`nolari qaysi variantda yorqinroq aks etgan vaxalq qo`shiqlarining qaysi turkumiga mansub?**

- a) “Olloh”, “aldamoq”, “ensa” ma`nolarini bildiradi, erkalash poeziyasining beshik qo`shiqlari turkumiga kiradi;
- b) “uxlamoq”, “tinchlanmoq”, “jim bo`lmoq” ma`nolarini bildiradi, go`dak qo`shiqlari turkumiga kiradi;
- d) “yig`lamoq”, “kuylamoq”, “orom olmoq” ma`nolarini bildiradi, bolalik turkumidagi qo`shiq hisoblanadi;
- e) barcha javoblar noto`g`ri.

**10. Allaning ijro etilishi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

- a) xor jo`rligida ijro etiladi, mungli ohang;
- b) ifodali aytiladi, quvnoq ohang;
- d) alla faqat kuylanadi, monoton ohang;
- e) barcha javoblar to`g`ri.

**5. Go`dak uchun allaning nimasi muhim?**

- a) kuyi; b) so`zi; d) tovushi; e) hech biri.

**11. Allaning kompozitsion butunligini ta`minlovchi unsurlar qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**

- a) matni; b) kuyi; d) ohangi; v) so`z, ohang va harakat birligi.

**12. Tez aytishlar O`zbekistonning turli joylarida qanday yuritiladi va undan kuzatilgan asosiy maqsad nima?**

- a) “chalg`itma”, “adashish” shakllari uchraydi, maqsad: bir nafasda shiddat bilan ayta olish;
- b) “chalish”, “adashtirish” deb yuritiladi, maqsad: alliteratsion so`zlarni aytish;
- d) “total”, “chalish”, “adashish”, “chalg`ituv” deb yuritiladi, maqsad: tez aytishda chalg`ish, tutilish;
- e) to`g`ri javob yo`q.



**13. Tez aytishlarning yuzaga kelishi va janriy xususiyati qaysi javobda mufassalroq aks etgan?**

- a) nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri;
- b) o`xshash tovushli so`zlar yoki so`z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi;
- d) u yoki butovush yo so`z talaffuzida chalg`ish natijasida voqe bo`luvchi ma`no o`zgarishi; e) a,b,d javoblar.

**14. Topishmoqlarning paydo bo`lish davri va yetakchi manbalari qaysi javobda o`z aksini topgan?**

- a) antik davr, xalqning turmush tarzi;
- b) qadimiy ajdodlarimizning animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan zamonlar, ajdodlarning tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari, xalq ertaklari;
- d) o`rta asrlar, yozma adabiyotning takomillashuvi, xalq durdonalariga murojaat;
- e) XX asr boshlari, xalq og`zaki ijodini to`plash va o`rganish.

**15. Topishmoqlarning tabiatiga xos xususiyat qaysi javobda to`g`ri ifodalangan?**

- a) hayvonot va nabotot dunyosi, tabiat hodisalarigaoid aniq va ko`z bilan ko`rish mumkin bo`lgan narsalarni ko`proq jumboqlashtiradi;
- b) yashiringan narsaning asosiy xususiyatlarini, eng muhim etakchi belgilarini xoh ko`chma ma`noda, xoh o`z ma`nosida bo`lsin- aniq va ravshan izohlab beradi;
- d) Har qanday topishmoq jumboq va javob qismlariningbir butunligidan iboratdir; e) barcha javoblar to`g`ri.

**16.**

<b>Beli, beli belang ot, Beli qalin yo`g`on ot, Tog`u toshdan yumalab, Tura kelar to`rig` ot</b>	<b>Tuzsiz pishgan oshni ko`rdim, Yumalab yotgan toshni ko`rdim</b>	<b>Tog`da talaymonni ko`rdim, Suvda sulaymonni ko`rdim, .</b>
--	--	---

Keltirilgan ikkala topishmoqda yashiringan predmet hamda ularning o`zaro tafovutlanuvchi xususiyati qaysi variantda to`g`ri aks etgan?

- a) birinchisida-egarli ot, ikkinchisida- bo`ri, baliq, sumalak,toshbaqa; o`zaro tafovuti qofiyalanishida;

b) birinchisida-ot, ikkinchisida- bo`ri, baliq, holvaytar, toshbaqa; birinchi 15 so`zli, ikkinchisi 12 so`zli;

d) birinchi- toshbaqa, ikkinchi- bo`ri, baliq, sumalak, toshbaqa; birinchi topishmoq bir predmetli, ikkinchi ko`p predmetli; e) to`g`rijavob yo`q.

**17. Topishmoqlarning yozma badiiy adabiyotga ta`sirini mumtoz she`riyatdagi qanday janrlar bilan asoslash mumkin?**

a) lug`z, chiston, muammo, ta`rix muvashshah;

b) chiston, masal, zarbulmasal, aforizm, lug`z, tuyuq;

d) ruboiy, tuyuq, qit`a, fard, chiston, lug`z, maqol, chandish;

e) u faqat xalq og`zaki ijodidagina mavjud.

**18. O`zbek bolalar she`riyatida adabiy topishmoq janri qaysi adiblar ijodida ko`proq uchraydi ?**

a) Navoiy, Uvaysiy, Q. Muhammadiy, Sh. Sa`dulla, G`.G`ulom;

b) P. Mo`min, S. Barnoyev, S. Ahmad, A. Obidjon, T. Adashboyev;

d) A. Avloniy, Q. Hikmat, X. To`xtaboyev, R. Tolib;

e) Sh. Sa`dulla, I. Muslim, A. Rahmat, P. Mo`min, S. Barnoyev, Q. Muhammadiy.

**19. Maqollar el orasida yana qanday atamalar bilan aytilishi qaysi variantda to`g`ri ko`rsatilgan?**

a) masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda;

b) maqol, hikmatli so`z, tanbeh, mashoyixlar so`zi;

d) donolar yoki donishmandlar so`zi, oqinlar so`zi, otalar so`zi;

e) a, b, d javoblar.

**20. Maqolning qaysi so`zdan olinib, qanaqa ma`no anglatishi va qanday hodisaligi to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang?**

a) fors-tojikcha “matal” so`zidan olingan, “so`z” ma`nosini anglatadi, umumadabiy hodisa;

b) arabcha “qavvola” so`zidan olingan, “aytmoq, so`zlamok” ma`nolarini bildiradi, umumfolklor hodisasi;

d) o`zbekcha “hikmat” so`zidan olingan, dono fikr ma`nosiga ega, donishmandlikka xos hodisa; e) a, b, d javoblar.

**21. Ertaklarning paydo bo`lish an`anasi va shakllanish jarayoni qaysi variantda o`z aksini topgan?**

- a) u ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan;
- b) ertaklar soʻzga sigʻinish, ilohiy kuchlarga sigʻinish, animistik, totemistik, fetishistik eʼtiqodlar, gallyutsinatsiya va tush taʼsiridafantastik vositalarga toʻlisha borgan;
- d) insonlarning hayvonlarni ovlashlari, xonakilashtirishlari, mahsulotlari va kuchidan foydalanishlari oqibatida hayvonlar haqidagi ertaklar, nihoyat, feodal munosabatlar tarkib topib, ijtimoiy jarayon takomillasha borgachhayotiy-maishiy ertaklar ham paydo boʻlgan; e) barcha javoblar toʻgʻri;

**22. Ertaklarni ijro etish tartibi haqidagi mulohaza qaysi variantda toʻgʻri?**

- a) ertaklar professional ijrochilikka asoslangan;
- b) oʻtmishda ertaklar yilning maʼlum davrida belgilangan paytda, ijrochilik salohiyatiga ega boʻlgan yoshi ulugʻ, dono, hurmatli va eʼtiborli kishilar tomonidan aytilgan;
- d) ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi; ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda-kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan;
- e) barcha javoblar toʻgʻri.

**23. Sayyor sujetli ertaklarga xos xususiyatlar qaysi javobda oʻz aksini topgan?**

- a) shomdan boshlanuvchi qorongʻulik tonggacha hukmron boʻlganligidan ertaklar olamiga xos sirlilik;
- b) ertaklar koʻpincha mazmunan oʻzaro oʻxshasalar-da, biroq milliy ruh, milliy urf-odat, milliy dunyoqarash, milliy tilga xosifodaviy vositalarva geografik muhit tasviriga koʻra farqlanuvchimustaqil adabiy- ogʻzakihodisa;
- d) ertaklarning ayrimqismlari bevosita dramatik harakat yordamida , baʼzan deklamatsion shaklda ijro qilinishi; e) a,b,d javoblar.

**24. Oʻzbek xalq ertaklari ifodalayotgan voqeligining sajiyasi, gʻoyaviy mazmuni, obrazlar talqini, badiiy tili, uslubi va boshqa xususiyatlariga koʻra necha turga boʻlinadi ? Ular qaysilar?**

- a) 5 turga: sehrli, novellistik, kumulyativ, hayvonlar haqida, hayotiy ertaklar;
- b) 2 turga: fantastik va realistik;
- d) 3 turga: hayvonlar haqidagi, odamlar haqidagi, hayotiy ertaklar;

e)3 turga: sehrli-fantastik, hayvonlar haqidagi, maishiy- hayotiy ertaklar.

**25. Tez aytishlar O`zbekistonning turli joylarida qanday yuritiladi va undan kuzatilgan asosiy maqsad nima?**

- a) “chalg`itma”, “adashish” shakllari uchraydi, maqsad: bir nafasda shiddat bilan ayta olish;
- b) “chalish”, “adashtirish” deb yuritiladi, maqsad: alliteratsion so`zlarni aytish;
- d) “tatal”, “chalish”, “adashish”, “chalg`ituv” deb yuritiladi, maqsad: tez aytishda chalg`ish, tutilish;
- v) to`g`ri javob yo`q.

**26. Tez aytishlarning yuzaga kelishi va janriy xususiyati qaysi javobda mufassalroq aks etgan?**

- a) nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri;
- b) o`xshash tovushli so`zlar yoki so`z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi;
- d) u yoki bu tovush yo so`z talaffuzida chalg`ish natijasida voqe bo`luvchi ma`no o`zgarishi; v) A,V,D javoblar.

**27. “Bir tup tut” tez aytishi qaysi unli va undosh tovushlar alliteratsiyasiga asoslangan, necha so`zdan iborat hamda u qaysi yoshdagi bolalar repertuariga xos?**

- a) “T” portlovchi, “R” undoshlari va “U” unlisi alliteratsiyasiga asoslangan. 27 so`zdan iborat, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar repertuariga xos;
- b) “P” portlovchi undoshiga asoslangan, 28 so`zdan iborat, kichik maktab yoshidagi bolalar repertuariga xos;
- d) “T” va “P” portlovchi undoshlari hamda “U” unlisi alliteratsiyasiga asoslangan, 28 so`zdan iborat, o`rta va katta yoshdagi bolalar repertuariga xos;
- v) to`g`ri javob yo`q.

**28. Qishda kishmish  
pishmash, Pishsa kishmish  
qishmash.**

**-Bu tez aytishdagi muddao husni, tovush alliteratsiyasi hamda qanaqa ma`lumot tashiyotganligi qaysi javobda to`g`ri ifodalangan?**

- a) “kishmish”, “sh” undoshi, qish fasli;
- b) “pishmoq”, “m” undoshi, pishmaslik haqida ma`lumot;
- d) “qish”, “sh” undoshi, kishmish haqida ma`lumot;

v) “q”, “sh”, “m” undoshlari alliteratsiyasiga bag`ishlangan

#### **4-MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR**

##### **Reja:**

- 1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni.**
- 2. Boshlangich sinf o‘quvchilarida kitobga muhabbat uyg‘otish bo‘yicha olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari.**

Inson tafakkurining o‘shishi, bilim doirasining kengayishi, olam va voqealar haqidagi tasavvurlarining oshishi, insonning tinmay mutolaa qilishiga, o‘z ustida tinmay izlanishiga bog‘liq. Kitobxonlik madaniyatini yoshlikdan shakllantirib boorish lozim. Kitobning inson hayotidagi o‘rni beqiyosdir. Yoshlikdan bolada kitobga mehr tuyg‘usini uyg‘otish , bolaning ma‘naviy oziqlanishiga, kamol topishiga yordam beradi. Ma‘naviy barkamol, sog‘lom fikrli Bolani kamol toptirishda boshlang‘ich ta‘limning o‘rni kattadir. Bolada kitobga mehr uyg‘otish , avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-ona kitob mutolaa qilsa, farzandda ham asta-sekin kitob mutolaa qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bolaga yoshlikdan qiziqarli ertaklar, hikoyalarni mutolaa qilib berish kerak. Maktabga endigina qadam qo‘ygan bola kitobning qanchalik qimmatbaho boylik ekanligini anglab yetishi zarur. Boshlang‘ich sinflarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o‘qish darslari alohida o‘rin tutadi. Bizning rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ham kitobxonlikka katta e‘tibor qaratilgan.

Kitob, avvalo, hayotiy makyab, ma‘naviyat manbaidir. U yoshlarni hayot bilan tanishtiradi, hayotni sevish, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Kitob o‘qish orqali bolalarning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, mutolaa madaniyati, Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg‘usi tarbiyalanadi. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, samarali ishlar yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, avvalo, xalqning ijtimoiy turmushini yaxshilashga, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini yuksaltirishga, barchaga birdek go'zal va farovon hayotiy muhit yaratishga erishishga qaratildi. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani hamda xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga jiddiy ahamiyat berildi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning quyidagi fikrlarida ham yaqqol aks etgan: "Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb yetadi".

Prezidentning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi F-4789-sonli Farmoyishi bu borada keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga zamin yaratdi. 2017-yil 13-sentyabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi" PQ-3271-sonli qarorning qabul qilinishi va uning doirasida belgilangan vazifalar ham yurtimizda kitob mahsulotlarini chop etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida katta o'zgarishlarga zamin yaratdi. Mamlakatimiz bo'ylab "Yosh kitobxon", "Eng faol kitobxon guruh", "Eng kitobxon oila" tanlovlarining tashkil qilinishi va g'olib kitobxonlar turli darajadagi qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishi, yirik nashriyotlar tomonidan o'zbek xalqi va jahon adabiyotining durdona asarlari qayta tahrirlanib, yanada sifatli nashr etilishi, ijtimoiy-ma'naviy

ko'makka muhtoj fuqaro va oilalarga badiiy-estetik salmoqdor kitoblar, badiiy adabiyotlarning tuhfa qilinishi ushbu qonunlarda belgilangan vazifalar ijrosi bo'lishi bilan bir qatorda aholi, xususan, yosh avlodning mutolaa madaniyatini kamol toptirishga, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini yuksaltirishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qosimova K, Matjonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh „Ona tili o'qitish metodikasi’’-T. Noshir.2009.
2. Ernazarov G'. „Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi’’- Toshkent: „Ilm ziyo’’-2013.
3. “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi F-4789-sonli Farmoyishi.

#### **5-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA**

#### **KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI**

#### **Reja:**

1. **O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati**
2. **Yurtimizda kitobxonlikni keng targib qilish, yosh avlodni kitob mutoalasiga qiziqtirish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar**
3. **O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati.**

**1-topshiriq. “Kitobxonlik – davr talabi” mavzusida esse tayyorlang.**

**2-topshiriq. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini qanday yo'llar bilan rivojlantirishimiz mumkin?**

**3-topshiriq. Ma'naviyatimizning shakllanishida kitobning o'rni qanday ahamiyatga ega. Bu bo'yicha ma'ruza matni tayyorlang.**

**4-topshiriq. Yoshlarda kitobga bo'lgan muhabbatni qanday uyg'otish mumkin? Shu bo'yicha bahs-munozara tashkil qiling.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi. T. "O'qituvchi". 2012.
2. Masharipova U. "Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash". // Boshlang'ich ta'lim, 2010, №4.
3. Nishonov S. « Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2010 y. 1-son, 12, 16-b.
4. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi» 2000 y. №3.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
6. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков // Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.

**6-MAVZU: BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA  
KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH  
BOSQICHLARI**

**Reja:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bosqichlari.

**Quyidagi savollarga tezkorlik bilan javob bering.**

1. **Mutolaa so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?**
2. **Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikka bo'lgan munosabatni oshirishda qanday ishlarni amalga oshirish kerak? O'z fikringizni yozma tarzda ifodalab bering.**
3. **Qanday turdagi kitoblarni bolalar uchun tanlash lozim?**



4. **Kitob tanlashda bolaning ma'naviy dunyoqarashini hisobga olish qanchalik to'g'ri?**
5. **Kitobxon o'quvchini tayyorlashda oilaning o'rni qanday?**
6. **Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida yurtboshimiz tomonidan qanday ishlar amalga oshirilmoqda?**
7. **“Kitobxonlik madaniyati” mavzusida esse yozing.**

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Matchon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi. T. “ O'qituvchi “.2012.
2. Masharipova U. “Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash”. // Boshlang'ich ta'lim,2010, №4.
3. Nishonov S. « Ta'lim tizimida barkamol shaxs tarbiyasi». J.: Xalq ta'limi, 2010 y.1-son, 12,16-b.
4. Tolipov O'. O'quvchilarni mustaqil ishlashda o'qitish vositalari. T., « Xalq ta'limi» 2000 y. №3.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов//Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83).
6. Гулбоев А. Т. Гончарное искусство узбеков //Инновационная деятельность в дошкольном образовании. – 2016. – С. 374-376.

#### **7-MAVZU:MUMTOZ BOLALAR KITOBXONLIGI VA UNING KO'RINISHLARI**

##### **Reja:**

1. Mutafakkirlarning kitobxonlik madaniyati haqidagi qarashlari.
2. Mumtoz bolalar kitobxonligi.
3. Kitobxonlikning asosiy ko'rinishlari.

Sh.Sa`dulla xalq ertaklarini kompozitsion soddaligiga, xalqchilligiga, g'oyaviy yo`nalishiga putur yetkazmay, zamon talablari doirasida axloqiy-tarbiyaviy qimmatga molik bo`lishiga diqqat qildi. Natijada ertaklar turli yoshdagi kichkintoylar uchun "hayot darsligi" vazifasini o`tay boshladi. Bu jihatdan adibning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun hayvonlar haqidagi ertaklarni qayta ishlashdagi xizmatlari e`tiborga arzigulikdir. Zero, u bu yoshdagi bolalarning diqqati beqarorroq bo`lishi, uzoq muddat davomida tinglash ularni tez

charchatishini hisobga olib, hajmi katta ertaklarning ba`zilarini birmuncha qisqartirdi, ba`zilarini esa bir necha mustaqil ertakchalarga bo`lgan holda kichkintoylarga taqdim etdi.

"Bo`ri bilan tulki" ertagi, jumladan, xarakterlidir. Xalqimizda mashhur bu qadimiy ertak hajm jihatidan anchagina katta. Unda bo`rining yovuzligi va go`lligi, tulkining ayyorligi va olg`irligi zamirida o`tmishda zo`ravonlarning zolimligi fosh qilinsa, qo`zichoq, xo`roz, ot va qo`shchi chol obrazlari misolida mehnatkash xalqning ma`naviy go`zalligi va pokligi, aqlliligi va tadbirkorligi, samimiyliги va qasoskorligi realistik tarzda ifodalanadi. Ertak xotimasida Bo`rining o`lishi - zolimlik dunyosining chirishi, qulashiga timsol bo`lib, xalq optimizmining hayotbaxsh qudratini yorqin ko`rsatadi.

Sh.Sa`dulla bog`cha yoshidagi bolalarning katta hajmli bunday ertaklarni idrok qila olmasliklarni payqab, uning negizida bir-biridan mustaqil bo`lgan ikkita ertak yaratadi.

Ertakchalarning birinchisi " Och bo`ri" deb nomlangan.

U bo`rining qo`zichoq, cho`pon va qirchang`i bilan munosabatlari epizodlarini o`z ichiga oladi. Ertak go`lligi tufayli otdan qattiq tepki yegan bo`rining o`limi bilan xotimalanadi. Bunday yakun ertakning kompozitsion yaxlitligini ta`minlagan. Qizig`i shundaki, Sh. Sa`dulla keyinchalik xuddi shu ertak asosida, aynan shu epizodlarni o`z ichiga olgan "Och bo`ri, sho`x qo`zi va qirchang`i" she`riy ertagini ham yaratdi.

"Chol bilan bo`ri" - ertaklarning ikkinchisidir. Bu asarga endi soddadillikda xalq ertagidagi qo`shchidan qolishmaydigan qop ko`targan chol va bo`ri munosabatlari epizodi asos qilib olingan. Chol o`z rahmdilligi va soddaligi tufayli bo`rining "qopqoniga" tushadi. Ertakni tinglayotgan kichkintoy cholga achinadi, unga rahmi keladi. Bu esa unda insonga muhabbat tuyg`usini tarbiyalaydi. Ammo ayyor tulkining tadbirkorligi bilan bo`ri tajovuzidan qutulgan cholni ko`rib - quvonadi kichkintoy.

Guruhni ikkiga ajratib, har bir guruh nomlanadi.Va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

**1-topshiriq:** Eski maktablarda o‘qish va o‘qitish usullari mavzusi bo‘yicha taqdimot tayyorlang.

**2-topshiriq:** Kitobxonlik va she‘rxonlik musobaqasini tashkil qilish.

**3-topshiriq:** 3-sinf o‘qish darsligini tahlil qilish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy - uslubiyizlanishlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPI 2009, 303 b.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O‘qituvchi 2011.291-bet.
3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdon,2019.172bet.

#### **Elektron ta’lim resurslari:**

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz
4. www. edu. Uz

### **BOLALAR ADABIYOTI VA BOLALAR FOLKLORINING MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI BILAN BOG‘LIQLIGI**

#### **Reja:**

1. **Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining bir-biri bilan bog‘liqligi.**
2. **Berilgan savollarga javob berish.**
3. **Komil insonning shakllanishida Alisher Navoiyning o‘rni mavzusida bahsga tayyorgarlik ko‘rish.**

1-topshiriq. Quyidagi savollarga tezkorlik bilan javob bering.

1. «Qoradir garchi izi nuri haqiqatdir o'zi» deya qadrlanuvchi vositaning nomini hamda uning ijodkorini toping.
2. Kimning «Olmaxon» ertak-dostonida Sobir ismli bolakayning o'jarligi, qo'pol-qo'rsligi, olmaxonga nisbatan noo'rin xatti-harakati tanqid qilinadi?
3. «Cho'lpon» spektakli muallifi kim?
4. Boborahim Mashrab haqida «Ruhi ravonim», Qamchiq devoni to'g'risida «Devon» kabi dostonlar ijodkori kim?

5. To'rg'ay yotar tuxum bosib, Sug'ur archa ostida  
 Shuvoq bilan sirlashib. Turar tasbeh o'chirib.  
 Qora qo'ng'iz soqqa yasab, Chigirtkalar qamishdan  
 Do'ngga tortar tirmashib. Nay yasaydi — kertadi.  
 Yumronqoziq serhadik Ko'kandagi biyaga  
 Ish bitirar yugurib. So'na dutor chertadi... Ushbu satrlar muallifi kim?
6. «Shohboz va bulbul», «Gul va Daf», «Nay va Shamshod», «Kosai Chin Nargis», «Binafsha va Chang» kabi asarlar qaysi janrda yozilgan?
7. («Yengil adabiyot», «Axloq hikoyalari», «Qiroat kitobi» kabi asarlar muallifi kim?
8. «Men yahudiyman», «Sen yetim emassan» she'rlari muallifini toping.
9. *Siz atagan har bir joy*

*Bitta bo'ston bo'ladi,*

*Hammasini qo'shsangiz,*

*O'zbekiston bo'ladi. Ushbu satrlar muallifi kim?*

Buyuk gumanist bolalarga kelajak sohiblari sifatida qaradi, shunga ko'ra ularning tarbiyasiga alohida e'tibor berish zarurligini uqtirarkan, bu sohadagi axloqiy qarashlarini "Xamsa" dostonlarida, xususan, dastlabki uch dostoni- "Hayratul-abror" ("Yaxshilarning hayrati"), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" da, shuningdek, "Lison-ut-tayr" ("Kush tili"), "Mahbub ulqulub" ("Qalb sevgilisi") hamda "Arbain hadis" ("Qirq hadis") kabi asarlarida olg'a surdi. Bu asarlar bolalar navoiyxonligida ayricha mavqe hosil qilib keldi.

Alisher Navoiy komil insonning shakllanishi bolalikdan boshlanajagini nazarda tutib, Farhod va Majnunlarning bola sifatida ulg'ayish jarayonlarini ko'rsatishga alohida e'tibor berdi. Farhod tirnoqqa zor Chin mulkining shohi xonadonida tug'iladi, bu orziqib kutilgan xurramligu ushalgan armonning nishonasi edi. Shu sababli shoir murg'akkina chaqaloqni tubandagicha tanishtiradi:

Ko'zida ashk selidan asarlar, Damida oh dudidin xabarlar. Muhabbat nuri olinda huvaydo, Jamolida vafo tug'rosi paydo. Falak deb dard elining shohi oni, Malak deb dard o'ti ogohi oni.

Bu chizgilarda chaqaloqning kelajagiga daxldor bashorat tajassum topgan, ya`ni, yig`lab dunyoga kelgan bu chaqaloqning nafasida ne-ne mashaqqatlarni kechajagidan xabar berguvchi ohlar tutuni o`rlab turgan ekan. Manglayida esa muhabbat nuri porlayotganidan chehrasidan vafo tug`ro(tamga)sining barqi mavjud. Osmon uni barcha dardlilarning shohi timsolidagi farishta qilib yaratgan go`yo, u barchaning dardidan "ogoh"-xabardor o`g`lon bo`lib dunyoga kelgan. Shu bois uning nomi ham o`ziga mos bo`lmog`i, hadisda aytilganiday, o`z otaonasidan oladigan birinchi mukofoti munosib ism bo`lmog`ini asoslarkan, shoir dastlab bunday o`g`ilga ota bo`lish nasib etgan shohning ruhiy holatini shunday ifodalaydi: Ato ul durga chun nazzora qildi, Sadafdek og`zi kulmakdin yoyildi.

Shundan so`ng shoir chaqaloqqa ism qo`yish tafsilotiga o`tadi. Unga tanlangan ism qismatiga daxldor besh so`zning bosh harflaridan tuzilgan: "firok"dan-"f", "rashk"dan-"r", "hajr"dan- "h", "oh"dan-"o" va nihoyat, "dard"dan-"d" harflarining bir-biriga "murakkab" qilinishi asosida yuzaga keltirilgan, uni bunyodga keltirgan "ustodi ishq"ning irodasi shunday: Anga farzona Farhod ism qo`ydi, Hurufi maxzanin besh qism qo`ydi. Firoqu rashku hajru oh ila dard, Biror harf ibtidodin aylabon fard.

Borin ustodi ishq etgach murakkab,

Tarakkubdin bu ism o`ldi murattab.

Ko`rinayotirki, chaqaloqning tug`ilishi–jismoniy hodisa bo`lsa, unga ism qo`yish– ma`naviy hodisa. Navoiy chaqaloqning jismoniy ulg`ayishini ma`naviy ulg`ayishga omuxtalashtirgan holda tasvirlashga ayricha e`tibor berarkan, bunda dastlab, allaning nechog`li katta ahamiyatga egaligini ta`kidlaydi:

Arusi charx tun-kun doya kirdor,

Bo`lib har tavri holidin xabar dor.

Beshik davrida chiniyu xitoyi,

Bo`lib yuz no`sh lab dostonsaroyi.

Ko`zining nozi eldin eltib uyqu.

Anga uyqu keturmakka navogo` (2).

Doya tun-kun uni parvarish qilib, "dostonsaro"lik, ko`zlariga noz uyquni chorlash uchun "navogu"lik qilib allalar aytib, quv nab-yash nab ulg`ayishiga ma`naviy asos solganliklaridan u bir yoshni to`ldirganidayoq, oyoqda turadi: beshikni tark etib mustaqil yura boshlaydi. Shu zaylda u hammaning suyumlisi bo`lib ardog`lanadi.

Guruhni ikkiga ajratib, har bir guruh nomlanadi. Va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

**1-topshiriq:** Alisher Navoiy asarini o`qib, tahlil qilish va mavzusi bo`yicha taqdimot tayyorlash.

**2-topshiriq:** Kitobxonlik va she`rxonlik musobaqasini tashkil qilish.

**3-topshiriq:** 4-sinf o`qish darsligini tahlil qilish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O`qituvchi 2011.389-bet.
2. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy - uslubiyizlanishlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPI 2009, 234 b.
3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdona,2019.193bet.

#### **Elektron ta`lim resurslari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

### **9-MAVZU:DIDAKTIK ADABIYOT VA PANDNOMALAR – BOLALAR KITOBXONLIGIDA**

#### **Reja:**

1. "Guliston" va "Bo`ston" – asarlarining tarbiyaviy ahamoyati.
2. Didaktik adabiyot durdonalari va ularni turkumlash.
3. Talabalarning bilimi va fikrlarini BBB texnologiyasi orqali nazorat qilish va baholash.

"QOBUSNOMA". Bu asar "Mav`izatnoma" va "Nasihatnoma" nomlari bilan ham mashhur bo`lib, hijriy 475-melodiy 1082-1083 -yillarda Unsurulmaoliy Kaykovus tomonidan o`g`li Gilonshohga bag`ishlanib yozilgan. Asarning yozilishi sababi izohida ikki nuqta e`tiborni tortadi. Birinchisi, u o`g`li Gilonshohga murojaat qilib "shu pandnomalarni qabul qilishi"ni so`raydi. Shu pandlarida "otalik vazifasi" namoyon bo`lganini, bu xalq rasmi ekanligini ta`kidlarkan, o`z hayotiy tajribalari xalq axloqiy qarashlariga omuxtaligini uqtiradi: "Bilgilki, jahon xalqining rasmi shuldirki, takupo`y va justujo`y qilib dunyoda biror narsa hosil etarlar va uni o`zlarining yaxshi ko`rgan kishisiga qo`yib ketarlar. Men dunyoda ushbu so`zlarni hosil qilmishman va mening yaxshi ko`rg`on kishim sendursen. Menga rixlat vaqti yovuq etdi, dunyodan har nimaiki hosil qildim, sening oldingga qo`ydim, tokim xudkom bo`lmag`aysan va berohlik yo`liga qadam qo`ymag`aysan". Kaykovus o`g`lining shu pandlarga qat`iy amal qilishini istaydi. Biroq bu masalada ko`nglini ayrim andishalar bezovta qilayotganini ham eslatadi. Bunda otalar hayot tajribasi bilan bolalar hayot tajribasida yuz berishi muqarrar nomutanosibliklar ko`zda tutiladi. Bu ikkinchi nuqta bo`lib, Kaykovus o`z zamonasidayoq jamiyatda har bir avlodning ajdodlari tajribasidan nimanidir qabul qilishi, nimanidir inkor etishi asosida yuz beradigan otalar va bolalar muammosini sergaklik bilan fahmlaydi: "Mening so`zimni (pandimni-O.S.) eshitmoqdin ibo qilmag`il. Agar mening so`zimni qabul qilib, undan bahra olsang, o`zgalar dog`im (yanada) qabul qilurlar va unga yarasha ish qilmoqni g`animat bilurlar. Chunki zamona taqozosi shundoqdurki, hech farzand otasining pandin qabul etmag`usidir, nedinkim yigitlar g`aflat yuzidin o`z botinida o`zlarini birdan-bir donish fahm qilurlar va o`z donishlarini qarilarning donishlaridan afzal bilurlar. Garchi bu so`z menga ma`lumdur, lekin otalik mehri meni xomush bo`lurga qo`ymadi" "Otalik mehri" "o`zi yaratgan" pandlarni qirq to`rt bobda ifodalashga undadi.

Garchi pandnoma farzandga mo`ljallangan esa-da, unda katta hayotiy tajribaga ega inson qarashlari o`z didi, saviyasi, e`tiqodi va ijtimoiy mavqei nuqtai nazaridan ifodalanganligi sezilib turadi. Shu sababli uning bayon uslubi va tilida ham kattalar nutqiga xos unsurlar ustivordir, biroq bu o`git- nasihatlarni ayrim

rivoyat va hikoyatlar asosida ishonchli, ta'sirchan va tabiiy soddalik zamirida bayon etilganiga mone'lik qilolmaydi. Xuddi shu xususiyatiga ko'ra o'tmishda uzoq muddat davomida undan eski maktab va ibtidoiy madrasalarda o'qish kitobi sifatida foydalanib kelindi.

"Qobusnoma" XI asr sharq pedagogik tafakkurini yorqin aks ettirgan o'qish kitobi vazifasini sharaf bilan ado etib kelayotir. Shu bilan birga u sharq xalqlari pedagogikasi tarixini o'rganishda eng qimmatli manbalardan biri bo'lib qolayotir.

Guruhni ikkiga ajratib, har bir guruh nomlanadi. Va quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

**1-topshiriq:** Qobusnoma asarini o'qib, tahlil qilish va mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlash.

**2-topshiriq:** Kitobxonlik va she'rxonlik musobaqasini tashkil qilish.

**3-topshiriq:** 2-sinf o'qish darsligini tahlil qilish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O'qituvchi 2011.389-bet.
2. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy - uslubiy izlanishlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPI 2009, 234 b.
3. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdon,2019.193bet.

#### **Elektron ta'lim resurslari:**

4.[www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)

5.[www. pedagog. uz](http://www. pedagog. uz)

6.[www. Ziyonet. Uz](http://www. Ziyonet. Uz)

7.[www. edu. Uz](http://www. edu. Uz)

#### **10-MAVZU:A.AVLONIY VA H.H.NIYOZIY IJODIDA**

#### **TA'LIM-TARBIYAGA OID G'OYALAR**

#### **Reja:**

1. Abdulla Avloniy XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri – ma'rifatparvar shoir.
2. Abdulla Avloniyning asarlaridagi pedagogik g'oyalar.



### **3. H.H.Niyoziy ijodida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar.**

Abdulla Avloniy XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi. Adib 1878-yil 12-iyulda Toshkentda to'quvchi oilasida tavallud topgan. Avval O'qchidagi boshlang'ich maktabda, so'ng shahar madrasalaridan birida tahsil oldi. Juda ko'p mustaqil o'qib o'rgandi, tez orada o'z davrining savodxon, ma'rifatparvar kishisiga aylandi. Avloniy asrimiz boshlarida o'lkamizda avj olgan jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodli qilish, ulardan yetuk olimlar, mutaxassislar tayyorlash, Vatanni ozod ko'rish, farovon etish yo'lida fidoyilik bilan mehnat qildi. Ana shu maqsadda juda ko'p sohalarda faol ish olib bordi. 1907-yilda o'z uyida "Shuhrat" nomli gazeta nashr qildi. Mahallasida yangi usuldagi maktab ochdi. "Usulijadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darslik va o'qish kitoblari tuzdi. Maktab-maorif ishlariga yordam ko'rsatish maqsadida xayriya jamiyati tashkil qildi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konini ochdi. Ma'rifatparvar adib, dramaturg, pedagog, noshir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda Toshkentda vafot etgan. Abdulla Avloniyning Pedagogikaga oid asarlari ichida uning 1913-yilda yozilgan va 1907-yilda ikkinchi bor nashr qilingan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari (XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida) alohida ahamiyatga molikdir. "Turkiy guliston yoxud axloq" didaktik asar bo'lib, unda Abdulla Avloniy o'z ijtimoiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etadi. Asar katta-kichik 64 bobdan iborat.

bo'lib, har bir bob ta'lim-tarbiya masalasig bag'ishlanadi va biri ikkinchisini to'ldiradi. Muallif odamlarni xulq, hatti-harakat nuqtai nazaridan 2 guruhga bo'ladi: biri yaxshi xulqli kishilar, ikkinchisi yomon xulqli kishilardir. U bunday deydi: Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishdir: agar nafs tarbiyat topib yaxshi ishlar qilurg'a odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo'lib, "Yaxshi xulq", agar tarbiyatsiz o'sib, yomon ishlar ishlaydurg'on bo'lib ketsa, yomonlikka tavsif

bo'lib, "Yomon xulq" atalur. Abdulla Avloniy insonning fatonat, nazofat, sa'y va g'ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, hilm, idrok va zako, avf kabi xususiyatlarining hammasini "Yaxshi xulqlar" sarlavhasi ostida beradi. G'azab, jaholat, razolat, safohat, hamoqat, atolat, hasad, g'iybat, ta'ma, zulm – bularning barini muallif "Yomon xulqlar" sarlavhasi ostida beradi. Abdulla Avloniy "tarbiya" sarlavhasi ostida tarbiyaning turlari haqida fikr yuritadi: a) Tarbiyaning zamoni; b)Badan tarbiyasi; c) Fikr tarbiyasi; d) Axloq tarbiyasi. Qolaversa, muallif til masalasiga ham alohida e'tibor beradi, tilni, axloq bilan bog'lab talqin qiladi. Asar bo'limlarida yozuvchining o'z fikr va qarashlarini yanada boyitish maqsadida Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v, Hazrati Ali, Hazrati Umar, Imom Shofe, Aflotun, Ibn Sino, Suqrot, Aleksand Makedonskiy, Mavlono Rumi, Luqmoni Hakim va yana boshqa ko'plab hukamolarning ibratli so'zlariga, o'gitlariga murojaat qilganiga guvoh bo'lamiz. Asarda yaxshi xulqlar egasi bo'lish kerakligi, yomon odatlardan, illatlardan xazar qilish, go'zal xulq egasining hamisha el orasida nufuzi baland bo'lishi, axloqsiz kishining esa hamisha odamlar orasida yuzi qora bo'lishi asarning bosh g'oyasi qilib olingan. Muallif bola tarbiyasida yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta ekanini ko'rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham nazar e'tibordan qoldirmaydi. Abdulla Avloniy bolalar uchun ham bir qancha she'r va masallar yozgan. Shoir bu she'rlarida maktab yoshidagi bolalarning fikr doirasini kengaytirish, ularda maktab va kitobga, mehnatga, tabiatga, vatanga muhabbat uyg'otishni maqsad qilib qo'ygan. Uning ko'pgina she'rlari zamirida Vatanni sevish g'oyasi yotadi. Shoir bu she'rlarida Vatanni soda va samimiy misrakarda tasvirlaganki, faqat o'sha o'ninchi yillarning o'rtalaridagina emas, balki, bugungi maktab yoshidagi bolalar ham ulardan katta estetik zavq olishlari mumkin.

**1-topshiriq.** Quyida ma'rifatparvar allomaning pedagogikaga, ta'lim-tarbiya masalasiga aloqador bo'lgan fikrlaridan foydalangan holda guruh bahsini tashkillashtiring.

Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo	Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola,	Eng yomon kishilar ilmga amal
--	--	----------------------------------

najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasi.	bo'lg'ay balo sizga, Vujudi tarbiyat topsa bo'lur ul rahnamo sizga. Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim, Buzilsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.	qilmaydigan kishilardir. Agar tarbiya qiluvchi muallim olim bo'lib, amalsiz bo'lsa, bu shogirtlar axloqiga yomon ta'sir ko'rsatadi.
Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim.	Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlikdir.	Kerak tarbiyat yoshlikdan kerak, Ulug' bo'lsa lozim kelur g'am yemak.
G'azabning avvali jinnilik, oxiri nadomatdir.	Millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynayu hayoti uning til va adabiyotidir.	

## **2-topshiriq.** Darsni mustahkamlash uchun savollar

- 1 A. Avloniyning qanday darsliklarini bilasiz va ularning mazmuni
- 2 Abdulla Avloniy o'zining qaysi kitob va asarlari bilan hozirgi o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga hissa qo'shgan?
- 3 Abdulla Avloniyning dramatik asarlari haqida nima bilasiz?
4. Hamzaning qanday darslik kitoblarini bilasiz?
5. «O'qi», «Ilm ista», «Maktab» asarlarida shoir nimaga chaqiradi?
- 6 Shoirning qanday masallarini bilasiz?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A. Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq.
2. B. X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent- 2017.
3. J. Hasanboyev, X. A. To'raqulov, I. Sh. Alqarov, N. O'. Usmanov. Pedagogika, Toshkent-2011.

4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).
5. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
6. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. Scientific progress, 1(6).
7. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.

**11-MAVZU. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA  
KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SINFDAN  
TASHQARI ISHLAR**

**Reja:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik, kitobdan to'g'ri foydalana olish malakalarini shakllantirish.
2. O'quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish.
3. Notiqlik mahoratini oshirishda, o'z fikrini teran bayon qilishga o'rgatishda sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati.

**1-topshiriq.** Quyidagi savollarga javob bering.

1. O'quvchilarning faolligini oshirishda sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati qay darajada?
2. Sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati haqida gapirib bering.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalar nimalardan iborat ekanligini sanab bering.

**2-topshiriq.** "Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar faolligini oshirish" mavzusida taqdimot tayyorlang.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O'qituvchi 2011.389-bet.
4. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy - uslubiy izlanishlar. T.: Nizomiy nomidagi TDPI 2009, 234 b.
5. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. –Buxoro.: Durdona,2019.193bet.

**Elektron ta'lim resurslari:**

4.[www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)

5.[www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)

6.[www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)

**“BOLALAR KITOBXONLIGI” FANI BO‘YICHA MUSTAQIL  
TA‘LIM MASHG‘ULOTLARI MAVZULARI VA ULARNI  
O‘ZLASHTIRISH BO‘YICHA ZARURIY-USLUBIY  
KO‘RSATMALAR**

**KIRISH**

Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta‘limning noan‘anaviy metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta‘lim jarayonida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etishning mazmunini ishlab chiqish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etish muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir. Shu bilan birgalikda, talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o‘rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko‘rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta‘limini tashkil etish bo‘yicha beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda–semestrga ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib borishi lozim. Ya‘ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o‘rganib borishi kerak.

**Mustaqil ta‘lim** – auditoriyada olingan bilim, ko‘nikma, malakalarni mustahkamlash hamda fanga oid (xususiy) kompetensiyalarini rivojlantirish, qo‘shimcha ma‘lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadida tashkil etiladigan o‘qitish shakli.

**I. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL  
TA‘LIMINI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Talabalarning mustaqil ta‘limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini tarkib toptirishdan iboratdir.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi **vazifalarni** muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

– talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

– bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

– talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

– ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

– talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

– ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

## **II.KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH TARTIBI**

Mustaqil ish turi va shakli muayyan ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) hamda fan(modul)larning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etilgan mavzular hamda mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar talaba uchun ishlab chiqilgan ishchi dastur (sillabus)da o'z aksini topishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgan o'quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'lim natijalarini baholash fan (modul)ning umumiy baholash (100 ballik) tizimida aks ettiriladi va ishchi dastur (sillabus)ning baholash mezonlarida unga ajratilgan ball aniq ko'rsatib qo'yiladi.

Fan(modul) bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi (kredit) mas'ul kafedra muhokamasidan o'tkazilishi, yig'ilish qarori bilan tasdiqlanishi hamda professor-o'qituvchi tomonidan tuzilgan sillabusda mustaqil ish shakli va turi mazkur qarorga mos kelishi lozim.

Didaktik jarayonlarni jadallashtirish, talabalarning mustaqil ta'lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o'quv davrining I semestrda tyutorlar, ARM xodimlari tomonidan mazkur jarayonni amalga oshirish tartibi bo'yicha davriy ravishda (shu jumladan, kredit haftaligi doirasida) o'quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ish topshiriqlari va uni bajarish muddatlari elektron platformada qat'iy belgilanadi. Uzrli sabablarsiz mustaqil ishni bajarish muddatini o'tkazib yuborgan talabaning o'quv faoliyati natijalari

tekshirilmaydi va baholanmaydi. Uzrli sabablar esa, dekanat (registrator ofis) tomonidan o'rganib chiqilishi, dekan rezolyutsiyasi bilan inobatga olinishi hamda topshiriq bajarilishi uchun yakuniy nazorat o'tkazilishiga qadar qayta topshirish muddati belgilanishi mumkin.

Mustaqil ta'lim bo'yicha o'quv faoliyati natijalari baholanmagan talaba yakuniy nazoratlarga kiritilmaydi.

Fan(modul) bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat savollarining 1/2 qismi mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzular asosida tuzilishi tavsiya etiladi.

Fan(modul)ning auditoriya yuklamasini bajarish vaqtida talabalarning mustaqil ishlari nazorat qilinmaydi. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarish yuzasidan ishchi dastur (Sillabus)da ko'rsatilgan kontakt soatida offlayn yoki onlayn tarzda maslahat olishi mumkin.

Talaba mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda akademik va etik talablarga rioya etishi (plagiatga yo'l qo'ymaslik, professor-o'qituvchilar, talabalar bilan tolerant munosabatda bo'lish, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash, mas'uliyatlilik) shart.

Fan(modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (koparativlik)ga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Mustaqil o'qib-o'rganish uchun taklif etiladigan mavzular va mustaqil ish topshiriqlari fan(modul)ga ajratilgan kreditlar soni va talabaning vaqt budjetini inobatga olgan holda belgilanishi lozim.

Talaba tomonidan elektron tizim(platforma)ga yuklangan mustaqil ish topshiriqlari aniq belgilangan muddatda professor-o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va natijasi talabaga ma'lum qilinishi shart.

Professor-o'qituvchi fan(modul)ning ishchi dasturi (sillabus)da belgilangan kontakt vaqtida mustaqil ish bo'yicha talaba murojaati asosida maslahat va amaliy tavsiyalar berib borishi shart.

Kredit-modul tizimi asosida mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonida talabalar:

- yangi bilimlarini mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topib, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlay oladi;
- axborot manbalaridan samarali foydalana oladi;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlay oladi;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash ko'nikmasi



hosil boʻladi;

- internet tarmogʻidan samarali foydalana oladi;
- berilgan topshiriqni muntazam va meʼyorida bajarish koʻnikmalariga ega boʻladi;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashadi;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki gʻoyani asoslab, mutaxassislar jamoasida himoya qilish koʻnikmalariga ega boʻladi.

### **III.MUSTAQIL TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHGA DOIR PROFESSOR-O'QITUVCHINING VAZIFALARI VA TALABALARNING MAJBURIYATLARI**

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda **professor-o'qituvchi** tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

– fan (modul) boʻyicha ishchi dastur (sillabus)da oʻquv rejasida koʻzda tutilgan kredit(soat)ga muvofiq mustaqil oʻqib-oʻrganish uchun mavzular va mustaqil ish topshiriqlarini aniq aks ettirish;

– ishchi dastur(sillabus)da mustaqil oʻqib-oʻrganish uchun tavsiya etilgan mavzularni oʻzlashtirish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga doir metodik koʻrsatmalar, mustaqil ish topshiriqlarini baholash mezonlari va muddati, maslahat olish uchun kontakt soatlarini koʻrsatib qoʻyishi shart;

– fan (modul) boʻyicha talabalarning kichik guruhlardagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish hamda komandada ishlash natijalari boʻyicha soʻrovlar oʻtkazish. Mazkur jihat talabalarning hamkorlikdagi ishlari natijalarini baholashda hisobga olinishi tavsiya etiladi;

– kurs ishi mavzulari bankini tuzishda mustaqil ta'lim mazmunini ham aks ettirishi lozim;

– oraliq va yakuniy nazorat savollarini tuzishda mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzularni ham nazarda tutish zarur;

– mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini elektron tizim (platforma) orqali nazorat qilib borishi, tekshirishi va baholashi, natijalarni oʻz vaqtida talabalarga yetkazishi zarur. Kichik guruhlarda hamkorlikda bajarilgan mustaqil ishlar taqdimotini oʻtkazishi, kongruentlik (“hozir va shu yerda”) tamoyiliga rioya qilgan holda, talabalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlashtirishi va natijalarini eʼlon qilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil oʻqib-oʻrganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda **talabalar** quyidagi majburiyatlarga rioya qilishi talab etiladi:

– fan(modul)lar bo‘yicha mustaqil o‘qib-o‘rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to‘liq o‘zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;

– mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymaslik;

– mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashish, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo‘lish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish talab etiladi;

– kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilish, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish, komandada ishlay olish kompetensiyasini o‘zlashtirishi zarur.

#### **IV.KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI**

Ma'lumki o'qitishning asosiy shakllari – ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzuni murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko'ra avvaldan rejalashtiriladi, o'quv soatlariga ajratiladi.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

1. Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash
2. O'quv loyihasi
3. Esse
4. Glossariy (atamalar izohi)
5. Tayanch konspekt tuzish (chizma tasviriy modellar, intellekt kart, freym, mantiqiy graf va boshqalar yaratish)
6. Mini tadqiqotlar o'tkazish
7. Ijodiy topshiriqlar
8. Darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash
9. Videorolik yaratish
10. Tezis va maqolalar tayyorlash
11. Taqdimot tayyorlash
12. Test tuzish
13. Ma'ruza matni tayyorlash

O'qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ta'limni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlar berilishi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga

yoʻnaltirilgan boʻlib, talabalarning auditoriya mashgʻulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va toʻldirishga xizmat qilishi kerak.

### **Fanlar boʻyicha mustaqil taʼlimni amalga oshirish shakllarining izohi**

**1. Adabiyotlar (manbalar ustida ishlash)** – ilmiy va badiiy adabiyotlarni turli tartibda tahlil qilishga asoslanadigan *taʼlim shaklidir*.

Adabiyotlar (manbalar ustida ishlash) shaklidagi mustaqil taʼlimning asosiy maqsaditalabalarda adabiyotlar bilan ishlash va kitobxonlik koʻnikmasini shakllantirishdan iborat.

Undan foydalanish mobaynida talabalardan ilmiy, badiiy yoki ommabop adabiyotlar, gazeta va jurnallarda berilgan maʼlumotlarni (vaziyatlar, holatlar) oʻtilayotgan fan va uning mavzulari doirasida tahlil qilish talab etiladi.

Bunda mumkin boʻlgan variantlar quyidagicha boʻlishi taklif etiladi:

– ilmiy adabiyotlar bilan ishlashda – adabiyotda berilgan maʼlumotlar umumiy holda yoki mavzular boʻyicha tahlil etilishi mumkin.

– badiiy adabiyotlar bilan ishlashda (ommabop adabiyotlar, gazeta va jurnallarda berilgan maʼlumotlarni) – asar qahramonlarining ularning harakatlari, suhbatlari, holatlari va ular tushgan vaziyatlar mavzu doirasida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar (manbalar ustida ishlash)ning asosiy vazifalari:

- talabalarda kitob mutolasi boʻyicha koʻnikma va malakalarini oshirish;
- talabalarni mustaqil izlanishga undash;
- talabalarda ilmiy izlanishga oid koʻnikma va malakalarni shakllantirish;
- berilgan maʼlumotlarni tahlil qila olish koʻnikmasini shakllantirish;
- talabalarni koʻrib chiqiladigan mavzularning ochilmagan tomonlarini mustaqil ravishda ijodiy yondashuvini taʼminlash;
- fanning turli muammolariga qiziqish hosil qilish;
- nazariyaning amaliyotga bogʻliqligini taʼminlash.

Adabiyotlar (manbalar ustida ishlash) shaklidagi mustaqil taʼlimni bajarish boʻyicha uslubiy koʻrsatma

#### **Professor-oʻqituvchi uchun:**

– fan va mavzular yuzasidan mustaqil taʼlim uchun zarur boʻlgan adabiyotlar roʻyxatini tuzish;

– mavjud adabiyotlar roʻyxatiga koʻra mustaqil taʼlim mavzularini shakllantirish;

– shakllantirilgan mavzular boʻyicha ishlash uchun zarur boʻlgan koʻrsatmalarni ishlab chiqish.

### **Talabalar uchun:**

- mustaqil ta'limni bajarish uchun zarur bo'lgan adabiyot turini tanlash va topish;
- adabiyot bilan tanishib, undagi muhim ma'lumotlarni ajratib olish;
- ajratilgan ma'lumotlarni saralash;
- saralangan ma'lumotlarni istalgan (maqola, referat, test, slayd) shaklda rasmiylashtirish;
- mazkur mustaqil ta'limni bajarish jarayoni qay darajada samarali bo'lganligini alohida qayd etish;
- tahlil asosida o'qituvchining savollariga javob bera olishga tayyor bo'lish.

**2. O'quv loyiha** (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi bo'lib, ma'lum natija (o'quv loyihaning beqiyos mahsuli) ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Ta'lim ma'nosidagi o'quv loyihalashtirish - o'qituvchi tomonidan talabani muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

O'quv loyihaning maqsadi – talabalarda ko'rsatilgan muammoni hamkorlikda ishlash ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'quv loyihaning asosiy vazifalari:

- talabalarni muammoni mustaqil izlashga undash;
- hamkorlik asosida vazifalarni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasini shakllantirish;
- faoliyat samaradorligiga erishish;
- nazariyaning amaliyotga bog'liqligini ta'minlash;
- kasbiy va tayanch layoqatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

O'quv loyiha shaklidagi mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma

### **Professor-o'qituvchi uchun:**

- fan va mavzular yuzasidan o'quv loyiha mavzularini shakllantirish;
- shakllantirilgan o'quv loyiha mavzulari bo'yicha ishlash uchun zarur adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish;
- o'quv loyiha mavzulariga oid bo'lgan ko'rsatmalarni ishlab chiqish;

- o‘quv loyihani amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.

### **Talabalar uchun:**

- o‘quv loyiha mavzularini bajarish uchun zarur bo‘lgan adabiyot turini tanlash va topish;
- adabiyot bilan tanishib, undagi muhim ma’lumotlarni ajratib olish;
- o‘quv loyiha mavzulari bo‘yicha ajratilgan ma’lumotlarni saralash;
- saralangan ma’lumotlarni o‘quv loyihasi mavzusi asosida shakllantirish;
- mavzu yuzasidan o‘quv loyihalarni jamoa bilan hamkorlikda bajarish va taqdimot qilish.

**3. Esse** – talabaning muayyan masala yoki mavzu yuzasidan taassurotlari, nuqtai-nazari, fikr va mulohazalari, individual pozitsiyasi, hissiyotlari, falsafiy mushohadalari ifodalangan mustaqil ish turidir. Esse aniq bir mavzu bo‘yicha shaxsiy taassurotlar va fikrlar bayonidan iborat bo‘lib, uning hajmi 5 betgacha bo‘lishi mumkin.

**Esse shaklidagi mustaqil ta’limning maqsadi** – talabaning fan yuzasidan bilimlarini kengaytirish va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Essening asosiy vazifalari:

- talabalarda esse yozish bo‘yicha mustaqil izlanishga undash;
- esse yozish bo‘yicha talabalarda ilmiy, badiiy izlanishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- ijodiy fikrlarni yozma tarzda bayon etish ko‘nikmasini shakllantirish;
- fanning turli muammolariga qiziqish hosil qilish;

**Esse shaklidagi mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma**

### **Professor-o‘qituvchi uchun:**

- fan va mavzu yuzasidan mustaqil ta’lim uchun zarur bo‘lgan mavzularni taqdim etish;
- esse yozish bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
- esse yozish bo‘yicha ko‘rsatmalarni talabaga taqdim etish;
- esse bajarilishini nazoratga olish;

### **Talabalar uchun:**

- esse yozish bo‘yicha berilgan mavzu yoki masalaning tahlilini amalga oshirish;
- mavzu yuzasidan esse yozishda ijobiy va salbiy tomonlarini yoritish;
- mavzu yuzasidan ijodiy fikrlarini yoritish.

**4. Glossariy (atamalar izohi) shakli** – fan yuzasidan mavzuni to‘liq yoritib berish va o‘rganish maqsadida tayanch tushunchalarni izlash va ularga izoh yozish shaklida amalga oshiriladi. Bunda talabalarga ma’lum bir mavzu yuzasidan 10 ta tayanch tushuncha (atama)lar o‘qituvchi tomonidan beriladi.

Glossariy (atamalar izohi) shaklidagi mustaqil ta’limning maqsadi – talabalarni ijodiy izlashnisha undash, fanni chuqurroq o‘rganishga imkon yaratishdan iborat.

Glossariy shaklidagi mustaqil ta’limning vazifasi:

- berilgan atamalarning 3 xil (o‘zbek, rus va ingliz) tillaridagi ilmiy izohlarini izlab topish;
- izlab topilgan izohlarni to‘liq shaklda yozma bayon etish;
- har bir atamaning ma’no va mohiyatini anglab yetish;
- atamalarning mohiyatini so‘zlab bera olish.

**Glossariy shaklidagi mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma**

**Professor-o‘qituvchi uchun:**

- fan va mavzular yuzasidan glossariy uchun zarur bo‘lgan atamalar ro‘yxatini tuzish;
- shakllantirilgan ro‘yxat bo‘yicha ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatmalarni ishlab chiqish.

**Talabalar uchun:**

- mustaqil ta’limni bajarish uchun zarur bo‘lgan atamalar bilan tanishish;
- izohlarni 3 xil (o‘zbek, rus va ingliz) tilda yozma bayon etish;
- har bir atamaning ma’no va mohiyatini anglab yetish;
- atamalarning mohiyatini so‘zlab bera olishi.

**5. Tayanch konspekt tuzish (chizma tasviriy modellar (intellekt kart, freym, mantiqiy graf va boshqalar) yaratish shakli** - taklif etilgan adabiyotlar va qo‘shimcha manbalar asosida mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va to‘liq yoritilmagan qismini mustaqil tahlil qilish.

Tayanch konspekt tuzish shaklidagi mustaqil ta’limning maqsadi – adabiyotlar, qo‘shimcha manbalar bilan ishlash hamda ularni mustaqil tahlil etish va muhim ma’lumotlarni tanlash ko‘nikmasini shakllantirish.

**Tayanch konspekt tuzish shaklidagi mustaqil ta’limning vazifasi:**

- umumiy nazariy bilimlardan asosiy qismlarini ajratib olib, aniq, qisqa, lo‘nda fikrlarni yozish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

- nazariy bilimlarni yozma bayon etib berishni rejasini shakllantirish;
- nazariy bilimlarni hayotiy misollar bilan asoslab, isbotlab berish ko‘nikmasini egallash.

### **Tayanch konspekt tuzish shaklidagi mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma**

#### **Professor-o‘qituvchi uchun:**

- konspektlashtirish uchun mavzular bazasini ishlab chiqish;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish;
- shakllantirilgan mavzular bo‘yicha konspekt yozish turlari bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqish.

#### **Talabalar uchun:**

- mavzu yuzasidan zarur bo‘lgan adabiyotlarni saralash;
- konspekt uchun zarur bo‘lgan matnlarni ajratish;
- matnlar bilan tanishib, uning muhim qismlarini yozma tarzda ifodalash;
- o‘qib, o‘zlashtirgan matnni yozma tarzda bayon etish.

**6. Mustaqil ta’limning mini tadqiqotlar o‘tkazish shakli** - bilish faoliyati turlaridan biri bo‘lib, yangi, obyektiv, ishonchli bilimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim shaklidir. Uning asosiy komponentlari mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shart-sharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil etish, tajriba o‘tkazish, olingan natijalarni taxlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berishdan iborat.

Mini tadqiqot o‘tkazish shaklidagi mustaqil ta’limning maqsadi – talabalarda mini ilmiy tadqiqot o‘tkazish, uni tahlil qilib, natijalarni umumlashtirish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

Mini tadqiqot o‘tkazishning asosiy vazifalari:

- fanning turli muammolariga qiziqish hosil qilish;
- talabalarda ilmiy tadqiqot o‘tkazishga ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- talabalarni mustaqil izlanishga undash;
- talabalarni mustaqil ravishda ijodiy yondashuvini ta’minlash;
- mini tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlarni tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantirish;
- nazariyani amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish.

### **Mini tadqiqot o‘tkazish shaklidagi mustaqil ta’limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma**

Professor-o'qituvchi uchun:

- fan yuzasidan mustaqil ta'lim uchun zarur bo'lgan tadqiqot muammolari ya'ni mini tadqiqot mavzulari ro'yxatini tuzish;
- mini tadqiqot o'tkazish bo'yicha zarur bo'lgan ko'rsatmalarni ishlab chiqish.

**Talabalar uchun:**

- mini tadqiqot o'tkazish uchun zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot sxemasini ishlab chiqish;
- muammoli vaziyatni aniqlash;
- tadqiqot maqsad va vazifalar, farazlarni ilgari surish;
- tadqiqot loyihasini ishlab chiqish (tadqiqot metodlarini tanlash);
- tadqiqotni o'tkazish (ma'lumotlarni yig'ish va olingan ma'lumotlarni qayd etish)
- natijalar interatsiyasi (olingan natijalarni qayta ishlash va umumlashtirish)
- kichik tadqiqot natijalari bo'yicha hisobot yozish;
- mini tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarni istalgan (maqola, referat, slayd) shaklda rasmiylashtirish.
- mini tadqiqoti bo'yicha o'qituvchining savollariga javob bera olishga tayyor bo'lish.

**7. Ijodiy topshiriqlar tayyorlash shakli**– talabalarda ijodkorlikni talab qiladigan, farazlarni ilgari surishga imkon beradigan o'quv topshiriqlari bo'lib, ular talabalarning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ochishga yordam beradi.

Ijodiy topshiriqlar shaklidagi mustaqil ta'limning maqsadi – ravon fikrlash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, farazlarni isbotlashdan iborat.

**Ijodiy topshiriqlarshaklidagi mustaqil ta'limning vazifalari**

- talabalarni mustaqil izlanishga undash;
- talabalarda ijodiy izlanishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- berilgan ma'lumotlarni tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish;
- talabalarni ko'rib chiqiladigan mavzularning ochilmagan tomonlarini mustaqil ravishda ijodiy yondashuvini ta'minlash.

Ijodiy topshiriqlar shaklidagi mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma

**Professor-o'qituvchi uchun:**

- fan va mavzular yuzasidan ijodiy topshiriqlar turini aniqlash;
- aniqlangan turlarga mos ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish;



– ijodiy topshiriqni har bir turi bo‘yicha ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatmalarni ishlab chiqish.

**Talabalar uchun:**

– ijodiy topshiriq turlari bilan tanishib chiqish;  
– topshiriqni bajarish uchun zarur mabalarini to‘plash;  
– to‘plangan manbadan foydalangan holda, ijodiy topshiriqlarni rasmiylashtirish.

**8. Darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlashi** – taklif etilgan dars shakli va mavzu yuzasidan manbalar asosida mavzuning asosiy mazmunini ketma- ketlikda amalga oshirish jarayoni tuzimidir.

Darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash shaklidagi mustaqil ta‘limning maqsadi– birorta mavzu yuzasidan dars o‘tish jarayonida adabiyotlar, qo‘shimcha manbalar bilan ishlash hamda ularni mustaqil tahlil etish va muhim ma‘lumotlarni tanlash ko‘nikmasini shakllantirish.

**Darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlashishaklidagi mustaqil ta‘limning vazifasi:**

– umumiy nazariy bilimlardan asosiy qismlarini ajratib olib, aniq, qisqa, lo‘nda fikrlarni yozish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– nazariy bilimlarni hayotiy misollar bilan asoslab, isbotlab berish ko‘nikmasini egallash.

**Darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlashi shaklidagi mustaqil ta‘limni bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma:**

**Professor-o‘qituvchi uchun:**

– tavsiya etiladigan dars mashg‘ulotlari ro‘yxatini shakllantirish;  
– o‘tiladigan dars mashg‘ulotlarni shakli bo‘yicha dars strukturasi ishlab chiqish;

– shakllantirilgan mavzular bo‘yicha dars ishlanmalari bo‘yicha ko‘rsatmalarni ishlab chiqish.

**Talabalar uchun:**

– darsni o‘tilish shakli bo‘yicha yuzasidan zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni saralash;

– matnlar bilan tanishib, uning muhim qismlarini yozma tarzda ifodalash;

**9.Vedeorolik yaratish** taklif etilgan mavzuning mazmunini ifodalash va to‘liq yoritilmagan qismini mustaqil tahlil qilish orqali lavhalar, video tasvirlar, ko‘rsatmalar yaratish.

**Vedeorolik yaratish shaklidagi mustaqil ta‘limning vazifasi:**

nazariy bilimlarni lavhalar, video tasvirlar, ko'rsatmalar orqali yaratish ko'nikmalarini shakllantirish;

– nazariy bilimlarni hayotiy misollar bilan asoslab, isbotlab berish ko'nikmasini egallash.

### **Vedeorolik yaratish shaklidagi mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma**

#### **Professor-o'qituvchi uchun:**

- vedeorolik yaratish uchun mavzular bazasini ishlab chiqish;
- shakllantirilgan mavzular bo'yicha vedeorolik yaratish bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish;
- mavzular bo'yicha lavhalar, video tasvirlar, ko'rsatmalar yaratish mexanizmini tushuntirish

#### **Talabalar uchun:**

- shakllantirilgan mavzular bo'yicha vedeorolik yaratish bo'yicha ko'rsatmalarni o'rganish;
- vedeorolik yaratish bo'yicha tushunchagako'rsatmalarni o'rganish;

### ***10. Tezis va maqolalar tayyorlash***

***Tezis va maqolalar*** – talabaning muayyan masala yoki mavzu yuzasidan fikr va mulohazalarini, yakka yoki hamualliflikda, ilmiy, falsafiy mushohadalari ifodalangan mustaqil ish turidir. Tezis va maqolalar aniq bir mavzu bo'yicha fikrlar bayonidan iborat bo'lib, tezis hajmi 3 betgacha, maqola hajmi 5 va undan ko'p betgacha bo'lishi mumkin.

Tezis va maqolalar shaklidagi mustaqil ta'limning maqsadi – talabaning fan yuzasidan bilimlarini kengaytirish va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tezis va maqolalar ning asosiy vazifalari:

- talabalarda tezis va maqolalar yozish bo'yicha mustaqil izlanishga undash;
- tezis va maqolalar yozish bo'yicha talabalarda ilmiy, badiiy izlanishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ijodiy fikrlarni yozma tarzda bayon etish ko'nikmasini shakllantirish;

### **Esse shaklidagi mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma**

#### **Professor-o'qituvchi uchun:**

- tezis va maqolalar yozish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish;
- tezis va maqolalar yozish bo'yicha ko'rsatmalarni talabaga taqdim etish;

– tezis va maqolalar yozishda annotatsiya va kalit soʻzlarni yozishni tushuntirish.

Talabalar uchun:

- tezis va maqolalar yozish boʻyicha manbalarni izlash;
- mavzu yuzasidan ijodiy fikrlarini yoritish;
- mavzu yuzasidan tezis va maqolalar yozish tartibiga rioya qilish.

## **VII. TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI BAHOLASHNING UMUMIY MEZONLARI**

Talabalar mustaqil taʼlimini baholash mezonlari tegishli kafedralar tomonidan fan (modul)lar xususiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

Har bir fan (modul) boʻyicha mustaqil ish topshiriqlarini baholash mezonlari talabalarga semestrning boshida taqdim qilinadi.

Talabalar fan (modul) boʻyicha mustaqil ish topshiriqlarini baholash berilgan muddatga muvofiq amalga oshiriladi.

Mustaqil ishga qoʻyiladigan ball umumiy ballning 20 (yigirma) foizidan kam boʻlmasligi lozim.

Talaba(lar)ning fan(modul) boʻyicha mustaqil taʼlim natijalari elektron platforma va guruh jurnaliga butun sonlar bilan qayd qilinadi.

Fanlar kesimida talabalar mustaqil ishlari boʻyicha oʻzlashtirish muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yigʻilishlarida hamda har oʻquv yilida kamida ikki marta fakultet Ilmiy Kengashida muhokama etib boriladi.

## **VIII. YAKUNIY QISM**

Mazkur uslubiy koʻrsatma Fakultet Kengashida tasdiqlanib, imzolanganidan soʻng amaliyotga joriy etiladi.

Koʻrsatmaga joriy tuzatish va oʻzgartirishlar kiritib borish mumkin.

Baholash mezonlariga har oʻquv yilida mustaqil taʼlim uchun ajaratilgan ball oʻzgarishini inobatga olib, baholash tartibiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish mumkin.

## **IX. TAVSIYALAR**

### **Mustaqil ishlashda quyidagilarga amal qiling!**

1. Uygʻa berilgan vazifa ustida ishlashdan avval bu ishni bajarishdan koʻzlangan maqsad, uning mazmuni, mohiyati nimada ekanligini shartli ravishda oʻzingiz uchun shakllantirib oling. Mustaqil ishni bajarishda uni

shunchaki bajarish (topshiriqni bajarish, muammoni hal etish)dan ko'ra oldindan qo'yilgan maqsad sari intilish maqsadga muvofiqdir.

2. Oldinga qo'yilgan maqsad sari harakat qilishda turli topshiriqlarni, mashqlarni bajarishda o'zingizni sinab ko'rish uchun yana bir necha qo'shimcha amallarni bajaring.

3. Shundan so'ng darslikka e'tiborni qaratib, amallarni nazariy materiallar talabiga javob berishni tekshirib ko'ring. Alohida ahamiyatli qismlariga katta e'tibor bering.

4. Kitobdagi nazariy materialni o'qib, savollarga javob bering, qo'shimcha adabiyolardan foydalaning.

5. Mavzuga oid yozma ish bajaring:

- axborot-resurs markazidan qo'shimcha adabiyot oling;
- mavzuning qoralamasini tayyorlang;
- yozma ish rejasini tuzing;
- nazariy material bilan yozma ishni qiyoslang.

#### **O'z-o'zini boshqarish**

Ish boshlashdan oldin o'zingizga nimalar qilish haqida hisobot bering.

Ish jadvalini tuzib chiqing. Ish boshlaganingizdan 15-20 daqiqa o'tgach yuqori natijalarga erishib boshlaganingizni belgilab boring. Aynan shu davrdan murakkabroq ishlarni amalga oshiring.

Ishga zarur bo'lgan barcha narsalarni oldindan tayyorlab qo'ying.

Ish mobaynida avvaldan tuzilgan ish jadvaliga amal qilayotganingizni va nimalarni bajarganingizni belgilab boring.

Ish bajarayotgan vaqtingizda halaqit beradigan, chalg'itadigan narsalarni yig'ishtirib qo'ying.

Agar biror ishni birdaniga bajara olmasangiz, uni to'xtatib bir oz vaqtdan so'ng uni bajarishga kirishing.

#### **O'z-ozini nazorat qilish**

O'z xatoyingiz ustida ishleng.

O'quv materialini o'rganib chiqing va uni og'zaki so'zlab ko'ring.

O'z bilimingizni ko'proq boshqalarga o'rgating.

#### **“Bolalar kitobxonligi” fanidan 3-kurslar uchun tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ishlarning mavzulari</b>	<b>S</b>	<b>Shakli</b>
1	“2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori	4	Ma'ruza matni tayyorlash

2	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning kitobxonlik va yoshlar ma'naviyatiga oid qarashlari	4	Ma'ruza matni tayyorlash
3	O'zbek bolalar kitobxonligining dastlabki ko'rinishlari	6	Ma'ruza matni tayyorlash
4	Bolalar kitobxonligi va bolalar adabiyoti	6	Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash
5	Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullari	6	Tayanch konspekt tuzish
6	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va pedagogik-psixologik mohiyati	6	Tayanch konspekt tuzish
7	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni – axloqiy fazilatlar xazinasi	6	Ma'ruza matni tayyorlash
8	Xorijiy tajribalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	6	Tayanch konspekt tuzish
9	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari va muhim omillari	6	Metodik ishlanma tayyorlash
10	O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish metodlari	6	Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash
11	Mutafakkirlarning kitobxonlik haqidagi fikrlari	6	Taqdimot tayyorlash
12	Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qigan kitoblari asosida kitobxonlar konferensiyasini o'tkazish tartibi	4	Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash
13	G'afur G'ulom hayoti va ijodiy faoliyati	4	Taqdimot tayyorlash
14	va Quddus Muhammadiyning ijodiy faoliyati	4	Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash

15	Zafar Diyor hayoti va ijodi	4	Test tuzish
16	Sh.Sa'dullaning bo'alar uchun yozgan asarlari	4	Tezis yozish
17	Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati	4	Taqdimot tayyorlash
18	Sulton Jo'ra va hayoti va ijodi	4	blis so'rovnom a topshiriqlari tuzish
19	Hakim Nazirning ijodiy faoliyati	4	Taqdimot tayyorlash
20	Po'lat Mo'min va hayoti va ijodi	4	Tarqatma tayyorlash
21	Qudrat Hikmat asarlari bosh g'oyasi	4	Metodik ishlanma tayyorlash
22	Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi	4	Taqdimot tayyorlash
23	Farhod Musajon hayoti va ijodi	4	Metodik ishlanma tayyorlash
24	Tursunboy Adashboyev hayoti va ijodiy faoliyati	4	Metodik ishlanma tayyorlash
25	Anvar Obidjon hayoti va ijodiy faoliyati	4	Test tuzish
26	Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili	6	Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash
27	Aka-uka Grimmlar asarlari	4	Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash
28	Xans Kristian Andersenlarning bolalarga atalgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar	4	Metodik ishlanma tayyorlash
29	Aleksandr Sergeyevich Pushkin asarlari	4	Taqdimot tayyorlash
30	Lev Tolstoyning bolalarga atab yozilgan asarlari	4	Test tuzish
	<b>JAMI</b>	<b>138</b>	

**Mustaqil ta'limni o'zlashtirish bo'yicha baholash mezonlari:**

1. Talaba mustaqil ish topshiriqlarini mustaqil bajarib, ijodiy fikrlay olsa, mustaqil mushohada yuritsa **5 baho**.

2. Topshiriqlarni mohiyatini tushunib yoritib bersa, berilgan topshiriqlarni yahshi topshira olsa **4 baho**.

3. Topshiriqlarni bajarishda tasavvurga ega bo'lib, berilgan savollarga to'la javob bera olmasa **3 baho**.

4. Topshiriqlarni mustaqil bajara olmasa **2 baho**.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ishlarini bajarish davomida olgan baholari inobatga olinadi.

## MAVZU YUZASIDAN GLOSSARIY

**Abjad hisobi** – arab alifbosidagi harflarning har biri ma'lum songa tengligi asosida yuritiluvchi hisob. Ya'ni arab harflarining har biri alifbo tartibida ma'lum sonni ifodalaydi. Oson eslab qolinishi uchun sonlarni ifodalayotgan harflarni qat'iy alifbo tartibida biriktirish orqali sakkizta sun'iy so'z hosil qilingan bo'lib, ular hech qanday lug'aviy ma'noga ega emas. Abjad, havvaz, hutti, kalamani, sa'fas, qarashat, saxxaz, zazag'. Abjad hisobi atamasi mazkur so'zlarning birinchisi nomidan kelib chiqqan. Bu harflar 1 dan 1000gacha sonlarni bildiradi. Sharq mumtoz she'riyatida abjad hisobidan ta'rix yozish, chiston va muammolarda keng istifoda etiladi.

**Avtobiografik asar**– (yun. Autos-o'zimga, bios–hayot, grafo–yozaman)– muallifning o'z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o'z hayotini qaytadan yashab ko'radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. A.a. aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (mas. Oybekning “Bolalik” qissasi.) u memuar, kundalik va sayohatnomalarga o'xshab ketsa-da, ulardan tubdan farq qiladi.

**Adabiyot** – (ar. adab–go'zal xulq) – keng ma'noda, inson tafakkurining mahsuli o'laroq dunyoga kelgan, o'qish uchun mo'ljallab yozilgan asarlar jami. Tor ma'noda – so'z san'ati, badiiy adabiyot.

**Adabiyotshunoslik**– (ar. –adab, fors. tanish, o'rganish)– badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarni o'rganuvchi fan. A.ning ob'yekti bo'lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko'lami-predmeti juda keng. Zamonaviy A. fani uchta asosiy sohadan tashkil topadi: *adabiyot tarixi*, *adabiyot nazariyasi* va *adabiy tanqid*. Uning matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya singari yordamchi sohalari ham mavjud.

**Allegoriya**–( yun. allos-o'zgacha, agoreuo- gapiraman)– 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko'chim turi. Mas. tulki–ayyorlikni ifodalaydi.

**Alliteratsiya**– (lot.al- yonida, litera–harf) – she'riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko'rinishi. Mas. sochilgan sochingdek sochilsa siring (Cho'lpon).

**Aforizm** – (yun. ta'rif, ixcham ifoda) – muallifi ma'lum bo'lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.

**Badiiy tahlil** – (ar. tekshirish, hal qilish) – adabiy asarning mazmun mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudligini turli



aspektlarda o`rganib, o`ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intelektual faoliyat.

**Badiiy to`qima** – (ruscha kalka-xud.vim.)– yozuvchining ijodiy tasavvur va taxayyuli mahsuli, voqelikda real asosi yoki to`liq o`xshashi mavjud bo`lmagan badiiy obrazlar, hayotiy holatlar, voqealar yaratishda namoyon bo`luvchi bad. Ijodning muhim komponenti.

**Band** – she`rning ritmik ritmik – intonatsion va mazmuniy jihatdan nisbiy mustaqillikka ega bo`lagi.

**Detektiv adabiyot**– (yun. izquvar) –sarguzasht adabiyotining bir tarmog`I, syujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog`liq voqealar yotuvchi asarlarning umumiy nomi.

**Didaktik adabiyot** – (yun. o`rgatuvchi, ta`limiy) – muayyan ta`limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi. Mas. sa`diyning “Guliston” va “Bo`ston”, Kaykovusning “Qobusnoma” asari.

**Gimn** – (yun. madhiya) –qadimgi yunon adabiyotida ilohlarni ulug`lash, maqtash uchun kuylangan qo`shiq. Mas. yunonlar Appolenni madh etgan. Keyinchalik tarixiy voqealar, qahramonlar madh etiluvchi tantanovar qo`shiqlar ham gimn deb yuritilgan.

**Improvizatsiya** – (lot. kutilmagan, birdan) – badiiy ijodning alohida bir ko`rinishi bo`lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi.

**Interpretatsiya**– (lot. tushuntirmoq) – talqin; adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.

**Insenirovka**– (lot. sahna) – aslida sahnaga mo`ljallab yozilmagan asarlarni (ko`proq, epic asarlarni) sahnalashtirish uchun qayta ishlash. I. sahnalashtirilishi mo`ljallangan asarning g`oyaviy-badiiy xususiyatlarini qayta yaratishni taqozo etadi.

**Intonatsiya** – jonli nutqning ifodaviyligini ta`minlovchi asosiy omil, tipning fonetik vositalari ( tovush toni, talaffuz tempi, tembr, pauzalar, melodika, mantiqiy va so`z urg`ulari) majmui. U estetik emotsional ta`sir o`tkazishda muhim ahamiyatga ega.

**Remarka** – (fr. - izoh) – dramatik asarlarda muallif tomonidan sahna voqeasining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar. R. parda yoki ko`rinish oldidan berilgan hollarda vopqea kechayotgan joy, vaqt, ishtirok etuvchilar va sh.k.lar haqidagi zarur ma`lumotlardan iborat bo`ladi.

**Epigraf** – asarning boshlanishida sarlavhadan keyinoq yoki uning bo`lim (bob.fasl)lari boshida keltiriluvchi qisqa, odatda, e`tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarning purhikmat so`zlari va sh.k) olingan ko`chirma, sitataning bir ko`rinishi.



### **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Hamidova M. Boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti (darslik). – Namangan: Usmon Nosir media, 2022.
2. Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti: o'quv qo'llanma. – Namangan, 2018. – 300 b.
3. Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti. – Namangan: Usmon Nosir, 2021. – 330 b.
4. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002. –290 b.
5. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti: darslik. – Toshkent, O'zbekiston, 2002. – 242 b.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -T.: O'qituvchi, 2011.- 260 b.
7. Muminova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.– Namangan, 2019.
8. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. -Buxoro: Durdona, 2019. - 420 b.
9. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi: darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.
10. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi: uslubiy qo'llanma. – Namangan: Ibrat, 2008. – 96 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 488 b.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 488 b.
4. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.- 104 b.
5. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. -T.: Fan, 2004
6. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. - T., 2008.
7. Jamilova B. O'zbek bolalar publitsistikasi.- T.: Fan, 2006.- 114 b.
8. Matjon S. Kitob o'qishni bilasizmi?- T.: O'qituvchi, 1993.- 144 b.
9. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy – uslubiy izlanishlar.- T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 2009.- 135 b.
10. Nusratova H. Bolajonlik saodati (Safar Barnoyev ijodi asosida). -Toshkent: Muharrir, 2011.- 270 b.

### **Axborot manbalari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

<b>Fan/modul kodi</b> BK 3003		<b>O'quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 7	<b>ECTS-Kreditlar</b> 6
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> <u>7-semestr</u> <u>6 soat</u>
<b>1</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Bolalar kitobxonligi</b>	42	138	180

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – bo'lajak o'qituvchilarga bolalar kitobxonligi, uning tarixi, kitobxon o'quvchini shakllanishi, kitob o'qishning afzalliklari va zarurati haqida nazariy bilim berish hamda talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va kitobxonlikka undash, savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

**Fanning vazifasi** – o'zbek bolalar adabiyoti namunalarini tanishtirib, ularda ilgari surilgan g'oyalar, qarashlar va bolalar ijodkorlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo'llashga o'rgatish, bolalar folklori namunalarini o'rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

### II.1. FAN TARKIBIGA QUYIDAGI MAVZULAR KIRADI:

#### **1-mavzu: "Bolalar kitobxonligi" fanining maqsad va vazifalari**

"Bolalar kitobxonligi" fanining maqsad va vazifalari. Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasi. Boshlang'ich ta'lim bolalar kitobxonligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va pedagogik-psixologik mohiyati.

#### **2-mavzu: O'zbek bolalar kitobxonligi tarixi**

O'zbek bolalar kitobxonligi tarixi. XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar. O'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham samarali hissa qo'shgan mutafakkirlar.

#### **3-mavzu: Bolalar kitobxonligi va uning ko'rinishlari**

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga oid kitoblarning xususiyatlari. Kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan asarlarga oid xususiyatlar. Badiiy asarlarga qo'yilgan talablar.

#### **4-mavzu: Boshlang'ch sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati va usullari**

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati. Yurtimizda kitobxonlikni keng targib qilish, yosh avlodni kitob mutoalasiga qiziqtirish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar, o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati. Mutafakkirlarning kitobxonlik madaniyati haqidagi qarashlari

#### **5-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda xorijiy tajribalar**

Xorijiy tajribalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni. Xorijiy tajribalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga muhabbat uyg'otish bo'yicha olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari

#### **6-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bosqichlari**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bosqichlari

#### **7-mavzu: Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko'rinishlari**

Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqligi. Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan talim-tarbiyaga oid g'oyalar. Gulxaniy ijodida ta'lim-tarbiya masalalari

#### **8-mavzu: Didaktik adabiyot va pandnomalar – bolalar kitobxonligida. “Guliston” va “Bo'ston” - dunyoviy pandnoma xarakterdagi asar**

Didaktik adabiyot va pandnomalar – bolalar kitobxonligida. “Guliston” va “Bo'ston” - dunyoviy pandnoma xarakterdagi asar

#### **9-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlar**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik, kitobdan to'g'ri foydalana olish malakalarini shakllantirishda hamda o'quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirishda, notiqlik mahoratini oshirishda, o'z fikrini teran bayon qilishga o'rgatishda sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati

#### **10-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish yo'llari**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish yo'llari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kitob o'qishga qiziqtirishda ilg'or

## II.2. Ma’ruza mavzularini taqsimlanishi 8-SEMESTR

№	Mavzular	soati
1	“Bolalar kitobxonligi” fanining maqsad va vazifalari	2
2	O‘zbek bolalar kitobxonligi tarixi	2
3	Bolalar kitobxonligi va uning ko‘rinishlari	2
4	Boshlang‘ch sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati va usullari	2
5	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda xorijiy tajribalar	2
6	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bosqichlari	2
7	Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko‘rinishlari	2
8	Didaktik adabiyot va pandnomalar – bolalar kitobxonligida. “Guliston” va “Bo‘ston” - dunyoviy pandnoma xarakterdagi asar	2
9	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlar	2
10	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kitob o‘qishga qiziqtirish yo‘llari	2
	<b>Jami:</b>	<b>20</b>

### III. AMALIY MASHG‘ULOTLAR BO‘YICHA KO‘RSATMA VA TAVSIYALAR

#### III.1. FAN TARKIBIGA QUYIDAGI MAVZULAR KIRADI

##### 1-mavzu: “Bolalar kitobxonligi” fanining maqsad va vazifalari

“Bolalar kitobxonligi” fanining maqsad va vazifalari. Bolalar kitobxonligi. Kitobxon o‘quvchini tarbiyalash – davr talabi.

##### 2-mavzu: Bolalar kitobxonligi tarixi

Bolalar kitobxonligi tarixi. Bolalar kitobxonligining o‘rganilish tarixi. O‘zbek bolalar kitobxonligining dastlabki ko‘rinishlari. Hadislar va pandnomalarda bolalar ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlar.

##### 3-mavzu: Xalq og‘zaki ijodi va bolalar kitobxonligi

Xalq og‘zaki ijodi eng rivojlangan janrlaridan biri. Maktab yoshidagi kichik bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar. Bolalar kitobxonligi.

##### 4-mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini

rivojlantirishdagi o'zni. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobga muhabbat uygotish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari.

**5-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati**

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati. Yurtimizda kitobxonlikni keng targ'ib qilish, yosh avlodni kitob mutoalasiga qiziqtirish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar, o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati.

**6-mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bosqichlari**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bosqichlari

**7-mavzu: Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko'rinishlari**

Mutafakkirlarning kitobxonlik madaniyati haqidagi qarashlari. Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko'rinishlari

**8-mavzu: Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqligi**

Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqligi, mumtoz adabiyot namunalari

**9-mavzu: Didaktik adabiyot va pandnomalar – bolalar kitobxonligida**

Didaktik adabiyot va pandnomalar, didaktik adabiyot namunalari, didaktik adabiyot namunalari ilgari surilgan g'oyalar

**10-mavzu: A. Avloniy va H.H. Niyoziy ijodida ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar**

Abdulla Avloniy XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri – ma'rifatparvar shoir, Abdulla Avloniyning asarlaridagi pedagogik g'oyalar, H.H. Niyoziy ijodida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar

**11-mavzu. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlar**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik, kitobdan to'g'ri foydalana olish malakalarini shakllantirishda hamda o'quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirishda, notiqlik mahoratini oshirishda, o'z fikrini teran bayon qilishga o'rgatishda sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati



<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>S</b>
1	“Bolalar kitobxonligi” fanining maqsad va vazifalari	2
2	Bolalar kitobxonligi tarixi	2
3	Xalq og‘zaki ijodi va bolalar kitobxonligi.	2
4	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	2
5	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati	2
6	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bosqichlari	2
7	Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko‘rinishlari	2
8	Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog‘liqligi	2
9	Didaktik adabiyot va pandnomalar – bolalar kitobxonligida	2
10	A.Avloniy va H.H.Niyoziy ijodida ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar	2
11	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlar	2
	<b>Jami</b>	<b>22</b>

#### IV. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI

<b>№</b>	<b>Mustaqil ishlarning mavzulari</b>	<b>S</b>	<b>Shakli</b>
1	“2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori	4	Ma’ruza matni tayyorlash
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning kitobxonlik va yoshlar ma’naviyatiga oid qarashlari	4	Ma’ruza matni tayyorlash
3	O‘zbek bolalar kitobxonligining dastlabki ko‘rinishlari	6	Ma’ruza matni tayyorlash
4	Bolalar kitobxonligi va bolalar adabiyoti	6	Adabiyotlar (manbalar) ustida ishlash
5	Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullari	6	Tayanch konspekt

			tuzish
6	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va pedagogik-psixologik mohiyati	6	Tayanch konspekt tuzish
7	Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni – axloqiy fazilatlar xazinasini	6	Ma'ruz a matni tayyorlash
8	Xorijiy tajribalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	6	Tayanch konspekt tuzish
9	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari va muhim omillari	6	Metodik ishlanma tayyorlash
10	O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish metodlari	6	Adabiyotlar (manbal ar) ustida ishlash
11	Mutafakkirlarning kitobxonlik haqidagi fikrlari	6	Taqdimot tayyorlash
12	Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qigan kitoblari asosida kitobxonlar konferensiyasini o'tkazish tartibi	4	Adabiyotlar (manbal ar) ustida ishlash
13	G'afur G'ulom hayoti va ijodiy faoliyati	4	Taqdimot tayyorlash
14	Quddus Muhammadiyning ijodiy faoliyati	4	Adabiyotlar (manbal ar) ustida

			ishlash
15	Zafar Diyor hayoti va ijodi	4	Test tuzish
16	Sh.Sa'dullaning boallar uchun yozgan asarlari	4	Tezis yozish
17	Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati	4	Taqdim ot tayyorlash
18	Sulton Jo'ra va hayoti va ijodi	4	blis so'rovn oma topshiriqlari tuzish
19	Hakim Nazirning ijodiy faoliyati	4	Taqdim ot tayyorlash
20	Po'lat Mo'min va hayoti va ijodi	4	Tarqat ma tayyorlash
21	Quadrat Hikmat asarlari bosh g'oyasi	4	Metodik ishlanma tayyorlash
22	Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi	4	Taqdim ot tayyorlash
23	Farhod Musajon hayoti va ijodi	4	Metodik ishlanma tayyorlash
24	Tursunboy Adashboyev hayoti va ijodiy faoliyati	4	Metodik ishlanma tayyorlash
25	Anvar Obidjon hayoti va ijodiy faoliyati	4	Test tuzish
26	Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili	6	Adabiy

			otlar (manbal ar) ustida ishlash
27	Aka-uka Grimmlar asarlari	4	Adabiy otlar (manbal ar) ustida ishlash
28	Xans Kristian Andersenlarning bolalarga atalgan asarlarida ilgari surilgan g'oyalar	4	Metodi k ishlanm a tayyorla sh
29	Aleksandr Sergeyevich Pushkin asarlari	4	Taqdim ot tayyorla sh
30	Lev Tolstoyning bolalarga atab yozilgan asarlari	4	Test tuzish
	<b>JAMI</b>	<b>138</b>	

#### **V. FAN O'QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR)**

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

- kitobxonlik va uning inson ijtimoiy hayotida tutgan o'rni;
- bolalar kitobxonligi;
- bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi;
- kitobxonlik bo'yicha mamalakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni **bilishi** va ulardan foydalana olishi;
- kitobxonlik madaniyatini shakllantirish usullari;
- kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodlari bo'yicha **ko'nikmalariga** ega bo'lishi;
- bolalar kitobxonligi tarixi ;
- o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalar;
- mutafakkirlarning kitobxonlik haqidagi fikrlari;
- o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish zarurati bo'yicha **malakalarga** ega bo'lishi kerak.

#### **VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;

- seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- individual loyihalar
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

## **VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni tola o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo‘yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo‘yicha talabalar bilimni baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo‘llaniladi. Nazorat turlari bo‘yicha baholash: 5 – “a‘lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat o‘quv semestrda bir marta yozma ish shaklida o‘tkaziladi.

Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan amaliy mashg‘ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo‘yicha baholanib boriladi va o‘rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy mashg‘ulot hamda mustaqil ta‘lim topshiriqlarini o‘z vaqtida, to‘laqonli bajarganligi, mashg‘ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

Shuningdek, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta‘lim topshiriqlari bo‘yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o‘rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o‘rtachalanadi**.

O‘tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik bo‘yicha og‘zaki shaklda o‘tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a‘lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimni amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

### **Asosiy adabiyotlar:**

- 1.Hamidova M. Boshlang‘ich ta‘limda bolalar adabiyoti (darslik). – Namangan: Usmon Nosir media, 2022.
- 2.Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti: o‘quv qo‘llanma. – Namangan, 2018. – 300 b.
- 3.Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti. – Namangan: Usmon Nosir,

2021. – 330 b.

4. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2002. –290 b.

5. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti: darslik. – Toshkent, O‘zbekiston, 2002. – 242 b.

6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -T.: O‘qituvchi, 2011.- 260 b.

7. Muminova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi.– Namangan, 2019.

8. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. -Buxoro: Durdon, 2019. - 420 b.

9. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: darslik. – Toshkent: Musiq, 2010. – 368 b.

10. Sulaymonov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: uslubiy qo‘llanma. – Namangan: Ibrat, 2008. – 96 b.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

11. Mirziyoyev. Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016. -56 b.

12. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.- 488 b.

13. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.- 488 b.

14. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.- 104 b.

15. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. -T.: Fan, 2004

16. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. - T., 2008.

17. Jamilova B. O‘zbek bolalar publitsistikasi.- T.: Fan, 2006.- 114 b.

18. Matjon S. Kitob o‘qishni bilasizmi?- T.: O‘qituvchi, 1993.- 144 b.

19. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy – uslubiy izlanishlar.- T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 2009.- 135 b.

20. Nusratova H. Bolajonlik saodati (Safar Barnoyev ijodi asosida). -Toshkent: Muharrir, 2011.- 270 b.

#### **Axborot manbaalari:**

5. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

8. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

#### **Fan/modul uchun mas‘ul:**

Y. Nabijanov - Namangan davlat universiteti boshlang‘ich ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi.

#### **Taqrizchilar:**

M.O. Hamidova – Namangan davlat universiteti boshlang‘ich ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida professori, f.f.n.

M. To‘raboyeva – Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida dotsenti, PhD.

